

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Jizzax politexnika instituti

ABDULLAEV ALNINBEK YANGIBAYEVICH

MOLIYA VA KREDIT

III qism. Kredit

O‘quv qo‘llanma

Ta‘lim yo‘nalishi: 5230200 – Menejment (avtotransport)

Ta‘lim yo‘nalishi: 5111000 – Kasb ta‘lim (5230100 – Iqtisodiyot)

Jizzax

A.Ya. Abdullaev. Moliya va kredit. III qism. Kredit. O'quv qo'llanma.
– T.: "Fan va texnologiya", 2020. 149 bet.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy ta'limning 230000 – "Iqtisod" ta'lim sohasidagi 5230200 – "Menejment" (avtotransport), 5111000 – Kasb ta'lim (5230100 – Iqtisodiyot) bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun 2018 yil 18 avgustda tasdiqlangan "Moliya va kredit" fani dasturiga asosan yozilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmada kreditning zarurligi va mohiyati, kredit qonunlari va funksiyalari, kredit turlari va shakllari, kreditning bahosi va unga ta'sir qiluvchi omillar, kredit tizimi va uning barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar, kreditning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli yoritib berilgan.

O'quv qo'llanma oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar va o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, bank - moliya sohasidagi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma Jizzax politexnika instituti ilmiy Kengashining 2019 yil 30 avgustdagi 1 – sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

T a q r i z c h i l a r :

Do'stqobilov U. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Bank ishi" kafedrasi mudiri, iqtisodiyot
bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD);

Kattakishiev B. - Jizzax politexnika instituti, "Menejment"
kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari
nomzodi, dotsent.

Учебное пособие составлено в соответствии с Государственным образовательным стандартом министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан и предназначено для студентов, обучающихся по специальности 5230200 «Менеджмент» и 5111000 «Профессиональное образование» (5230100 «Экономика»).

В учебном пособии рассматриваются необходимость и сущность кредита, законы и функции кредита, формы и виды кредита, цена кредита, факторы, влияющие на цены кредита, кредитная система, факторы, влияющие на устойчивости кредитной системы, роль кредита в развитии национальной экономики.

Для студентов, преподавателей, научных работников, специалистов финансовой и банковской системы.

The manual is made according to the State educational standard of the ministry of the higher and average vocational education of Republic Uzbekistan and intended for the students trained on a speciality 5230200 "Management" and 5111000 "Vocational training" (5230100 "Economy").

In the manual necessity and essence of the credit, laws and functions of the credit, the form and categories of credit, the credit price, the factors influencing the prices of the credit, credit system, the factors influencing stability of credit system, a credit role in national economy development are considered.

For students, teachers, science officers, experts of financial and bank system.

M U Q A D D I M A

Moliya va kredit zamonaviy sivilizatsiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. U ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarining uzluksiz bog'liqligiga sharoit yaratadi. Bu manbadan foydalanmasdan turib bironta xo'jalik sub'ektini chetlab o'tish mumkin emas. Har qanday shaxs ham bank-moliya muassasasi xizmatlariga doimo yoki onda-sonda murojaat qilishi aniq. Bank-moliya muassasalari vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi, ularni tarmoqlar va hududlar o'rtasida, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholi o'rtasida qayta taqsimlaydi, jamiyatning boyligini rivojlantirish va ko'paytirish uchun ta'minot manbalarini yaratadi, iqtisodiyotga ko'shimcha kapital va energetik resurslar hajmini ko'paytirish uchun xizmat qiladi.

Moliya va kredit murakkab organizmni ifodalaydi, u murakkab iqtisodiy bog'liqlik mavjudligini yuzaga chiqaradi, mahsulotlar harakatida yuzaga keladigan to'siqlarni echib berishga imkoniyat yaratadi.

"Moliya va kredit" (III qism. Kredit) o'quv qo'llanmasi nazariy kurs bilan birga xo'jalikda iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilib o'rganuvchi fan sifatida qo'llaniladi. U iqtisodiyotda kreditning mohiyati va rolini tasniflashga xizmat qiladi. Mazkur o'quv qo'llanma bozor iqtisodiyoti sharoitidagi iqtisodiy munosabatlar, kreditning zarurligi va mohiyati, uning qonunlari va funksiyalari, kreditning turlari va shakllari, kreditning bahosi, kredit tizimi va uning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini o'rganishga bag'ishlangan.

Moliya va kredit kursiga "qotib qolgan" hodisa va jarayonlar sifatida emas, balki doimiy rivojlanishdagi hodisa va jarayonlar sifatida qaramoq darkor. Kredit hozirgi kunda paydo bo'lib qolgan predmet emas, balki u uzoq davom etgan ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli sifatida xizmat ko'rsatib kelmoqda. Davrning muayyan tarixiy kesimida jamiyatning qarashlari uning iqtisodiy munosabatlardagi rolini turlicha bayon qilgan. O'quv qo'llanmada kreditlash yo'nalishiga bag'ishlangan turlicha nazariyalar, takror ishlab chiqarish jarayonida qiymat kategoriyasining o'rni keltiriladi. Bank-moliya muassasalari faoliyati nafaqat

zamonaviy kredit institutlari sifatida, balki uning tarixiy rivojlanishi oddiylikdan murakkablikkacha bo'lgan taraqqiyoti nuqtai nazaridan e'tirof etiladi.

O'quv qo'llanma o'zida nafaqat kredit institutining nazariy kursini, hatto uning amaliy jihatlarini ham qamrab oladi. Kredit qismida nafaqat kreditning mohiyati va funksiyalari, qonunlari va uning iqtisodiyotdagi roli to'g'risida, balki kreditor bilan qarzdor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda foydalanish uchun kerak bo'lgan kredit shakllari ham yoritib berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmasi kredit munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlarini, bank-moliya muassasalari faoliyatining nazariy va tashkiliy asoslarini yoritib beradi, shuningdek ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati va foydalanish mexanizmiga bag'ishlangan tushunchalarni yoritib beradi. Kredit umumiy iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo'lganligi sababli u takror ishlab chiqarishning natijalari bilan bog'liqlikda belgilanadi. U o'zida ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari bilan bog'liq muammolarni aks ettiradi, uni iqtisodiyotdan ajratgan holda o'rganiish ham mumkin emas. Inqiroz sharoitida inflyasiya darajasi, bank-moliya muassasalari faoliyatning susayishi, moliya-kredit muassasalarining inqirozga va, hatto bankrotga yuz tutishi kabi hodisalarni kuzatish mumkin. Shuningdek, o'quv qo'llanmada respublikamiz hamda xorijiy bank-moliya muassasalarining amaliy tajribalari, kreditlashga bag'ishlangan nazariyalarning ijobiy va salbiy xususiyatlari ochib beriladi, unda kredit munosabatlarini tartibga solish samaradorligini oshirish yo'llariga bag'ishlangan mazmunli tushunchalar shakllantiriladi.

Mazkur fan iqtisodiy munosabatlar sohasidagi iqtisodiy bilimlarning kengayishiga asos soladi. U bank kasbiga poydevor yaratish imkonini beradi. Kurs iqtisodiy nazariya, moliya, soliq, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, moliya menejmenti va boshqa shu kabi o'quv fanlar bilan birgalikda bank kasbidagi shaxslarning umumiy qarashlarini shakllantirishga amaliy yordam beradi. Mazkur fan Moliya menejmenti, Bank ishi, Tijorat banklari faoliyatini tashkil etish, Pul-kredit munosabatlarini muvofiqlashtirish, Pul-kredit munosabatlarini boshqarish, Banklarda buxgalteriya hisobi, Byudjet hisobi va boshqa shu kabi yo'nalishdagi

fanlar bilan birgalikda bank kasbidagi shaxslarni keng doiradagi mutaxassislik bilan ta'minlaydi.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari va bank-moliya tizimida ilmiy – pedagogik va yuqori amaliy tajribaga ega bo'lgan, bank-moliya muassalari faoliyatining turli jihatlarini yoritishga bag'ishlangan kitob, monografiya yozib tayyorlagan muallif tomonidan tayyorlangan.

B I R I N C H I B O B

KREDITNING ZARURLIGI VA MOHIYATI

1.1. Kreditning zarurligi va uni belgilovchi omillar

Pul izidan quvish orqali kredit atamasining kashf qilinishi kishilik jamiyatining dohiyona ixtirolaridan biri sanaladi. Kreditdan minnatdor bo'lishimiz kerakki, u vaqt sarflanishining keskin qisqarishiga yordam beradi. Qarz oluvchi (korxona) qo'shimcha qiymat hisobidan o'zining resursini ko'paytirish, xo'jalik faoliyatini tobara kengaytirish, ishlab chiqarishda tezlashuvga erishish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bunda kreditdan foydalanuvchi shaxs ikkita qulay sharoitga: *birinchidan*, shaxs o'zining faoliyatini kengaytirish orqali erishilgan qo'shimcha resurs hisobidan imkoniyatga ega bo'lishi; *ikkinchidan*, qo'yilgan maqsadga erishishni tezlashtirish, xoxishiga ko'ra muayyan narsa, predmet yoki qimmatliklarga va o'z navbatida, kelgusida muayyan vositalarga ega bo'lishi mumkin.

Zamonaviy iqtisodiyotda kredit kategoriyasi iqtisodiy rivojlanishning ajralmas elementi sifatida rol o'ynaydi. Kreditdan ishlab chiqarish sohasidagi korxonalar, qishloq xo'jaligini ishlab chiqaruvchilar, savdo tashkilotlari, hukumat va hatto, ayrim fuqarolar ham foydalanishi mumkin.

Kreditor o'zidagi bo'sh turgan resurslarni qarz oluvchilarga berishi yoki ularni qo'shimcha mablag'lar bilan birgalikda qaytarib olishi mumkin. Bunda beriladigan kredit pul shaklida yangi to'lov vositasi sifatida ishtirok etadi.

Kreditning iqtisodiyotning rivojlanishiga bo'lgan ta'siri bir xil ma'noda baholanmaydi. Masalan, ayrim mutaxassislar, kredit shaxslarni qashshoqlikka olib keladi, mol-mulklar va resurslar tanglikka yuz tutadi deb hisoblaydilar. Boshqa ayrim mutaxassislar esa iqtisodiyotning real tarmog'iga qanchalik ko'p kredit yo'naltirilgan bo'lsa-da, u iqtisodiyotning real tarmog'ini zaiflashtiradi, qarz oluvchining moliyaviy ahvoliga putur etkazadi va, natijada ularning inqirozga yuz tutishiga, hatto bankrot bo'lishiga olib keladi degan mazmunni qo'llab-quvvatlaydi.

Kreditning iqtisodiyotning real tarmog'iga bo'lgan ta'sirini turlicha ma'noda

tushunish uni aniq tasavvur qilishga olib kelmaydi.

Kreditning paydo bo'lishini mahsulot ishlab chiqarish sohasidan emas, balki ayirboshlash sohasidan izlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda tovar egalari iqtisodiy munosabatlarda mustaqil yuridik shaxs yoki mulk egasi sifatida bir-biriga qarama-qarshi yoki raqobatda bo'ladi. Tovarlarning bir qo'ldan ikkinchi qo'lgan o'tishi yoki xizmatlar ayirboshlash jarayonida tovarayirboshlash asos bo'lib xizmat qiladi, bu holat kredit xususidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Qiymatning rivojlanishi – kredit rivojlanishining yadrosini tashkil etadi.

Iqtisodiyot asosida kredit munosabatlari paydo bo'ladi va rivojlanadi, bunda kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Har kuni korxonalarda qiymat shaklidagi vositalar va mehnat predmetlari pul yoki ishlab chiqarish yoki tovar shaklida harakat qiladi, ulardan turli maqsadlarda foydalaniladi.

Kapitalning doiraviy aylanishining birinchi bosqichida pul ishlab chiqarish sohasiga yo'naltiriladi, bunda ishlab chiqarish vositalari pul mablag'lari hisobidan sotib olinadi. Uning ikkinchi bosqichida (ishlab chiqarish jarayonida) tayyor mahsulot (tovar) yaratiladi, bu holatda ishlab chiqarish shakli tovar shakliga o'tadi, ya'ni ishlab chiqarish vositalarining qiymatiga yangidan yaratilgan qiymat qo'shiladi. Uchinchi bosqichda esa yaratilgan tayyor mahsulot sotiladi. Tovar shakli o'zining dastlabki pul shakliga qaytadi, bunda pul shaklining miqdori sof daromad ko'rinishda miqdor jihatdan ko'payadi.

Pul mablag'larining bir shakldan boshqa shaklga o'tgandagi harakati so'ngra ularning harakatini to'xtatmaydi, bunda pul mablag'lari nafaqat doiraviy aylanadi, balki aylanadi ham. Mahsulot sotishdan tushgan tushumlar yana qaytadan ishlab chiqarishga sarf qilinadi, bunda ishlab chiqarish sohasiga yangi vositalar sotib olinadi, mehnat haqlari to'lanadi, pulning doiraviy aylanishi yana yangidan takrorlanadi, ya'ni mablag'lar yana uzluksiz doiraviy aylanadi.

Pul mablag'larining bir shakldan boshqa shaklga ketma-ket o'tishi yoki kapitalning uzluksiz doiraviy aylanishi va aylanishi hamma joyda ham bir xil tarzda bo'lmaydi, ular ishlab chiqarish yoki mahsulotdan foydalanishda namoyon

bo‘ladi. Mablag‘larning doiraviy aylanishi va aylanishi u yoki bu korxonaning ishlab chiqarish faoliyati xususiyati bilan ifodalanadi. Har bir doiraviy aylanish boshqa doiraviy aylanishi bilan chambarchas bog‘liq.

Kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishi bir-biridan keskin farq qilgan holda ularning doiraviy aylanishi va aylanishida yuzaga keladigan tebranishlar bir-birini inkor etmaydi. Ularning harakatida mablag‘larning ko‘payishi yoki kamayishi yohud resurslarga bo‘lgan talabni ta‘minlash manbaining tebranishi paydo bo‘ladi. Resurslarni korxonaning asosiy va aylanma kapitalining harakatida bir-biri bilan aloqador ko‘rinishda kuzatish mumkin.

Asosiy kapitalning harakatida resurslarning bo‘sh turib qolish holatini ham kuzatish mumkin. Ma‘lumki, mehnat vositalaridan uzoq muddatli ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladi, bunda ularning qiymati tayyor mahsulotning qiymatiga qisman-qisman o‘tkazib boriladi. Asosiy kapital qiymatining asta-sekin tiklab borilishi korxonaning hisobvarag‘idagi bo‘sh turgan pul mablag‘larining kamayib borishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bunda korxona ulardan foydalanishi yoki eski vositalarini almashtirishi uchun yangi mehnat vositalarini sotib olishda etarlicha mablag‘ni jalb qilib borishi taqozo etiladi.

Ammo o‘zining miqdoriga ko‘ra, asosiy kapital qiymatining bo‘sh turib qolishi korxonaning yangi partiyadagi vositalarni sotib olishga bo‘lgan talabini ta‘minlamasligi ham mumkin, shuning uchun yangi texnika (mashinalar, mexanizmlar va boshqalar)ning ayrim qismlarini yoki detallarini emas, balki barcha qismlar va detallarni sotib olishi kerak bo‘ladi. Eskirgan mehnat vositalarini yangi vositalar bilan almashtirish amortizatsiya fondida jamg‘arilgan amortizatsiya ajratmalari hisobidan amalga oshiriladi. Bu xarajatlar har doim ham uzoq muddat davomida jamg‘arib borilgan resurslarning etarliligini talab qiladi. Asosiy kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishi ularning qiymatini tabiatan tiklashdan yoki notekis harakat qilishidan kelib chiqadi. Notekis o‘zgarishlardan shu narsa kelib chiqish mumkinki, bir korxonada bo‘sh turgan mablag‘lar shakllansa, boshqa korxonada xarajat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan mablag‘larning etishmasligi holati paydo bo‘lib qolishi mumkin.

Bu kabi holatlar aylanma kapitallar harakatida ham uchraydi, bunda kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishida yuzaga kelgan tebranishlar xilma-xil ko'rinishda bo'ladi. Eng asosiysi ular ishlab chiqarish mavsumida yoki ishlab chiqarish vaqtining bir-biriga mos kelmagan holatlarida ro'y beradi. Qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilishga bo'lgan talab import bilan ta'minlash yoki tovar-moddiy qiymatliklarni faqat bir marta olib kelish holatini yuzaga keltirish mumkin.

Mablag'lar harakatidagi notekis o'zgarishlar tayyor mahsulotlarni yuklab jo'natish bilan bog'liq jarayonlarni yuzaga keltiradi. Ma'lumki, ko'pincha mahsulotlarni yuklab jo'natish vaqti ularni sotishdan kelib tushgan tushum vaqtiga mos kelmay qoladi. Mahsulotlarni ishlab chiqarish joyining ularni iste'mol qilish joyidan olis masofadali qo'shimcha resurslarga bo'lgan talabni yuzaga keltirishi mumkin.

Kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishining notekis o'zgarish negizida tabiatan iqtisodiy munosabatlar paydo bo'ladi, ular ishlab chiqarish vaqti bilan mablag'lar muomalasi vaqti o'rtasidagi nomutanosibliklardan cheklanadi, mablag'larning vaqtinchalik kamayishi o'rtasida nisbiy ziddiyatlarni bartaraf qiladi va iqtisodiyotda ulardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu munosabat kredit deb ataladi. Kredit tovar xo'jaligining muqarrar belgisi sifatida shakllanadi. Kreditni qarz oluvchilar qashshoq bo'lganliklari uchun qarzga olmaydi, balki kreditni qarz oluvchi kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishini ta'minlash maqsadida o'z resurslarining etishmay qolganligi uchun oladi. Ular har doim uzluksiz harakatda va aylanishda bo'lishi lozim.

Jamiyatning manfaatdorligi *birinchidan*, harakatsiz bo'sh turib qolgan resurslardan qutulganda, *ikkinchidan*, iqtisodiyot keng doirada uzluksiz rivojlanganda paydo bo'ladi.

Kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishi bilan birga kreditning ob'ektiv zaruriyati izohlanib berilishi tqazo etiladi. Uning doiraviy aylanishi va aylanishining notekis harakat o'zgarishi bir bo'g'inda bo'sh turgan mablag'larni, turli talablarni real ifodalaydi, shuningdek, doiraviy aylanish va aylanish jarayonida kredit munosabatlarining paydo bo'lishga sharoit yaratadi.

Buning uchun kredit imkoniyati real bo'lishi, muayyan shartlar, so'ngida esa quyidagi chora-tadbir amalga oshirilishi tqazo etiladi:

- kredit shunday shakllanish kerakki, qachonki kreditor bilan qarz oluvchining manffaatorligi ularning muvofiqligidan kelib chiqilsa;
- kredit kelishuvining ishtirokchilari (kreditor va qarz oluvchi) mustaqil yuridik sub'ekt sifatida namoyon bo'lsa yoki majburiyatlar moddiy jihatdan kafolatli bajarilsa.

Kredit kelishuvidagi holat uning ishtirokchilari o'rtasida kreditga nisbatan qiziqishni uyg'otadi. Bu qiziqishlar sub'ektiv narsalarning mavjudligida yoki muvofiqlashtirilishida emas, balki ishlab chiqarish munosabatlaridagi ishtirokchilar erkin bo'lgandagina amalga oshadi.

Amaliyotda, masalan, korxona kreditning sub'ekti sifatida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash uchun qo'shimcha resurslarni jalb qilishga bo'lgan talabni his qilishi mumkin. Ammo qarz oluvchining qo'shimcha resurslarga bo'lgan talabi kreditorning kredit berish bilan bog'liq majburiyatlik omili umuman bo'lmaydi.

Banklar umumiy kreditorlar sifatida ssudani qarz oluvchiga berish imkoniyatini tahlil qilib borishga majbur, chunki kredit shartnomasi va mablag'larni qaytarishga qo'yilgan talablarga muvofiq uning kreditga layoqatliligi real aniqlanadi.

1.2. Kreditga bo'lgan talabning paydo bo'lishi

Tovar-pul munosabatlari sharoitida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni natural va pul (mehnat mahsuli va pul harakati) shaklida ifodalanadi. Qiymatning harakatida pul shakli tovar shakliga, tovar shakli unumli tovar shakliga, unumli tovar shakli esa tovar shakliga va tovar shakli yangilangan pul shakliga almashadi. YAlpi ijtimoiy mahsulot qiymatining almashuvi, *birinchidan*, iqtisodiyotning bitta bo'g'inida pul mablag'larining vaqtinchalik bo'sh turishini, *ikkinchidan*, boshqa bo'g'inlarda bo'sh turgan pul mablag'lariga bo'lgan talabning shakllanishini kuzatish mumkin.

Ijtimoiy mahsulot qiymatining tovar shaklidan pul shakliga o'tshida pul

mablag'larining bo'sh turish holati yuzaga keladi. Bunda moddiy ishlab chiqarish sohasi tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotish, muomala sohasi esa tovar shakli bilan xarakterlanadi. Mablag'lar bo'sh turishining iqtisodiy tabiatiga ishlab chiqarishning mavsumiyligi, mahsulot turlarini tayyorlashning texnologik xususiyatlari, mol etkazib beruvchilardan xaridorlargacha bo'lgan masofaning uzoqligi sabab bo'ladi. Ushbu omillarning ta'siri mablag'lar doiraviy aylanishining tezligiga mos kelmaydi, natijada moddiy vositalar va pul mablag'larining muayyan bir qismi nisbatan bo'lsa-da bo'sh turib qoladi.

Iqtisodiyotda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larining shakllanishi bilan bir qatorda bu mablag'larga talab paydo bo'ladi. Korxonalar (banklar) - o'zining moliyaviy xo'jalik faoliyatini kengaytirish uchun, aholi – o'zining turmush farovonligini oshirish uchun, davlat - kredit resurslariga bo'lgan talabini ta'minlash uchun pul mablag'larini jamg'arib boradi. Kreditga bo'lgan talab o'z navbatida kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini belgilovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning barcha bosqichlari uchun umumiy va doimiy bo'lib kelgan. U hamon mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida harakat qilib keladi. Demak, kreditga bo'lgan talab – bu pul mablag'lari bilan ta'minlangan yoki to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ehtiyoj ekan. Ehtiyoj kerakli miqdordagi pul mablag'lari bilan ta'minlanmas ekan, u keyin ham «xohish» yoki «istak» bo'lib qolaveradi.

Pul mablag'lari doiraviy aylanishining birinchi fazasida aylanma mablag'larning pul shaklidan tovar shakliga o'tishida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda kreditga talab paydo bo'ladi. Bu talab asosan uy- ro'zg'or buyumlari, xom ashyo va materiallar, konstruksiya va detallar, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, yoqilg'ilar, ehtiyot qismlar va boshqa mahsulotlar turlari bo'lishi mumkin. Ma'lumki, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida minimal zahiralarini shakllantrish uchun etarli darajada aylanma mablag'lar mavjud bo'lishi lozim. Pul mablag'larisiz ular o'zining hayot faoliyatini davom ettirishlari mumkin emas. SHu sababli aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kredit vositalarisiz o'zining oldiga qo'ygan rejali vazifalarini bajarishi mumkin emas. Kredit mavsumiy xom ashyo, uy ro'zg'or buyumalari va boshqa turdagi

materiallarni shakllantirish uchun aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ehtiyojlari uchun beriladi.

Vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jamg‘arish va taqsimlash jarayoni tovar-pul munosabatlarining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ular kredit asosida amalga oshiriladi. Bitta bo‘g‘indagi harakatsiz pul reurslari iqtisodiyotning boshqa bo‘g‘inidagi takror ishlab chiqarish xarajatlarining sarfini qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

Ijtimoiy mahsulot (milliy daromad)ni yaratish va taqsimlash qoidasiga ko‘ra, sub’ektlarda iqtisodiy munosabatlarning xilma-xilligi kredit turlari (iste‘mol krediti, davlat krediti, bank krediti, xalqaro kredit)ni oldindan belgilab beradi. Kreditning turlari asosida aholi, korxonalar, banklar, hukumat va chet el mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro kredit munosabatalari shakllanadi.

Takror ishlab chiqarish jarayonining asosiy sub’ekti – bu iqtisodiyotni tashkil etish funksiyasini bajaruvchi mamlakat bo‘lib hisoblanadi. Bu funktsiya kredit tizimi va jamiyatning pul mablag‘larini boshqarish bilan o‘zaro uzluksiz bog‘liq.

Iste‘mol krediti bozor iqtisodiyotining qonunlariga mos ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyotda bu qonunlarning talabiga ko‘ra, aholining turmush farovonligini oshirish darajasi batafsil ta’minlangan bo‘lishi kerak. Iste‘mol krediti jamiyat a’zolarining shaxsiy talablarini kengaytirish uchun mablag‘larni jag‘arib borish imkonini beradi. Iste‘mol krediti deganda jamiyat a’zolarining shaxsiy ehtiyojlarini ta’minlash uchun beriladigan tovarlar, pul mablag‘lari va qarz majburiyatlari tushuniladi. Kreditdan tovar yoki natural shaklida savdo tashkilotlari shaxsiy iste‘mol tovarlarini sotish yoki kundalik hayot predmetlarini muddati o‘tgan to‘lovlar asosida ustama foiz bilan berishda foydalanadi. Savdo tashkilotlari tovarlarni kreditga sotishlari uchun foydalaniladigan aylanma mablag‘lar qisqa muddatli bank krediti hisobidan qoplanadi.

Pul shaklidagi iste‘mol krediti aholiga uy-joy qurilishi, xo‘jalikdagi uy-ro‘zg‘or buyumlari, shaxsiy xo‘jaliklarni rivojlantirish va boshqa maqsadlar uchun beriladi. U shahar va qishloqlarning ijtimoiy-iqtisodiy shartitiga mos holda

aholining turmush farovonligi darajasini oshirishni rag'batlantiradi. SHaharda kredit ob'ekti - kooperativ kvartiralar, mebel garniturlar, televizorlar va boshqa turdagi uy ro'zg'or buyumlari; qishloqda esa kredit ob'ekti - yakka tartibdagi uy-joylar, chorva mollari, parandachilik, baliqchilik va boshqalar bo'lishi mumkin. Iste'mol krediti mamlakat barcha fuqarolarining ehtiyojlari uchun beriladi va aholining turmush farovonligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Davlat kredit yordamida davlatning qo'lida pul mablag'lari jamg'arib boriladi. Bu kreditning mavjudligi harakatsiz pul mablag'lariga nisbatan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun daromadlarni shakllantirish va ularni sarflashga vaqtinchalik muvofiq kelmasligi sabab bo'ladi. Kredit tizimida davlat krediti yordamida aholi qo'lida, xo'jalik bo'g'inlari va ijtimoiy tashkilotlarda pul zahiralarining jamg'armasi shakllanadi, banklarda esa pul resurslari va bank operatsiyalarining turlari amalga oshiriladi.

Xo'jalik bo'g'inlarida pul zahiralarining shakllanishi aylanma mablag'larni to'ldirish, mehnat haqlari bilan hisoblashish va boshqa turdagi to'lovlar bilan o'zaro bog'liq. Bu holat vaqtinchalik pul mablag'lari qoldiqlarining xo'jalik aylanmasida shakllanishi bilan belgilanadi.

Davlat jamiyat a'zolarining pul zahiralarini takror ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun ishlatadi. Aholining pul zahirolari ularning daromadlari asosida shakllanadi, xususan, uning birinchi maqsadi joriy to'lovlarni amalga oshirish; ikkinchisi esa yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi, engil avtomobillar, uzoq muddatga foydalanadigan tovarlar va boshqa turdagi vositalarni sotib olish uchun yo'naltiriladi. So'ngra takror ishlab chiqarish jarayonida aholining vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'laridan foydalanish uchun mustahkam manba yaratiladi.

Davlat krediti *birinchidan*, jamiyatda vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini safarbar qilish, *ikkinchidan*, banklar pul mablag'laridan kredit tizimining resurslari sifatida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini ta'minlash uchun foydalanish maqsadida beriladi.

Bank krediti pul mablag'larining doiraviy aylanish qonuniyatiga asoslanadi

va takror ishlab chiqarishda pul mablag‘larining aylanishini taqozo etadi. Takror ishlab chiqarishning asosiy sohasi moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish sohasi bo‘lib, bunda ishchi kuchi bevosita ishlab chiqarish vositalari bilan birgalikda birlashadi.

Bank kreditiga bo‘lgan talab sotilgan mahsulotdan tushgan tushum bilan amalga oshiriladigan to‘lovlar o‘rtasidagi nomutanosiblikning yuzga kelishi oqibatida paydo bo‘ladi. Amalga oshirilgan to‘lovlar bilan sotilgan mahsulotdan tushgan tushum o‘rtasidagi vaqtinchalik tafovut qator sabablarni keltirib chiqaradi. Birinchi sabab - asbob-uskunlarni yangilash va yangi materiallarni yaratish maqsadida aylanma mablag‘larni pul resurslari bilan to‘ldirib borishdan iborat. Resurslarni belgilangan miqdorda shakllantirish faqat xo‘jalik faoliyatini yuritish davrining oxirida yuz beradi. Ikkinchi sabab - qishloq xo‘jaligi xom ashyolari bilan faoliyat ko‘rsatuvchi sanoat korxonalari mavsumda mahsulotlarni yoppasiga tayyorlash jarayonida xom ashyo zahiralarini jamg‘arishda pul mablag‘larining etmasligi holati bo‘lishi mumkin. Uchinchi sabab - korxonalar minimal talab asosida topshiriqlarni amalga oshirish uchun o‘zining pul mablag‘lari manbaini taqsimlaganligi sababli qarz mablag‘lariga nisbatan doimiy zaruriyat va ehtiyoj sezadi.

Xo‘jalik bo‘g‘inlari aylanma mablag‘lardan tashqari takror ishlab chiqarishni mablag‘lar bilan ta‘minlash uchun qarzga olinadigan resurslarga bo‘lgan talabini o‘zida his qiladi. Korxonada takror ishlab chiqarishni mablag‘lar bilan ta‘minlash bank kreditining keng doiradagi ishtirokini taqozo etadi. Kreditning rolini iqtisodiyotning oziq-ovqat sanoati, agrosanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga ta‘sirini kuzatish mumkin.

Xalqaro kredit jahon xo‘jalik tizimida ijtimoiy mehnat taqsimoti va mehnat faoliyati mahsulini ayirboshlash bilan o‘zaro bog‘liq. Xalqaro kredit - bu tovar yoki valyuta ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berish, muddatlilik va foiz to‘lash shartlari asosida ajratish bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ssuda ko‘rinishidagi kapitalning harakatidir. Kredit munosabatlarining sub’ektlari sifatida tijorat banklari, Markaziy banklar, davlat

organlari, yirik korxonalar va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari ishtirok etadi. Xalqaro kreditning paydo bo'lishiga ishlab chiqarishning milliy doiradan chiqishi, xo'jalik aloqalari baynalminallashuvining tezlashuvi, xalqaro kapitallarning markazlashuvi hamda ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi sabab bo'ladi.

Xalqaro kredit kengaytirilgan takror ishlab chiqarish talablarini ta'minlash uchun ssuda kapitallarini mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlash, haqiqiy pullarni kredit pullarga almashtirish, naqdsiz pul to'lovlarini rivojlantirish va tezlashtirish, naqd valyuta ko'rinishidagi aylanmani xalqaro kredit operatsiyalari bilan ayirboshlash orqali xalqaro hisob-kitoblar muomalasidagi sarf-xarajatlarni iqtisod qiladi, kapitalning jamg'arilishi va markazlashuvini tezlashtirishga ko'maklashadi. Kredit munosbatlari asosida iqtisodiy aloqalar bir tomondan, eksport tarkibining sifatini yaxshilashga imkon beradi, ikkinchi tomondan iqtisodiyotning zamonaviy asbob-uskunalarga, iste'mol tovarlarga bo'lgan talabni to'liq ta'minlash imkonini beradi.

Xalqaro kreditning iqtisodiyotdagi ijobiy roli - takror ishlab chiqarish rivojlanishini ta'minlash va kengaytirish orqali namoyon bo'ladi, u tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qiladi, ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va ayirboshlashuviga, jahon bozorining tashkil topishi va rivojlanishiga, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga olib keladi.

Xalqaro kreditning salbiy roli - bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda yuz beradigan qarama-qarshiliklarni kuchaytirishda namoyon bo'ladi, natijada iqtisodiyotda nomutanosiblik yuzaga keladi, kreditga tovarlarni ayirboshlash tezlashadi, mamlakatlar o'rtasida ssuda kapitallari qayta taqsimlanadi, iqtisodiy ko'tarilish va davriy pasayish davrida ishlab chiqarish o'ta tezlashadi.

Xalqaro kredit ijtimoiy ishlab chiqarishdagi nomutanosiblikni kuchaytiradi, buning natijasida daromadli tarmoqlarning rivojlanishi osonlashadi, xorijiy kapitallar jalb qilinmagan tarmoqlarning rivojlanishini sekinlashtiradi.

1.3. Kreditning mohiyati va uning namoyon bo'lish shakllari

Kredit ko'pincha pul shakli sifatida idrok etiladi. Birinchi qarashda haqiqtan poydevor bordek. Zamonaviy xo'jalik yuritishda qarzlar pul mablag'ining yirik qismini tashkil etadi. SHunday bo'lsa-da, pul va kredit – nafaqat turli xil tushuncha, hatto turlicha munosabatda hamdir.

Aytish joizki, pul va kreditning natural–ashyoviy ko'rinishi emas, balki iqtisodiy ko'rinishlari ham mavjudligini ayrim iqtisodiy adabiyotlarda kuzatish mumkin. Bir ishtirokchi ikkinchi ishtirokchiga pul belgilaridan qancha miqdorda berib turishi yoki ular qaysi kupyuralardan iboratligining ahamiyati yo'q. Pul va kredit iqtisodiy kategoriya bo'langanligi sababli ularning mohiyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, ularning mohiyatini pul ko'rinishida emas, balki ularni tasnifiga ko'ra iqtisodiy (qiymat) munosabatlari orqali shakllantirish mumkin.

Kredit munosabatlarining pul munosabatlaridan birinchi farqi ishtirokchilar tarkibining tafovutlari bilan belgilanadi. Pul umumiy ekvivalent sifatida sotuvchi bilan sotib oluvchi, pul oluvchi bilan to'lovchi o'rtasidagi munosabatlar natijasida paydo bo'ladi. Qiymat javob tariqasida harakatlarni amalga oshiradi: qiymat tovar sotuvchidan sotib oluvchiga, pul oluvchidan to'lovchiga o'tadi. Kredit kelishuvida sub'ektlar sifatida kreditor bilan qarz oluvchi ishtirok etadi. SHuningdek, kelishuvda o'ziga xos manfaatdorligi bor ishtirokchilar tarkibi sifat jihatdan o'zgaradi, bunda o'ziga xos yangi munosabat, ya'ni qiymatni qaytish yuzasidan munosabat yuzaga keladi. Bunda qiymat javob tariqasida harakatni amalga oshirmaydi, balki qiymat kreditordan qarz oluvchiga o'tadi va muayyan vaqt davomida yana qaytadan o'zining egasiga qaytarib keladi.

Kredit to'lovlarni kechiktirish bilan ham o'ziga xos xarakterga ega, bunda qiymat vaqtinchalik uning egasiga qaytib keladi va muayyan muddat o'tgandan so'ng u kreditorga qaytariladi. SHunday bo'lsa-da, pul va kredit o'zaro birgalikda uzluksiz harakat qiladi. Ammo bu qiymatning umumiy harakati doirasida – yagona, balki u o'zining mohiyati va jarayonlarning funksional jihatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Bu bitta jarayondan (ekvivalentni to'lash orqali sotib

olish – sotish) boshqa jarayonga (kreditni qo'llash orqali sotish) o'tishi munosabatning yangi shakliga, iqtisodiy kelishuv tabiatining o'zgarishiga va bitta iqtisodiy kategoriyadan boshqa iqtisodiy kategoriyaga o'tishi mazmunini izohlab beradi.

Puldan kreditning ikkinchi farqini u yoki bu tovarning muddati uzaytirilganda kuzatish mumkin. Bu holatda ham kredit ham pul birgalikda to'lov vositasi funksiyasi ko'rinishida ishtirok etadi. SHunday bo'lsa-da, agar to'lovlar bo'lib-bo'lib to'lash sharti asosida rasmiy hujjat orqali amalga oshirilsa, u holda pulning mohiyati kredit kelishuvi bo'yicha to'lovlarda namoyon bo'ladi. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida muddati o'tgan to'lovlarda emas, balki to'lovlar muddatining aynan o'zida uning mohiyati gavdalanadi. SHuni unitmaslik kerakki, pulning rasmiy hujjatda uning mohiyati nafaqat muddati o'tgan to'lov sifatida, balki kreditning harakati bilan aloqadorlikda ifodalanadi. Pul to'lov vositasi sifatida byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash, undan esa stipendiyalar, nafaqalar va boshqa to'lovlarni to'lashda faoliyat ko'rsatishini kuzatish mumkin.

Kreditning puldan uchinchi farqi iste'mol qiymati bilan bevosita bog'liqligidir. Agar pul umumiy ekvivalent sifatida mehnat moddiylashuvining har qanday turida mahsulotlarga aylanish imkoniga ega bo'lsa, u holda kredit munosabatlari ishtirokchilari uchun ham kredit kelishuvi ahamiyatli bo'lib qolaveradi. Kredit faqat kredit kelishuvi ishtirokchilarining vaqtinchalik talablarini qanoatlantiradi, xolos.

Kreditning puldan to'rtinchi farqi ularning harakatini ta'qib qilishidir. Kredit pul shaklida ham kredit shaklida ham bo'lishi mumkin. Qachonki, tovar umumiy tovar dunyosidan ajralib umumiy ekvivalent ko'rinishda pul sifatida shakllanadi. Товар kreditga umumiy ekvivalent bo'lishi shart emas, undan vaqtinchalik foydalanilganda u qiymat va iste'mol qiymat ko'rinishdagi tovar ham bo'lishi mumkin.

Kreditning mohiyatini ochib berishdagi eng muhim tavsif ishonch bo'lib hisoblanadi. Kredit munosabatlari nuqtai nazaridan, eng avvalo, shaxslar o'rtasida

o‘zaro bir-biriga ishonch bo‘lishi zarur. Qachonki, qarz oluvchi olgan ssudasini qaytarishi uchun kreditorda ishonch shakllangandagina kredit kelishuvi tuzilishi mumkin. Ishonch kredit munosabatlarini kuzatishda paydo bo‘ladi, ularning echimini topish uchun o‘zaro komponentlar shakllanadi. «Kredit» latincha credere so‘zidan olingan bo‘lib, «ishonch» degan ma’noni anglatadi.

Eng avvalo, ishonch kreditning ajralmas xususiyati sifida namoyon bo‘ladi. Ammo, u kredit munosabatlari uchun o‘ziga xos xususiyatga ega emas, balki u boshqa iqtisodiy munosabatlar uchun ham xarakterlidir. Bu holatda ishonch kredit bilan xarakterlanadi, u o‘ziga xos xususiyatlar orqali ifodalanmaydi, kreditning mohiyatini iqtisodiy munosabatlar sifatida batafsil yoritib berish o‘ziga xos xususiyatlarni talab qilmasligi mumkin.

Haqiqiy hayotda hodisalar tez-tez uchraydi, ular iqtisodiy munosabatlarni eslatib turishi mumkin. Bu esa sarf-xarajatlar va daromadlar bilan o‘zaro bog‘liq. Misol uchun davriy nashrga a‘zo bo‘lishga, abonementlar va kommunal xizmatlarga sarf-xarajatlar oldindan to‘lanadi, ishlab chiqarish xarajatlarning to‘liq kompensatsiyasi esa muayyan vaqt davomida asta-sekin to‘lab boriladi. Ekvivalentni qaytarish muddatining o‘tishi kreditning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, ammo uning mohiyatiga ko‘ra to‘lovlar kredit munosabatlari bo‘lib sanalmaydi.

Kredit iqtisodiy hodisalar doirasida narsalarni yoki pul mablag‘larini vaqtincha qarzga olib turishda namoyon bo‘ladi. Kredit yordamida tovar-moddiy qiymatliklar, mashina va mexanizmlar, aholi uchun to‘lovlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti asosida tovarlar sotib olinadi. Kredit hisobidan sotib olish ob’ekti turlicha qimmatliklar (narsalar, tovarlar) bo‘lishi mumkin. Ammo kreditning «narsalar» deb izohlanishi iqtisodiy nazariya tahlilining tarkibiga kiradi. Ta’kidlanganidek, pul va kredit to‘g‘risidagi iqtisodiy fan narsaning o‘zini emas, balki narsalar bo‘yicha sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi. SHu sababli kredit iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy munosabatlarning muayyan ko‘rinishi sifatida qaraladi.

Ammo kredit – har qanday ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi emas, balki u

faqat iqtisodiy aloqalar yoki qiymatning harakati sifatida namoyon bo‘ladi. Kreditning mohiyatini qanday aniqlash mumkin? Har qanday holatda kreditning mohiyati uning mazmuni, tabiati va paydo bo‘lish sabablari bir xil ma’no bilan tenglashtiriladi. Ammo bu tushunchalar aynan bir xil ma’noga emas. Kreditning mazmuni ichki bog‘liqlik bilan birga uning tashqi bog‘liqligi (ishlab chiqarish, muomala, boshqa iqtisodiy kategoriyalar) orqali ham izohlanadi. Kreditning mohiyati uning ichki xususiyatlariga aylanadi va iqtisodiy kategoriyaning asosi sifatida izohlab beriladi.

Iqtisodiy hodisalarning mohiyati uning tabiati, kelib chiqishi, kreditning qaysi turdagi qiymatiga mansubligi bilan o‘zaro bog‘liq. Kreditning tabiati nafaqat uning mohiyatida, balki uning mavjud bo‘lish shaklida ham namoyon bo‘ladi.

Kreditning mohiyati uning zarurligi va kelib chiqish sabablari bilan chambarchas bog‘liq, bu holatda aynan o‘xshashlik yo‘q. Sabab tushunchasi kreditning turlicha iqtisodiy jarayonlari bilan bog‘liq ko‘rinishda izohlanadi. Sabab turli natijalarni da’vat qilishi, kredit va boshqa iqtisodiy hodisalar bilan bir qatorda hayotga chorlashi ham mumkin, shu sababli u mazkur iqtisodiy kategoriyaning mohiyatiga to‘la-to‘kis tavsif bera olmaydi.

Kreditning mohiyati boshqa iqtisodiy kategoriyalarning mohiyati kabi quyidagi metodologik prinsiplarga tayanadi. Ular quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Kreditning barcha turlari uning mohiyatida mustaqil aks etishi va namoyon bo‘lishi lozim. Masalan, ssuda uzoq vaqtga yoki qisqa muddat ichida bo‘ladigan talablar (xom ashyo, materiallar, asbob-uskuna sotib olish xarajatlari) uchun xizmat qilishi mumkin. Kredit pul yoki tovar shaklida iqtisodiy aylanma sifatida harakatda bo‘ladi, ammo talab bilan bog‘liq emas, talab uchun kredit xizmat qiladi, ammo uning mohiyati o‘zgarmaydi, kredit uning xarakterli xususiyatlari uchun xizmat qiladi.

Kreditning mohiyati to‘g‘risidagi masalani kredit kelishuvi bo‘yicha munosabatlarda ko‘rib mumkin. Agar qarz oluvchi kredit kelishuvi bo‘yicha kreditni o‘z vaqtida qaytarmasa, u holda qaytarish xususiyatlarida kreditning bitta sharti bajarilmay qolishi mumkin. Kredit kelishuvi bitta shartning yo‘qolganligi

bilan belgilanmaydi, balki kredit o'zining qat'iyatligini yo'qotadi va hatto, boshqa imkoniyatlardan ajrab qolishi mumkin.

Kredit mohiyatining tahlili uning konkret tavsifini yoritib berishni maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun kreditning tarkibi va uning harakat bosqichlarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi. Bunda uning yaxlitligi asosiy rol o'ynaydi va unga yaqindan yondoshishni maqsad qilib qo'yish mumkin.

Kredit tadqiqot ob'ekti sifatida o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi elementlardan tarkib topadi. Bu elementlar kredit munosabat-larining sub'ekt bo'lib hisoblanadi. Ular bir-biridan keng doirada muayyan uzoqlikdagi masofada joylashishi mumkin, ammo ular o'rtasidagi majburiyatlar o'z xarakterini o'zgartira olmaydi. Sub'ektlarning kredit kelishuvidagi munosabatlari har doim kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasida namoyon bo'ladi.

Kreditor bilan qarz oluvchining paydo bo'lishi tovar muomalasining asosidan kelib chiqadi. Tovarning ayirboshlashi jarayonida sotuvchi doimo pul ekvivalentini bir zumda o'ziga qabul qilmaydi yoki sotib oluvchi doimo tovarni tez fursatda sotib olish imkoniyatiga ega bo'lavermaydi, to'lovlar faqat muayyan muddat davomida amalga oshiriladi. Demak, bunda sotuvchi kreditor, sotib oluvchi esa qarz oluvchi sifatida namoyon bo'lar ekan.

Tovar muomalasi kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasida paydo bo'lishiga yagona sabab bo'lmaydi. Kreditor bilan qarz oluvchi barcha holatda, ya'ni bitta sub'ektdan ekvivalentni olishda uning muddati o'tgan bo'lishi yoki boshqa sub'ektda muddati o'tgan to'lovlar yuzaga kelishi mumkin.

Kreditor ssuda beruvchi yoki vaqtinchalik ssudadan foydalanuvchi sub'ekt bo'lishi ham mumkin. Kreditor ssudani berishi uchun mablag'larga ega bo'lishi lozim. Ularning manbai qaysidir sub'ektda takror ishlab chiqarish jarayonida o'zlashtirib olingan resurslar bo'lishi mumkin. Kreditor xo'jaligida ssuda faqat o'z resurslari hisobidan emas, balki jalb qilingan hamda saqlanayotgan mablag'lar hisobidan, shuningdek aksiya va obligatsiyani safarbar qilishga yo'naltirilgan mablag'lardan tarkib topgan bo'lishi mumkin.

Bankning paydo bo'lishi jamoaviy kreditorlarning bir joyga to'planishidan

shakllangan deb e'tirof etiladi. Aholi bilan korxonalar (bankirlar)ning bo'sh turgan pul resurslari jamoaviy kreditorlarni shakllantirgan.

Kreditlash manbai nafaqat resurslardan, balki iqtisodiyotda vaqtincha foydalanilmaydigan mablag'lar hisobidan ham shakllangan bo'lishi mumkin. Tijorat kreditida, masalan, kreditor qarz oluvchiga (sotib oluvchiga) kreditni tovarlarni sotib olish maqsadida beradi.

Kreditor pul resurslarini muayyan muddatga qarz oluvchilar uchun uning xo'jalik faoliyati rivojlanishi uchun beruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Qoidaga ko'ra, kreditor ixtiyoriy ravishda shakllanadi. Qachonki, ssuda oluvchi olingan kreditni belgilangan muddat ichida qaytarmasa, u ixtiyoriy ravishda kredit kelishuviga rioya qilmagan deb hisoblanadi, bu holatda u qarz oluvchi bilan shafqatsiz munosabat olib boradi. Kreditorning vaqtincha tirikchilik qilish chegarasi kreditning muddati bilan belgilanadi, bu esa takror ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq.

Kreditorning o'rnini qarzga berilgan mablag'larga nisbatan ikki taraflama munosabatda kuzatish mumkin. Kreditor pul resurslarini kredit sifatida berganda ham u uning o'z mulki bo'lib qolaveradi. Kreditor tomonidan jalb qilingan va joylashtirilgan mablag'lar korxona bilan aholining mulki bo'lib qolaveradi. Modomiki, banklar asosan jalb qilingan mablag'lar asosida ishlaydi, ular kredit tizimini shakllantiradi, bu holatda jalb qilingan resurslar haqiqiy mulk egalarining talablariga ko'ra qaytarilishi lozim. Bunda kreditorga nafaqat korxona yoki yakka tartibdagi ssuda oluvchi ssudani qaytarib berishi, balki kreditorning o'zi ham mijozlardan olingan kreditni qaytarishga majbur bo'ladi.

Kreditor resurslarning bo'sh turgan qismini safarbar qilishi foydali xarakterga ega, modomiki ular daromad keltiradigan pul resurslariga aylanib boradi. Kreditor qarzga berilgan qiymatlarni joylashtirishi uchun ulardan o'z maqsadi uchun unumli foydalanishni xoxlaydi.

Qarzdor va qarz oluvchi tushunchalari o'zaro bir-biriga yaqin tushuncha, ammo bir xil ma'noni bildirmaydi. Aholi va korxona kommunal to'lovlarini, soliqlar, sug'urta to'lovlarini to'lashni kechiktirishi mumkin, ammo bu holatda

hech qanday kredit munosabatlari paydo bo'lmaydi. Bu holatda kreditor boshqa shaxslarga biron narsani bera olmaydi, mulk egasi faqat sub'ekt bo'lib qolaveradi. Qarz tushunchasi - bu nafaqat iqtisodiy munosabat, balki haqiqiy ijtimoiy munosabat hamdir. Qarz tushunchasi keng doiradagi tushuncha bo'lib, u majburiyatlarni umumiy xarakterlovchi tushuncha bo'lib hisoblanadi.

Qarz oluvchi tarixan qo'shimcha resurslarga talabgor sifatida sinalgan shaxs bo'lib kelgan. Bankning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda kreditor ham paydo bo'lgan, hatto qarzdorlar tarkibining ko'lami ham kengayib borgan. Hozirgi sharoitda banklarda qarz oluvchilar sifatida korxonalar, aholi va hukumat ishtirok etadi. Odatda banklar jamoaviy qarz oluvchilar sifatida ham shakllanadi, modomiki ular o'zi uchun emas, balki boshqa shaxslar uchun ham xizmat ko'rsatadi.

Kredit kelishuvida qarz oluvchining o'rni kreditorning o'rnidan farq qiladi, xususan, *birinchidan*, qarz oluvchi qarzga berilgan mablag'ning egasi hisoblanmaydi, u faqat mablag'ning vaqtinchalik egasi sifatida ishtirok etadi; qarz oluvchi bironing pul resursidan foydalanadi, resurslar bo'lsa uning tegishli emas. *Ikkinchidan*, qarz oluvchi muomala va ishlab chiqarish sohasida qarzga berilgan mablag'lardan (materiallar sotib olish, ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiyalash) foydalanadi. Kreditor ssudani ayirboshlash davri uchun beradi, bu bevosita ishlab chiqarishga kirmaydi. *Uchinchidan*, qarz oluvchining xo'jaligida resurslarning doiraviy aylanishi tugaganidan so'ng olingan resurslar qaytarib beriladi. Qarz oluvchi resurslarni kreditorga qaytarishi uchun o'zida bo'sh turgan mablag'lar bilan etarli darajada ta'minlashni tashkil etadi. *To'rtinchidan*, qarz oluvchi nafaqat vaqtinchalik foydalanish uchun olingan qiymatni qaytarib beradi, balki kreditordan olingan mablag'lardan ortiqchasini to'lab beradi, bunda u ssuda foizini to'lab beruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. *Beshinchidan*, qarz oluvchi kreditorga tobe sifatida kreditorning amriga bo'ysinadi. Kreditorga nisbatan qarz oluvchining iqtisodiy tobeligi qarzga olingan mablag'lardan foydalanish uchun o'z majburiyatlarini bajarishga majbur bo'ladi. Hatto, qarz oluvchi qarzga olingan mablag'larini qaytarishi va ssuda foizi ko'rinishidagi tenglashtirilgan mablag'larni to'lash uchun qarz bergan shaxsga nisbatan o'zining

tobeligini yo'qotmaydi: u avvalgi kreditorning o'rniga yangi kreditor bilan uchrashadi, shu sababli ssuda to'g'risidagi shartnomada belgilangan barcha majburiyatlar to'liq bajarilishi zarur, bu holat esa keyingi kreditni olishga asos yaratadi.

Qarz oluvchining kreditorga bo'lgan tobelik o'rni kredit kelishuvida o'zining ahamiyatini yo'qotmaydi. Qarz oluvchi bo'lmas ekan kreditor ham bo'lmaydi. Qarz oluvchi nafaqat resurslarni olishi, balki undan vaqtinchalik resurs sifatida foydalanishi, shuningdek, o'z qarzini to'liq hisob-kitob qilishi shart. Qarz oluvchi shunday foyda keltiradigan kuchki, u vaqtincha olingan resurslardan optimal foydalanish bilan ham bog'liq. Kreditor bilan qarz oluvchi kredit munosabalarida namoyon bo'lish bilan birgalikda o'zining yagona maqsadi bilan yagona manfaatdorlikini ko'zlaydi. Kreditor bilan qarz oluvchi kredit munosabatlari doirasida o'rin almashishi mumkin: kreditor - qarz oluvchi, qarz oluvchi – kreditor sifatida shakllanadi. Zamonaviy pul xo'jaligida u yoki bu sub'ekt bir vaqtning o'zida ham kreditor ham qarz oluvchi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasidagi munosabatlar, ularning bir-biri bilan o'zaro aloqadorligi ikkita sub'ektning o'zaro munosabatini bildiradi: ular, *birinchidan*, mustaqil yuridik shaxslar sifatida; *ikkinchidan*, kredit munosabatlarida mulk uchun javobgarlikni ta'minlovchi ishtirokchi sifatida; *uchinchidan*, iqtisodiy manfaatdorlikni shakllantiruvchi sub'ekt sifatida ishtirok etadi. Kredit munosabatlarining sub'ektlar o'rtasida bog'liqligi barqaror va muntazam munosabatlar bilan xarakterlanadi, ular yaxlit tizim sifatida kredit doirasida muayyan xususiyatlar bilan birga o'ziga xos munosabatlar bilan belgilanadi.

Qarz oluvchi xoxlagan miqdorda ssuda olishi mumkin emas. Qarz oluvchi nafaqat mustaqil yuridik yoki jismoniy shaxs sifatida namoyon bo'ladi, balki u muayyan turdagi mulk bilan ta'minlangan bo'lishi, kreditorning talabiga ko'ra kreditni qaytarish iqtisodiy jihatdan kafolatlangan bo'lishi lozim. Amaliyotda qarz oluvchi moddiy va pul resurslari ega korxona sifatida, kreditni qaytarish uchun o'zining daromadiga va o'z salohiyatiga ega alohida shaxs bo'lishi zarur.

Kreditor bilan qarz oluvchining o'zaro bir-biriga ta'siri yagona ziddiyatli

xarakterga ega. Kreditor bilan qarz oluvchi kredit kelishuvining ishtirokchilari sifatida ikki tarafda bo'ladi. Kreditor – bir tarafda ssuda beruvchi, qarz oluvchi – ssudani oluvchi; u yagona maqsad doirasida o'zining manfaatdorligiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, kreditor ssudani yuqori foizda berishdan manfaatdor bo'lishni, qarz oluvchi esa o'ziga arzon kredit olishdan manfaatdor bo'lishni xoxlaydi.

Kreditor bilan qarz oluvchilardan tashqari kredit munosabatlari tarkibining elementi ssudani birovga berish ob'ekti sanaladi. Ob'ekt kreditordan qarz oluvchiga, qarz oluvchidan esa kreditorga o'tadi. Ssudani birovga berish ob'ekti qarzga berilgan qiymat bo'lib hisoblanadi. Modomiki, u o'ziga xos amalga oshirilmay qolgan qiymatni anglatadi.

Kredit munosabatlari sub'ektlarning birontasida bo'sh turgan mablag'ning sustlashgan harakati bilan yoki ayni paytda yangi xo'jalik siklida namoyon bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan holat sifatida xarakterlanadi. Qiymat vaqtinchalik o'z harakatini kredit sababli to'xtatadi, yangi mulk egasiga o'tishini davom ettiradi, u ishlab chiqarishda va muomalada foydalanishga bo'lgan talab bilan belgilanadi.

Qiymat kredit munosabatalari doirasida qo'shimcha iste'mol qiymatini yaratadi. Iste'mol qiymati aslida o'ziga xos pul yoki tovar, kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasida amalga oshiriladigan harakatdir, uning muhim hislati takror ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi. Qarzga olingan qiymat uning egasining resurslarni yirik hajmda jamg'arishga bo'lgan ishtiyoqini yo'qotadi. Kredit jamg'arishga qo'yilgan to'siqlarni engib chiqadi, ular yordamida navbatdagi xo'jalik siklining harakati davom ettiriladi. Qiymat ishlab chiqarish fondining uzluksiz doiraviy aylanishi uchun asos yaratadi, ular harakatida oddiylik yo'qoladi va oxir oqibatda ishlab chiqarish jarayoni tezlashadi.

Kredit, qoidaga ko'ra, daromadlarni shakllantiradi, ular qarz oluvchining xo'jalik faolitada shakllangan bo'lishi mumkin. Amaliyotda qarz oluvchi kreditorga ssuda olish bilan birga o'zida bo'sh turgan mablag'larning mavjud emasligi to'g'risida murojaat qiladi, ammo u ham daromad olishdan manfaatdor. Qiymat byudjet mablag'alari hisobidan yoki xo'jalikning o'z mablag'lari manbai hisobidan xarajatlarni moliyalashtirish paytida namoyon bo'ladi.

Mablag'lar nafaqat sarflanadi, hatto oxir oqibatda ulardan daromad olish mumkin yoki qanchadir samaraga erishish mumkin. Mablag'larni sarflash iqtisodiy jarayonlarning ajralmas xususiyati sifatida gavdalandi, u faqat kredit munosabatlari orqali o'ziga xos xususiyatga ega. U bir qator qo'shimcha shartlar bilan birgalikda paydo bo'ladi.

Qiymatning saqlanishi kredit sifatining asosini tashkil etadi. Amaliyotda u har doim ham uzoq muddat davomida amalga oshavermaydi. U inflyasiya jarayonlarini yuzaga keltirishi mumkin, pul muomalasi kanallarini ortiqcha pul belgilari bilan to'ldirishi yoki sotib oluvchining imkoniyatini pasaytirishi mumkin. Qarz oluvchi olingan ssudani nominal miqdorda ustama bilan birga qaytarib beradi. Inflyasiya sharoitida kreditni qaytarish qarzga olingan mablag'larning arzonlashishi bilan bog'liq maxsus kafolat talab etadi. Amaliyotda bunday kafolat ko'proq ssuda foizi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Kreditning tarkibi uning yaxlitligi bilan xarakterlanadi. Kredit – bu nafaqat kreditor (bank) yoki nafaqat qarz oluvchi (korxona), balki qarzga olingan qiymatdir. Kreditning tarkibi uning elementlari bilan birgalikda yaxlitlikni talab qiladi. SHu sababli kreditning mohiyati iqtisodiy kategoriya sifatida ko'pincha bank kreditining mohiyati bilan almashtirib qo'yiladi. Kreditning mohiyatini umumlashtirish muayyan bir hodisalardan kelib chiqadi, iqtisodiy hodisaning mohiyatini yoritishda qarzga olingan ssuda ob'ektidagi elementlarga duch kelish mumkin. Bunda kreditning mohiyati yaxlit jarayon sifatida birgina elementning mohiyati bilan almashtiriladi.

Qarzga berilgan ssudaning qiymatini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$J_k - O_k - I_k \dots V_r \dots V_q \dots - K_q,$$

bu erda J_k - kreditni joylashtirish; O_k - qarz oluvchining kredit olishi; I_k - kreditning ishlatilishi; V_r - bo'sh turgan pul resurslari; V_q - vaqtincha qarzga olingan qiymatni qaytarib berish; K_q - kredit shaklida joylashtirilgan mablag'larni kreditor tomonidan qaytarib olishi.

Kredit tarkibidagi o'xshash yagona element boshqa element bilan

taqqoslanmaydi, tahlilda qarzga berilgan ssuda qiymatining harakati bosqichini su'niy bo'laklarga ajratish yoki iqtisodiy kategoriya mohiyatining tahlilini yuqori darajaga ko'tarish mumkin emas.

Ko'pincha tahlilda qo'yilgan talablarga rioya qilinmaydi: masalan, kredit – bu mablag'larni berish (joylashtirish), kredit – bu mablag'lardan foydalanish va nihoyat, kredit – bu qarzga berilgan ssudaning qiymatidir. Birgina yondoshuv kredit harakatini to'xtatishi mumkin. Kreditni berish yagona bir maqsad bo'lib qolish kerak emas, u qaytarish jarayoni bilan birgalikda ob'ektiv qonuniyatlarga ham bog'liq, qarzga berilgan ssudaning qiymati qaytarilmasligi mumkin emas. Kreditni berish qarzga berilgan ob'ektning iste'mol xususiyatlariga ega bo'lishi va uni dastlabki holatiga qaytarish mumkin. Kreditni joylashtirish kredit harakatining dastlabki bosqichi bo'lib hisoblanadi. U qoidaga ko'ra, qiymatning jamg'arilishidan oldin beriladi. Buning uchun pul mablag'lari yoki qiymatliklarni kimga berish va ularni jamg'arish kerak bo'ladi. Ssudada qiymat oldindan joylashtirilgan bo'lishi mumkin. Masalan, kreditor ssuda oluvchiga berish paytida unda bo'sh turgan qiymatliklar jamg'arilmagan bo'lishi mumkin, bunda ayirboshlash jarayoni davom etishi kerak. Tovar iste'molchiga kredit vositasi sifatida beriladi, bo'sh turgan qiymat esa ifodalanmaydi. Mablag'lar bo'sh turgan qiymat sifatida hisobga olinmasligi mumkin, qachonki ular ishlab chiqarishga qo'yilmalar hisobidan joylashtirilgan bo'lsa.

Kreditni joylashtirish (J_k) amaliyot uchun muhim ahamit kasb etadi. Kreditor «saxiy» bo'lganligi sababli qarzga berilgan barcha qiymatni taqsimlab yuborishi mumkin emas, buning uchun kimga qo'shimcha resurs kerak bo'lgandagina beriladi. Har bir holatda unga nisbatan ishonch bo'lishi kerak. Bank kreditor sifatida kreditning harakatiga qo'yilgan talabiga mos holda undan optimal foydalanishi va belgilangan muddatda qaytarish talabiga muvofiq ravishda kredit beradi.

Qarz oluvchining kredit olishi (O_k) uni muayyan maqsadda foydalanish uchun ishlatishi yoki avval shakllangan qarzlarni qoplashi maqsadida ishlatishi mumkin. Amaliyotda qarz oluvchining ssudani olishdagi talabi umumiy talab

bilan mos kelmasligi, yangi ssuda olish uchun kreditorga (yangi kreditorga) murojaat qilishi mumkin. Bu kabi holat bu bosqichning asosiy xususiyatlarini yo'qqa chiqarmaydi: qarz oluvchining kredit olishi uning vaqtinchalik talabini ta'minlaydi, shunday ekan qiymat muayyan vaqtga qarzga olingan ssuda sifatida beriladi. Qiymatning qarz oluvchiga o'tishi kreditdan foydalanish jarayonida (I_k) birovga berish ob'ektining iste'mol qiymatida namoyon bo'ladi.

Bo'sh turgan resurslar (V_r) qarz oluvchida qiymatning doiraviy aylanishining yakunlanishi bilan belgilanadi. Bu holatda kreditor vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni kredit sifatida joylashtirishi oldindan yuz beradi, qarz oluvchining xo'jaligida bo'sh turgan qiymat va uning to'planishi vaqtinchalik qarzga olingan qiymatni qaytarishni talab etadi. Ammo kredit harakatining bu bosqichi kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasidagi munosabatdan holi saqlanadi. Qarz oluvchining xo'jaligida bo'sh turgan qiymatdan uning vaqtinchalik manfaatini ta'minlash maqsadida foydalaniladi. Bu holat keyingi fazada kreditning namoyon bo'lishi uchun moddiy asos bo'lib hisoblanadi.

Kreditni qaytarish (V_q) qarz oluvchidan kreditorga vaqtincha qarzga olingan qiymatning qaytarilishi bilan izohlanadi. Bunda qarz oluvchining xo'jaligida qiymatga vaqtinchalik egalik qilishi kreditorga «o'tadi». Kredit harakatining bu bosqichida bo'sh turgan mablag'larni qaytarish xarakteri bilan bog'liqligi sifat jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Agar haqiqatda bo'sh turgan mablag'lar qaytarib berilsa, u holda kreditor oldida qarz oluvchining majburiyati real tarzda bajariladi. Bu holatda qarzga olingan mablag'larning qaytarilishi real darajada gavydalanadi. Agar bo'sh turgan qiymat mavjud bo'lmay qolsa, u holda qarz oluvchi o'z majburiyatini qo'shimcha manbalar hisobidan amalga oshiradi va rasmiy ravishda qaytarib beradi. Oxir oqibatda ssudadan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy samaradorlik hosil bo'lmaydi, shunday ekan bu holatda ssudalar yordamida daromad yoki foyda shakllanmaydi, faqat ssudani berish jarayoni namoyon bo'ladi, xolos.

Vaqtinchalik foydalanish uchun berilgan qiymatdan kreditorning foydalanish jarayoni (K_q) kredit harakatining so'nggi bosqichi bo'lib hisoblanadi.

Kreditni qaytarish jarayoni (V_k) bilan kreditorning ssudaga joylashtirilgan mablag'lar (K_q) miqdoriga mos kelishi mumkin. Bu holatda mavjud bosqichlar umumlashtiriladi: olingan qarzning muayyan miqdorini qarz oluvchi qaytarib beradi, kreditor shuncha miqdordagi qarzni (foiz ko'rinishda oshgan qismini) o'ziga kirim qiladi. Ammo kreditor bilan qarz oluvchining manfaatdorligi kredit harakatining so'nggi fazasi bo'ladi. Qarz oluvchi uchun kreditor oldidagi majburiyatlarning bajarilishi va kreditning qaytarilishi shart. Kreditor uchun nafaqat oldin qarzga olingan ssuda qiymatini to'liq qaytarish, balki uning iste'mol sifatini saqlab qolinishi ahamiyatlidir.

Qarzga olingan ssuda qiymatining doiraviy aylanish bosqichi muayyan darajada shartli ahamiyatga ega. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida harakat qilish xarakteri bilan birga o'zining yagona mohiyatiga ega. SHuningdek, vaqtinchalik qiymatning dastlabki harakatida qaytarish jarayoni mos kelmay qolishi mumkin. Bu holat boshqa bosqichlardan alohida ajralib qolish imkonini beradi va kredit holatining tafsilotini belgilab beradi.

Kreditning barcha bosqichlari nafaqat kredit munosabatalarini, hatto kreditning hatti-harakatini ham belgilaydi. Kredit munosabatalari muomala sohasida paydo bo'ladi.

Kreditning mohiyatini bilish uning asosini yoritib berishni taqozo etadi. «Asos» atamasining ma'nosi kredit munosabatlari va uning rivojlanishi deb tushunmoq darkor. Odatda, kreditning moddiy asosini umumiy ko'rinishda tovar ishlab chiqarish, muayyan sub'ektda kapitalning doiraviy aylanishi va aylanish kabi izohlanadi. Kreditning asosi uning terminologik nuqtai nazardan *poydevor*, *zamin* degan ma'noni anglatadi. Masalaning bu kabi qo'yilishi sababini aniqlash va uni tahlil qilish kreditning paydo bo'lishini yoritishga undaydi, bizni kreditning mohiyati qiziqtiradi.

Tahlilning muayyan jihatlari hodisalarni yuzaga keltiradi, qoidaga ko'ra, asos kredit jarayonlarini bir maromada boshqarish kabi izohlanadi. Ko'pincha asosga kreditlash prinsiplari (kreditning muddatliligi, moddiy ta'minlanganligi) kiritiladi, bunga ayrim mualliflar ustqurma elementi yoki usullar sifatida qaraydi,

ular yordamida kredit munosabatining mohiyati ochib beriladi. Tahlil yo‘nalishi to‘liq huquqqa ega, kreditlash tizimida qandaydir yadro bo‘lishi kerak, u tizimning barcha elementlarini oldindan aniqlab beradi. Kreditlash prinsiplari – asos sifatida izohlanadi, uning mexanizmini tashkil etuvchi qolgan barcha prinsiplar dallil sifatida tasdiqlangan bo‘lishi mumkin.

Ammo tahlil uchun kredit mohiyatiga bu kabi yondoshuv etarli darajadagi yondoshuv emas. Asosni (kreditlash usullari) bunday tushunish ob’ekt bilan bog‘liq kategoriya deb hisoblash mumkin. Bu holatdagi qarash kredit munosabatlarini tashkil etish jarayoniga emas, balki uning bazisiga yondoshiladi. Kreditning asosi – bu kredit munosabatlari mohiyatining teran qismidir, uning mohiyatiga ko‘ra «saqlash» degan ma’noni bildiradi. U kreditga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan birgalikda boshqa xususiyatlar ta’siridan kelib chiqadi. Ayrim mualliflar kredit mohiyatining asosini ssuda foiziga to‘lov tashkil etadi deb izohlaydilar. Haqiqatda birinchi yondoshuvga nisbatan jiddiy sabab bor: ssuda foizi kredit bilan o‘zaro bog‘liq, kredit kelishuvsiz g‘ayritabiiylik yuzaga keladi. Demak, foizsiz kredit ham yo‘q.

Hozirgi paytda ssuda foizi kredit atributini, uning o‘ziga xos xususiyatini shakllantiradi. Ssuda foizsiz kredit ham qiymatning doiraviy aylanishi ham bo‘lmaydi, ular kapitalning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Bu xususiyatlar kreditning xususiyatlari emas, balki mablag‘larning kapital sifatida ishlatilishidir. Ssuda foizi iqtisodiy munosabatlarni, kreditning tafovutini ifodalaydi, u muayyan sharoitda yuzaga keladigan boshqa iqtisodiy kategoriyalar uchun xizmat qiladi. Kredit ayirboshlash kategoriyasi sifatida, ssuda foizi esa taqsimlovchi kategoriya sifatida izohlanadi.

Kreditning rivojlanish tarixida foizsiz ssudaga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Rimda kredit ssuda ko‘rinishda berilgan, ular bo‘yicha foiz bilan ssuda to‘langan. Hozir zamonaviy bank krediti foizsiz xarakterga (bankning insayder – aksionerlik kreditlari va b.) ega bo‘lishi mumkin. Ayrim holatlarda rivojlangan mamlakatlar tomonidan berilgan xalqaro kreditlar foizsiz berilishi mumkin.

Zamonaviy kreditlash tizimining belgilaridan biri ssuda bo‘yicha foizni

undirish bo'lishi mumkin. Bank krediti jalb qilingan mablag'lar asosida beriladi, ular bank uchun to'lov resurslari sifatida namoyon bo'ladi. Banklar tijorat korxonasi sifatida resurslarni to'lash uchun uni sotib olishi mumkin emas. Kreditning to'lovlilik xarakteri kapital sifatida uni harakat qilishiga sabab bo'ladi. SHu sababli ssuda foizini undirish zamonaviy kreditlash tizimining ajralmas qoidasini shakllantiradi.

Fikrimizcha, kreditning asosi uni qaytarish bilan izohlanadi. Kreditni qaytarish qarzga berilgan ssuda qiymatining bosqichlari bilan bog'liq emas, u kreditning umumiy xususiyati sifatida gavdalanadi. Qarzga berilgan ssuda qiymatining tahlilidan ko'rinadiki, kreditni qaytarish uning barcha harakatini, harakat bosqichlarini, kreditni joylashtirish va qaytarib olish yoki kreditdan foydalanish, bo'sh turgan qiymat, qiymatni qarz oluvchidan kreditorga o'tkazish kabi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi. Kreditni qaytarish o'ziga xos xususiyatlarga ega, kredit munosabatlari esa uni aniqlovchi xususiyatlarga ega.

Kreditni qaytarish o'zidan-o'zi paydo bo'lib qolmaydi: u moddiy jarayonlarga, qiymatning doiraviy aylanishining to'xtalishiga asoslanadi. Ammo qiymatning doiraviy aylanishining to'xtatilishi faqat bo'sh turgan qiymatni qaytarishga zamin tayyorlaydi. Ma'lumki, ssuda oluvchiga kredit bo'sh turgan mablag'lardan vaqtinchalik foydalanish maqsadida va ularni beligilangan vaqtda qaytarish uchun beriladi. Kreditni qaytarish ikki tomonlama jarayonni izohlaydi: kreditor uchun ham qarz oluvchi uchun ham bir tomonlama bo'lgani muhim. Kreditor uchun qarzga olingan qiymat – bu tortiq qilish uchun emas; kreditor faqat pulni (qiymatni) qarzga beradi, ularning yana qayta kirim qilinishini ko'zda tutadi. Qarz oluvchi uchun kredit olish – bu kreditni tortiq qilish uchun emas, balki bo'sh turgan qiymat bilan ta'minlash va uni o'z vaqtida qaytarib berishga mo'ljallangan mablag'dir.

Muayyan muddatga berilgan qiymatga egalik qilish kreditordan qarz oluvchiga o'tmaydi. Kreditga egalik qilish dastlab kreditorda bo'ladi, so'ngra qarz oluvchi qarzga olingan mablag'ning vaqtinchalik egasi bo'ladi.

Dastlab qarzga berilgan qiymat qaytariladi, qarz oluvchining xo'jaligida

bo'sh turgan mablag'lar doiraviy aylanadi, natijada qarz oluvchi o'z kreditoriga doiraviy aylangan mablag'larini qaytarib beradi. Qarzga berilgan ssudaning qiymati boshqa turdagi iqtisodiy kategoriya bilan bog'liq kreditdan jiddiy farqlanadi. U amaliyot uchun prinsipial ahamiyatga ega. Bank vaqtinchalik bo'sh turgan jamg'arilgan resurslarni o'zining kapitali sifatida idora qilishi mumkin emas. Bank mablag'larni mulk egasi sifatida kreditlash asosida joylashtiradi. Kredit berish to'g'risidagi har bir qaror unga mos kelishi shart, bank pul mablag'larini qaytarib olishi mumkin, ular kredit ko'rinishida joylashtiriladi. Kreditni qaytarish ob'ektiv xususiyatga ega. Uni jamiyat bekor qilishi, kelishuvning mazmunini o'zgartirishi mumkin emas. Faqat kredit kelishuvining ob'ektivlik negizida kredit oqimini samarali boshqarish mumkin. Bank qaytarib berilmaydigan, jalb qilingan resurslarni joylashtirish huquqiga ega emas, shunday ekan resurslar ularning haqiqiy egasiga qaytarib berilishi lozim.

Ta'kidlangandek, kredit ijtimoiy talabning natijasi sifatida izohlanadi. Kreditning ijtimoiy-iqtisodiy asosi uning ijtimoiy xarakterida o'rin oladi. Kredit muayyan maqsad uchun xizmat qiladi. Kredit qarzga olingan ssudalar qiymatini ta'minlashga, kreditor bilan qarz oluvchining manfaatiga muvofiq kelishi lozim.

Kredit asosining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Kreditning mohiyatini uning asosini tahlil qilish orqali qiymatning harakati sifatida aniqlash mumkin

Kredit – bu kreditor bilan qarzdor o'rtasidagi o'zaro munosabatlar; qiymatning qaytarib beriladigan harakati; pul vositalari harakati; qarzga olingan qiymatlar harakati; ssuda kapitali harakati; resurslarni joylashtirish va ulardan foydalanish; zamonaviy pulni kelajakdagi pulga almashtirish va hakoza. Bu kabi tariflarning ahamiyati shundan iboratki, ularning har biri kredit mohiyatining u yoki bu tomonini ifodalab beradi. Ularning har biri muayyan darajada chegaralangan, ular kreditning mohiyatini to'liq ifodalab bermaydi. Kredit munosabatlarining mohiyatini ularning tashqi ko'rinishini yoritib berishga urinib ko'radi. Kreditning izohlanishi 1) pul munosabatlari; 2) mablag'larning farmoyish shakllari; 3) vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jamg'arish va qayta

taqsimlash kabilardir.

Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida mustaqil o'zining mohiyatiga ega, u qaysidir shaklda namoyon bo'ladi. Kreditni tovar shaklida berish uning pul shaklida bo'lishi bilan izohlanmaydi. Kreditning izohi mablag'larning farmoyish shakli sifatida iqtisodiy kategoriyaning mazmuniy xususiyatlariga ta'sir qiluvchi o'ziga xos element sifatida ifodalanadi.

Resurslar farmoyishi nafaqat kredit munosabatlariga xos bo'lgan farmoyish, balki korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari manbai, moliyasi bo'lishi mumkin, ushbu sifat kreditni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlay olmaydi, balki uning qiyofasini ochib beradi.

Demak, kredit – iqtisodiy kategoriya bo'lib, vaqtinchalik o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan muayyan muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan moliyaviy munosabatlardir.

O'z-o'zini nazorat qilish savollari

1. Kreditning zarurligini qaysi omillar belgilaydi?
2. Kreditning zarurligini belgilashda kapitalning doiraviy aylanishi va aylanshi qanday rol o'ynaydi?
3. Kreditda ishonch nimalar orqali belgilanadi?
4. Sug'urta nima uchun kredit bo'lib hisoblanmaydi?
4. Kredit atamasi moliya atamasidan qanday belgilari bilan farq qiladi?
5. Aholining kreditga bo'lgan talabining yuzaga kelishiga qaysi sabablar bilan bo'liq?
6. Davlatning kreditga bo'lgan talabining yuzaga kelishiga qaysi sabablar bo'lgan?
7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kreditga bo'lgan talabining yuzaga kelishiga qaysi sabablar bo'lgan?
8. Kreditning harakati qaysi bosqichlarda namoyon bo'ladi?
9. Kreditning asosini nima tashkil etadi va uning namoyon bo'lish shakllarini nimalardan iborat ?

I K K I N C H I B O B

KREDIT QONUNLARI VA FUNKSIYALARI

2.1. Kredit qonunlarining zarurligi, ob'ektivligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Jamiyatda kredit to'g'risidagi tushunchani uning harakat qonunlari orqali to'lig'icha yoritib berish mumkin emas. Qonunni bilish va uning mexanizmiga tuzatish kiritish resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi, bozor sub'ektlari ularga nisbatan vaqtinchalik ishlatilmagan qo'shimcha qiymat sifatida qaraydi.

Iqtisodiy qonun iqtisodiy hodisalar, jumladan, kredit va boshqa iqtisodiy kategoriyalar o'rtasida barqaror bog'liqlikda bo'lishni ko'zda tutadi. Kredit iqtisodiy munosabatlar umumiy tizimining elementi kabi ularning harakati alohida ajratib olingan tushunchalarga yoki mavjud munosabatlarga emas, balki ular o'zaro aloqador va ta'sir ko'rsatadi deb qaraladi.

Kredit iqtisodiyotga, shuningdek uning alohida real sektorlariga ta'sir ko'rsatadi. U iqtisodiy munosabatlarga tegishli boshqa elementlar bilan aloqador, osonlik bilan o'z mohiyatini ochib bermaydi. Ular o'zida nisbiy mustaqillikni saqlaydi. Kredit qonunlari umumiy ko'rinishda o'zining yaxlit aloqadorligi va nisbiy mustaqilligini namoyon qiladi.

Iqtisodiy qonunlar, jumladan kredit qonunlari ham muhim belgilarga ega. Zaruriyat – qonunning asosini belgilab beradi. Kreditning boshqa iqtisodiy munosabatlar bilan aloqadorligini bilmaslik qonuning mavjud emasligidan dalolat beradi. Iqtisodiy kategoriyalar uchun aloqadorlik xarakterli xususiyatga ega. Qonun, bir tomondan, «metinday mustahkam» bo'lish kerak, shuningdek uni qonun sifatida tasniflash mumkin emas.

Ikkinchi tomondan, qonunning zarurligi kreditning mohiyati bilan mos kelishi kerak. Bu esa kreditning muhimlik belgisini bildiradi. Kreditning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri muayyan narsalarni o'zgartiradi. U turli-tuman iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qilishi mumkin, ammo uning o'ziga xos xususiyatlari yo'q bo'lib ketmaydi.

Kredit bevosita iqtisodiy munosabatlarning sifatiga (qaytarishlik, muddatlilik va b.lar) ta'sir ko'rsatadi. Kredit qonunlari barqaror va doimiy aloqadorlikka ega. Bunda ta'sir belgilari bo'lmasa, kredit qonunlari ham paydo bo'lmaydi.

Ma'lumki, qonunlar aloqadorlikka ega, u aynan kredit tarkibiga kiradi, u kredit uchun bir vaqtning o'zida muqarrar. Qonunni kreditning mohiyati bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Qonun bir tomondan, mohiyatning elementi sifatida izohlanadi. Qonun mohiyatning o'zginasi emas, balki mohiyatlar o'rtasidagi munosabatlardir.

Iqtisodiy qonunlarning zarurligi va ahamiyatligi ob'ektivlikka (boshqa belgilarga) ega. Qonunning ob'ektivligi to'g'risidagi qoida ularning sub'ektiv tarzda izohlanishiga to'sqinlik qiladi, bu miqdor va sifatni tavsiflashda kuzatiladi, ular kishilarning ongidan tashqarida va mustaqil harakatda bo'ladi. Bu esa quyidagilar bilan izohlanadi:

- kredit ob'ektiv sifatida goh-gohida fazoda o'zining hatti-harakatini amalga oshiradi;
- u ziddiyatga, sababning bog'liqligiga, muayyan tendensiyalarga, qonuniyatga va tarkibiy xususiyatlarga xos;
- uning harakati boshqa iqtisodiy ma'lumotlar bilan chambarchas bog'liq;
- u faqat iqtisodiy munosabatlar umumiy tizimining elementlaridan tashkil topadi.

Ushbu tasnif kredit uchun muhim bo'lib, boshqarish mexanizmida o'zgarishlar bo'lishi, u bir shakldan boshqa shaklga o'tishiga qaramasdan ob'ektiv qiymat kategoriyasi sifatida o'zining xususiyatlari bilan o'zaro bog'liq. Kredit qonunlari – birinchi navbatdagi iqtisodiy qonunlardan iborat bo'lib, qiymat o'zining harakatini uzluksiz davom ettiradi.

Amaliyotda iqtisodiy qonunlar o'z-o'zidan ob'ektivlikka erishib bo'lmaydi. Ular kreditor bilan qarz oluvchining manfaatdorligiga rioya qilinganda yoki muayyan bir iqtisodiy sharoitda shakllanadi.

Qonun belgilari uning umumiyligi bilan bog'liq. Mazkur belgiga ko'ra,

belgining u yoki bu sifati qonun sifatida tasniflanadi, u rivojlanish qonuni kabi voqea va hodislar ro'y berganda yuzaga keladi.

Kredit qonunlari faqat iqtisodiy munosabatlar asosida harakat qiladi va ularning mohiyatini izohlab beradi. Kredit qonunlari konkret qonunlardan tashkil topadi. Ular iqtisodiy kategoriyalar va moddiy jarayonlar bilan bog'liq holda kredit harakatining yo'nalishini belgilab beradi. Kredit qonunlari takror ishlab chiqarish qonunlari va uning alohida fazasiga nisbatan konkret qonunlardan biri bo'lib hisoblanadi, shunday ekan ular o'ziga xos kategoriyalar sifatida yuzaga keladi.

Kredit qonunlari harakat qonunlari sifatida xizmat ko'rsatadi. Harakat uning xususiyatlariga nisbatan kreditning tavsiflanishidan iborat, u kreditsiz harakat qilishi mumkin emas. SHu sababli kredit qonunlari qaytarishlik qonuni va ssudaga berilgan qiymatning saqlanish qonunlariga bo'linadi.

Kreditning qaytarishlik qonuni *ssudaga berilgan qiymatning kreditorga qaytuvchanligini* o'zida namoyon etadi. Aynan qarz oluvchidan ssudaga berilgan qiymat kreditorga qaytarib berish jarayonida namoyon bo'ladi, u vaqtinchalik foydalanishga beriladigan qiymatdir. Ssudaga berilgan qiymatning qaytuvchanligi muayyan doirada qarz oluvchiga berilgan hamda oiraviy aylanishiga ega bo'lgan qaytarib beriladigan mablag'dir.

Kredit qonunlari ssudaga berilgan qiymat harakati bilan ularning shakllanish manbalariga o'zaro bog'liq. Agar ularda bu kabi aloqadorlik mavjud bo'lsa, u holda uni muayyan bir qonun ko'rinishida ifodalash mumkin. Kreditlash sohasida real yaratilgan qiymatga kreditning harakati ta'sir ko'rsatadi, uning harakati quyidagi holatlarning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi, ya'ni kreditorning farmoyishiga ko'ra real mablag'lar qarz oluvchiga berilgan bo'lishi mumkin.

Kredit qonunlariga *ssudaga berilgan qiymatning saqlanish qonunini* kiritish mumkin. Vaqtincha foydalanish uchun berilgan mablag'larning kreditorga qaytarilishi nafaqat o'zining iste'mol qiymati xususiyatlarini, hatto o'zining real qiymatini ham yo'qotmaydi. Ssudaga berilgan qiymat o'zining doimiy qiymati va o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Kredit uchun qiymat harakatining atributini tashkil etuvchi vaqt atributi

muhim ahamiyat kasb etadi. Vaqt ko'proq talab bilan bog'liq bo'lib, u bozordagi sub'ektlar orqali yuzaga keladi. Doiraviy aylanishdagi mablag'lar kredit harakatining davomiyligi bilan bog'liq.

Kredit harakatining muddati vaqtincha bo'sh turgan resurslar bilan o'zaro bog'liq. Muddat qancha uzoq bo'lsa, qarz oluvchining xo'jaligida kredit harakatining davomiyligi uzayadi, ya'ni kreditorda qiymatning bo'sh turib qolishiga imkoniyat bo'ladi. Kreditning qanchalik aylanuvchanligi tezlashsa, ssudaga berilgan qiymatning bo'sh turish imkoni bo'ladi va uning yangi aylanma tarkibiga kirishi uchun keng doiradagi qulayliklar yaratiladi.

Bularning barchasi kredit harakatining vaqtinchalik chegarasini belgilashga imkoniyat beradi, xo'jalik kelishuvining har birida ssudaga berilgan qiymatning harakati cheklangan bo'lishi mumkin. Ssudaga berilgan qiymatning vaqtinchalik chegarasi muayyan muddatni, ya'ni kreditor bilan qarz oluvchining ssudadan vaqtinchalik foydalanishini ifodalaydi.

Kredit harakatining vaqtinchalik xarakterida kredit qonunining munosabatlar atributi shakllanadi. Mablag'larning doiraviy aylanishida ulardan foydalanish, ssudaga berilgan qiymatning davomiyligi kreditning tarkror ishlab chiqarishi jarayonlari bilan o'zaro bog'liq. Kreditning harakat qonunlari qarzga olingan qiymatdan foydalanish orqali sub'ektning vaqtinchalik talabini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kreditning harakat qonunlari amaliyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ular mohiyatining buzilishi va qo'yilgan talabdan uzoqlashishi pul aylanmasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin yoki iqtisodiyotda kreditning rolini pasaytirishi mumkin.

Kreditni egasiga qaytarib berish intizomining buzilishi pul muomalasining barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi, u banklarning bankrot bo'lishiga va inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ladi, ijtimoiy ziddiyatni bilan to'lovga bo'lgan layoqatsizlikni kuchaytiradi.

Kreditlash jarayonida jalb qilingan resurslar o'rtasida disbalansning paydo bo'lmasligi pul massasi hajmini oshiradi, pul birligini sotib olishga bo'lgan

layoqatlilik darajasini pasaytiradi.

Ssudaga berilgan qiymatning saqlanishiga rioya qilmaslik resurslarning devalvatsiyasiga (resurs qiymatining pasayishga), iqtisodiyotga berilgan qiymatning pasayishiga olib keladi.

Kredit qonunlarining ahamiyati davlatning, shuningdek banklarning mamlakat iqtisodiyotini tartibga solishdagi eng muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

2.2-§. Kredit funksiyalari

«Funksiya» (lat. *functio* – va'da bajarish) atamasi keng doirada tarqalgan ilmiy atamadir. Ushbu atamadan tabiiy fanlar, shuningdek iqtisodiyot nazariyasi va falsofiya fanlarida foydalaniladi. Bu atama bir xil ma'noda izohlanmaydi. Masalan, matematika fanida funksiya - o'zgaruvchilarning o'zaro bog'lanishi, biologiya va ximiya fanlarida umumiy xossalarni tushuniladi. Funksiya – bu predmet yoki sub'ekt (inson)lar tomonidan muayyan bir sharoitda amalga oshiriladigan masaladir.

Funksiya mohiyat tahlilining davomiyligi bilan izohlanadi. Kredit tarkibida ichki tuzilmaviy elementlar o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatsa, kredit funksiyasida uning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri harakatda bo'ladi. Kreditning funksiyasi o'z ichiga metodologik prinsiplarni qamrab oladi, u kredit mohiyatining tahlili bilan izohlanadi. Ularni quyidagi ma'noda ifodalash mumkin:

- funksiya kreditning mohiyati kabi ob'ektiv xarakterga ega. Funksiya ko'zga ko'rinadigan faoliyat bilan xarakterlanadi, u kredit munosabatlarida kreditor bilan qarz oluvchi funksiyasini bajaradi. Funksiyaning ta'sirini tadqiqotchi yoritib bermasligi mumkin, ammo u o'zining ta'sirini to'xtatmasligi mumkin. Kreditning mohiyatini tan olish uning tarkibiy tuzilmasini yoritib beradi, kredit yoki uning funksiyasi ta'sirining yangi yo'nalishlarini jamiyatning o'zi belgilab berishi mumkin.

- kreditning mohiyatida yana bitta jihatni e'tiborga olmoq darkorki, kreditning harakati va funksiyalarida uning mohiyati yoritib berilavermaydi, ulardan birontasi yoki bir nechta yoritib berilishi mumkin.

- funksiyaning harakati to'xtab qolmaydi, u o'zgarib turadigan kategoriyadir.

U kreditning mohiyati va uning ta'siri orqali o'zgaradi, yangilanib boradi.

Funksiya kreditning bir butun jarayoni sifatida o'ziga xos ta'siri orqali izohlanadi. Bundan quyidagi uchta xulosani chiqarish mumkin. *Birinchi xulosa* - funksiya kredit munosabatlari bilan chambarchas bog'liq, ammo alohida kreditor yoki qarz oluvchi bilan bog'liq emas; kreditning ta'siri uning funksiyasi sifatida tasniflanishi mumkinki, agar u bir mavqedagi elementlar bilan aloqador bo'lsa. *Ikkinchi xulosa* - funksiya kredit shaklining o'ziga xos xususiyatlar bilan ifodalangan bo'lishi lozim. Tijorat krediti yoki bank krediti, xalqaro yoki iste'mol kreditining funksiyasi qandaydir o'ziga xos funksiya orqali harakat qilmaydi; kreditning u yoki bu ko'rinishdagi funksiyasi bo'lavermaydi. Funksiya kreditning biron-bir shakli yoki turi emas, u yagona iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatni ifodalaydi. Funksiya – kreditning mohiyati bilan uzviy aloqador bo'lgan ob'ektiv kategoriyadir, u kreditlash mexanizmidan kelib chiqadigan sub'ektiv usul emas. *Uchinchi xulosa* - funksiya kreditning tashqi muhit ta'siri bilan xarakterlanadi, unga but-butun saqlanishiga e'tiborni qaratmoq lozim.

Kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasida tuziladigan kredit kelishuvi qiymatning qayta taqsimlanish bosqichida shakllanadi. Ayirboshlash jarayonida vaqtinchalik bo'sh turgan qiymatlar qarz oluvchiga, so'ng esa uning egasiga qaytarib beriladi. Kreditga tegishli xarakterli jarayon kreditning taqsimlovchi funksiyasiga asoslanadi.

Kreditning bevosita qayta taqsimlanishini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreditor ssudalarni kelishuv orqali qarz oluvchiga tovar–moddiy qiymatliklarni sotib olish maqsadida vaqtinchalik foydalanishga berishi mumkin; zamonaviy kredit xo'jaligi – pul mablag'lari uchun o'ziga xosdir. Barcha holatlarda kelishuvning yagona mohiyati ob'ektlarda turlicha izohlanadi. Bu kabi tafovutlar ob'ektning shakliga tegishli, ammo uning mazmun-mohiyatiga emas. Demak, kreditning qayta taqsimlash funksiyasi qiymatning qayta taqsimotiga tegishli ekan. U hududiy va tarmoq belgilariga ko'ra shakllanishi mumkin. Kredit munosabatlari korxonalarga yoki shaxslarga joylashgan manziliga bog'liq

bo'lmagan holda namoyon bo'lishi mumkin. Kredit uchun kreditor bilan qarz oluvchining joylashgan manzilining ahamiyati yo'q.

Kreditni hududlarora qayta taqsimlash jarayonida qiymat kreditordan (bir tarmoqdan) qarz oluvchiga (boshqa tarmoqqa) o'tadi. Zamonaviy pul xo'jaligida korxona bilan bank o'rtasidagi munosabat yuzaga keladi, bunda hududlarora qayta taqsimlash jarayoni hal qiluvchi taqsimot bo'lib hisoblanadi. Banklar tomonidan jamg'arilgan mablag'lar idoraviy xarakterga ega emas, ular bankning jamg'arilgan resurslari tarkibiga kiradi va resurslarning qancha miqdorda kirim qilinishidan qat'iy nazar tarmoqqa muvofiq keladigan korxonaning mustaqil krediti bo'lib sanaladi.

Qiymatni ichki tarmoqlarora qayta taqsimlash korxonalar tomonidan kredit olish jarayonlarida kuzatiladi. Kreditlashning dastlabki bosqichida qiymatning qayta taqsimlanishi xo'jaliklararo qayta taqsimlashni inkor etadi. Bitta korxonaning o'zida kredit munosabatlari shakllanishi mumkin emas, ya'ni korxona o'zini o'zi kreditlashi mumkin emas, kredit kelishuvi faqat mulk huquqiga ega bo'lgan ikkita sub'ekt o'rtasida tuzilishi mumkin.

Kredit orqali resurslarning qayta taqsimlanishini turli darajada kuzatish mumkin. Korxona kredit munosabatlari sub'ekti sifatida tovar-moddiy qiymatliklari bilan birga pul mablag'larini qayta taqsimlaydi. Makroiqtisodiyot darajada uning hatti-harkati qiymatning umumdoiraviy aylanishi doirasida yalpi mahsulot, milliy daromad kredit vositasi sifatida qayta taqsimlanadi. Kredit orqali uning taqsimlanishi doiraviy aylanish va aylanish darajasida faqat moddiy oqimlar, yalpi mahsulotlar, milliy daromadning harakati pul, ishlab chiqarish yoki tovar shaklida ifodalanishi mumkin.

Resurslar qayta taqsimlanishining dastlabki xususiyati shundaki, yil davomida resurslarni qayta taqsimlash moddiy boyliklar, ishlab chiqarish vositalari, iste'mol predmetlari va yalpi mahsulotga ta'sir ko'rsatadi.

Kreditni qayta taqsimlash funksiyasi uning ikkinchi xususiyatidan iborat bo'lib, u nafaqat yalpi mahsulot va milliy daromad, hatto jamiyatning milliy boyligi va moddiy ne'matlarni bevosita qayta taqsimlaydi.

Ushbu funksiya uchun xususiyati qayta taqsimlanadigan qiymat xarakteri bilan o'zaro bog'liq. Kreditor qarz oluvchiga qarz beradi, qarz oluvchi bo'sh turgan qiymatlarni qaytarib beradi. Kreditor bunday qiymatni ssudaga berishi mumkin emas, uning xo'jaligida undan foydalanadi, qarz oluvchining o'zida bo'sh turgan mablag'lari mavjud bo'lmasa qarzlarini qoplashi mumkin emas. Kreditni qayta taqsimlash funksiyasi vaqtinchalik bo'sh turgan qiymatni qayta taqsimlash jarayonini o'z ichiga oladi. Qayta taqsimlash ayirboshlash jarayonini davom ettirish orqali izohlanadi. Korxona sotib oluvchiga o'z mahsulotlarini kreditning tijorat shaklida (kredit asosida) beradi. Bu holatda bo'sh turgan pul resurslari kuzatilmaydi, ammo mol etkazib beruvchi korxonada uning mahsulotlari to'lovlarini amalga oshirish davriga qadar bo'sh turgan resurslar sifatida joylashgan bo'lishi mumkin. U yoki bu holatda ham xo'jalik bo'g'inlarida yaratilgan qiymatlar qayta taqsimlanadi.

Kreditni qayta taqsimlash funksiyasining to'rtinchi xususiyati asosiy xususiyatlardan biri bo'lib, u samarali xarakterga ega. Qiymat qarz oluvchiga beriladi va undan xo'jalik aylanmasida mablag'larni ko'paytirish maqsadida foydalaniladi. Qarz oluvchi vaqtinchalik bo'sh turgan qiymatni olgandan so'ng undan xo'jalikda faol ishlarda foydalanishi lozim, bunda ssuda ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sarflanadi. Demak, kreditning qayta taqsimlash funksiyasi vaqtinchalik bo'sh turgan qiymatni berishda muhim bo'lib hisoblanadi.

Kreditni qayta taqsimlash funksiyasining beshinchi xususiyati shundan iboratki, qiymat har qanday vositachining ishtirokisiz beriladi, u yoki bu oraliq bo'g'inlarida ssuda oluvchi bevosita ishtirok etadi. Kredit faqat yuridik yoki jismoniy shaxslarning kafilliga asosida beriladi.

Kreditning ikkinchi funksiyasida kredit operatsiyalari haqiqiy pullar o'rnini bosishi bilan izohlanadi. Zamonaviy kredit xo'jaligida uning o'rnini bosishning zaruriy sharti shakllantirilgan. Tovar va xizmatlar uchun pul mablag'larining naqdsiz hisob-kitoblar shaklida bir hisobvaraقدan ikkinchi hisobvaraقدga o'tkazilishi naqd pullarni qisqartirish yoki pul aylanmasi tarkibini yaxshilash imkonini beradi.

Zamonaviy xo‘jalikda haqiqiy pullar (oltin tanga) bilan muomala qilinmaydi, muomalada kredit asosida chiqarilgan pul belgilari ishtirok etadi. Kreditning bu funksiyasi haqiqiy pullarning o‘rnini bosish orqali o‘z faoliyatini tugatgan deb hisoblash imkonini beradi. Xo‘jalik aylanmasida ssudaga berilgan qiymat pullarning umumiy o‘rnini bosish funksiyasini emas, balki iqtisodiyot aylanmasida vaqtinchalik pullarning o‘rnini bosish funksiyasini bajaradi. Xo‘jalik aylanmasida qarz oluvchi tomonidan olingan ssudaga berilgan qiymat pulning xususiyatlarini bajaradi (tovar-moddiy qiymatliklarni sotib olish, ish haqini to‘lash va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi).

Kredit ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishi bilan bog‘liq yoki pul mablag‘larining doiraviy aylanishi kreditning mustaqil funksiyasi bilan bog‘liq. Bunga etarlicha sabablar bor. Funksiya – bu kreditning o‘ziga xos ta’siri, masalan, pul ham moliya ham mablag‘larning doiraviy aylanishiga dastak sifatida xizmat qiladi. Mablag‘larning doiraviy aylanishi dastagiga bir qator qiymat kategoriyasi kiradi, shu sababli kreditning funksiyasini inkor etish mumkin emas.

Bu bir xil mavqedagi resurslarni tejashni rag‘batlantirishga kiradi, bu holatni iqtisodchilar kredit funksiyasi deb ataydilar. Kredit kelishuvi tuzilganda ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro majburiyatlar shakllanadi. Kredit iqtisodiy munosabatlar sifatida vaqtinchalik qarzga olingan qiymatni qaytarish uchun ajratilgan resurslardan optimal foydalanish taqozo etadi. Qarz oluvchi olingan ssudadan foydalanishi shart, chunki u bankka hisoblangan foiz ko‘rinishda ortiqcha mablag‘lar bilan birga qaytariladi. Ammo tomonlarning majburiyatlari iqtisodiy munosabatlar asosida shakllanadi. Xo‘jalikning tejamli yuritilishini rag‘batlantirish narx, moliya va boshqa qiymatli kategoriyaga xos bo‘lgan jarayondir. U o‘ziga xos iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi bilan bog‘liq, ammo u kreditning funksiyasi bo‘lishi mumkin emas. Funksiya deganda tashqi muhit bilan kreditga xos bo‘lgan ta’sir jarayonlari tushuniladi.

2.3. Kredit pullari: veksel, banknota, cheklar

Mamlakatda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanib borgan sayin muomaladagi qog‘oz pullar keskin kamayib ularning o‘rnini kredit pullari egallay boshlaydi.

Kredit pullar – bu kredit yoki pulning to‘lov vositasi sifatidagi vazifalarning rivojlanishi natijasida paydo bo‘lgan to‘lovlar hamda muomala vositalaridir.

Kredit pullari ham qog‘ozdan tayyorlanadi, ammo ularni muomalaga chiqarish xo‘jalik jarayonlari (tovar-moddiy qiymatliklar zarhirlarini muddatida foydalanish maqsadida shakllantirish va b.lar) bilan bog‘liq kredit operatsiyalari banklar orqali amalga oshiriladi.

Kredit pullari o‘zining mustaqil qiymatiga ega emas, chunki ularni yaratish uchun abstrakt zaruriy mehnat sarflanmaydi. Kredit pullar qog‘oz pullardan farq qilib ular bir vaqtning o‘zida qiymatni ifodalaydi va u kredit hujjat bo‘lib, kreditor bilan qarz oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Kredit pullarning tarkibiga veksel, banknota, chek, kredit kartochkasi va elektron pul kiradi. Kredit pullarining asosiy turlaridan biri veksel hisoblanadi.

Veksel qat’iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati bo‘lib, uning egasi veksel to‘lovchiga muddati o‘tgandan so‘ng qarzdordan yoki akseptantdan hujjatda ko‘rsatilgan pul summasini to‘lashni qat’iy talab qilish huquqini beradi. Veksel aylanmasida cheklanmagan miqdoda shaxslar ishtirok etishi mumkin, chunki veksel muayyan pul summasini talab qilish huquqini boshqa shaxslarga o‘tkazish tartibida beriladi.

Aksariyat veksellar naqd pul ishtirokisiz veksel majburiyatlarini o‘zaro surishish yo‘li bilan qoplanadi. Biroq naqd pullar o‘rnini veksel muomalasi bilan qoplashning ham chegarasi bor. Bu chegara, *birinchidan*, tijorat krediti tovar aylanmasining faqat muayyan bir qismini, asosan ulgurji savdoni qamrab olishi; *ikkinchidan*, veksel majburiyatlarini o‘zaro qoplash bo‘yicha qoldig‘i naqd pullar bilan to‘lovni amalga oshirishni talab qilishi; *uchinchidan*, veksellarning cheklangan sohasga aylanib borishi; *to‘rtinchidan*, veksellarning aylanmasi ularning muddati bilan cheklab qo‘yilishi bilan izohlanadi.

Veksel banknotadan o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- veksel muayyan muddatni o‘zida ifodalaydi (3-6 oy muddatga ega bo‘lgan veksel), banknota muayyan muddat bilan cheklanmaydi.

- veksel bo'yicha veksel egasi uni to'lashni kafolatlasa, banknotada uni to'lashni davlat (davlat banki) kafolatlaydi.

Tijorat veksellari aylanmasining chegarasi ularni banknotlarga aylantirish yo'li bilan bartaraf etiladi. Bank ssudaga o'zining banknotalarini berishi mumkin. Banknota – bu emitent banklar tomonidan mulmalaga chiqariladigan va kredit pullarining asosiy turini amalga oshiruvchi foizsiz majburiyat (bank bileti)dir. Banknota - kredit pullarining etakchi vakillaridan bo'lib, Markaziy bank tomonidan, veksellarni hisobga olish yo'li bilan chiqariladi. O'tmishda banknota muddatsiz majburiyatlarni hisoblanib, uni xoxlagan vaqtda bankka topshirib, uning o'rniga unda ko'rsatilgan summaga oltin yoki kumush olish mumkin bo'lgan.

Ssudaga berilgan mablag'lar foydalanish muddatini o'tab bo'lgandan so'ng ssuda qarzдорligini qoplash maqsadida ular bankka qaytariladi. Ssuda qarzдорligi qisman bo'lsa-da bankka kiritilgan naqd pullar (savdo tashkilotlari tushumlari va hokozolar) hisobidan qoplanadi.

Aylanmadan banknotani muomalaga chiqarish va ularni muomaladan qaytarib olish davlat tomonidan daromad olish va xarajatlarni sarflash orqali emas, balki xo'jalik jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan kredit operatsiyalari asosida amalga oshiriladi.

Banknotalar - emissiya banki tomonidan muomalaga chiqariladigan qog'oz pul belgilaridir. Ular maydalanadigan pul belgilari hisoblangan holda emissiyani ta'minlash tartibini nazarda tutadi. Ta'minlash real yoki noreal bo'lishi mumkin. Real ta'minlash qimmatli metallar va veksellardan iborat bo'lgan zarb qilingan tangalar, noreal ta'minlash esa davlatga soliqlar va boshqa majburiyatlarni to'lash maqsadida muomalaga chiqarilgan banknotalardan iborat bo'lishi mumkin.

Banknotalarning ta'minlanishiga ko'ra, ular to'liq qoplaydigan (klassik), qisman qoplaydigan va qoplaymaydigan banknotalar turlaridan tashkil topadi. Klassik banknotalar veksel (tovar) va oltin (Markaziy bankning oltin zahirasi) bilan ta'minlanadi.

Klassik banknotalarning kredit yoki metallar bilan ta'minlanishi banknotalar muomalasining barqaror va moslashuvchan bo'lishiga kafolat beradi.

Klassik banknotalar quyidagi tasniflar bilan belgilanadi:

- to'liq qoplash imkoniyatga ega bo'lgan banknotalar, buning uchun ularning katta qismi oltin yoki boshqa qimmatli metallardan iborat bo'lishi lozim;
- banknotalar cheklanmagan miqdorda oltinga maydalanishi lozim;
- maydalaydigan kurs bozor kursi yoki nominal kurs bo'lishi lozim;
- miqdoriga ko'ra, emissiya qilinadigan biletlar qonunan cheklanmagan bo'lishi lozim, bu emissiyaning yagona cheklovi rasmiy oltin zahirasidir.

O'tmishda klassik banknotalar xususiy bankirlar tomonidan muomalaga chiqarilib kelgan. U tarixan bank biletlari ichida birinchi bank bilet bo'lib hisoblanadi.

Qisman qoplanadigan banknotalar quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- muomalaga chiqarilgan banknotalar real ta'minotga ega bo'lishi lozim, ular qimmatli metallar sifatida veskel shaklida beriladigan tovarlardir;
- banknota egalari ularni cheklanmagan miqdorda monesiz almashtirish huquqi ega bo'lgan holda saqlaydi;
- banknotaning favquloddagi almashtirish kursi nominal kurs bilan tenglashtiriladi;
- banknotaning muomaladagi bu turi Markaziy bank tomonidan berilgan alohida yuqori imtiyoz ega bo'lishi lozim, uning qonuniy faoliyatini faqat emissiya huquqini bergan institut cheklaydi.

Qoplanmaydigan banknotalar quyidagi xususiyatlarga ega:

- banknotani oltinga almashtirish to'xtatilgan bo'lishi mumkin, ular sotib olinishiga ko'ra davlat qarzlari va davlat majburiyatlari bilan birgalikda tan olinadi;
- qo'shimcha pul belgilarining emissiya huquqi qonunchilik organlari tomonidan saqlanadi;
- bu banknotalar kurs bo'yicha davlat foydasiga soliqlar va boshqa majburiyatlarni to'lash uchun majburiy tartibda qabul qilinadi.

Demak, banknotalar klassik, qisman qoplaydigan va qoplamaydigan banknotalar ko'rinishda o'tmishdan rivojlanib kelgan. Banknota turining doimiy

almashuvi ular emissiyasining uzluksizligi bilan ta'minlanadi. Rasmiy oltin zahiralarining cheklovi muomalaga chiqarilgan banknotalarni qimmatli metallarga almashtirish uchun imkon bermaydi. Kelgusida banknotalarni barcha to'lovlar bilan qabul qilishda majburiy kurslar bo'yicha majburiyatlar orqali belgilanadi, ular maydalanmaydigan qog'oz pullar takribiga silliqqina o'tkaziladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda chek tarixan pulning to'lov vositasi vazifasidan paydo bo'lgan va bank tizimining yuqori rivojlangan sharoitida keng qo'llaniladigan kredit vositasi sifatida keng doirada tarqalgan.

CHek – bu bankdagi hisobvaraqlar egasining chekda ko'rsatilgan summasini hisobvaraqlardan chek ushlovchiga to'lash yoki uni chek ushlovchining hisobvaraqlariga o'tkazish to'g'risidagi yozma topshiriqdir. CHEklar bilan haq to'lash ayniqsa mamlakatning ichki to'lov aylanmasida keng rivojlangan, biroq ulardan eksport va import operatsiyalari, chet el sayyohligi bo'yicha hisob-kitoblari, savdo to'lovlarini amalga oshirish paytida tashqi to'lov aylanmasi sifatida foydalanib kelingan. CHEkdan foydalanish naqd pullar bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni sezilarli darajada kamaytirishning imkonini beradi.

CHek muomalasining rivojlanishi chek daftarchasiga ko'plab imzolar qo'yilishi bilan bog'liq bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Natijada 50 – yillardan boshlab, dastlab AQSHda, keyinroq g'arbiy Evropada cheklar kredit kartochkalari bilan almashtirila boshlandi. Kredit kartochkasi – bu bank yoki kredit muassasi tomonidan biron shaxsga beriladigan pul hujjatidir. Kredit kartochkasida pul egasining joriy hisobidagi summasi ko'rsatiladi. U egasiga chakana savdo tarmoqlarida pulsiz tovarlar va xizmatlar xarid qilish huquqini beradi. Kredit kartochkasiga ko'ra, xaridor hisobidagi pul summasi uning ixtiyoridan olinib, tovar sotgan shaxs hisobiga o'tkaziladi. Hozirgi kunda kredit kartochkalari jahonda keng tan olingan va o'ziga xos xususiyatlari bilan xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda pullarning turlari ko'payib bormoqda. CHek va kredit kartochkasidan keyin elektron pullar paydo bo'ldi. Elektron pul – bu hisob-kitoblarni kompyuter yordamida amalga oshirishda qo'llaniladigan kredit pullarining so'nggi turidir. Bu pullar jahonda 80-yillar oxirida paydo bo'lgan.

Elektron pullar plastik kartochka shaklida bo'lib, ulardan mablag'larni bir depozit hisobvarag'idan boshqa depozit hisobvaraqqaga o'tkazishda foydalanish mumkin.

Hozirgi vaqtda qog'oz pullar bilan birgalikda elektron pullardan keng miqyosda foydalanilmoqda. Ayni paytda elektron pullarning kelajagi bor, u pullarning dinamik tarzdagi rivojlangan shakl bo'lib hisoblanadi. Mohiyatiga ko'ra, bu pullar naqdsiz ko'rinishda bo'lib, ular banklardagi kompyuterlarning xotirasida saqlanadi. Ulardan foydalanish sezilarli darajada ahamiyatli bo'lib, pullarni muomalaga chiqarish sarf xarajatlari qog'oz texnologiyasining qo'llanilishiga, himoyalani darajasiga, o'tish tezligiga nisbatan ancha kam. Hozir elektron pullar bilan qaror qabul qilishga doir maxsus mexanizmlar va tizimlar tezkor rivojlanib bormoqda. Banklar elektron to'lovlarni uzatishning turlicha tizimlarini keng doirada qo'llamoqda, masalan, «Bank - mijoz» kartochka to'lov tizimi yordamida bank bilan fuqarolar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro elektron to'lovlar amalga oshirilayotganligini kuzatish mumkin.

Bugun qaysi pul kelajak puli bo'lishini oldindan aytish qiyin. CHamasi, rivojlanish - pul operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan muomaladagi xarajatlarni kamaytirish yo'li bilan izlashga olib bormoqda. Bunda hal qiluvchi rolni yangi axborot texnologiyasining joriy qilinishi o'ynashi mumkin.

Muomalaga chiqarilgan kredit pullarining aylanmaga bo'lgan talabi uning xususiyatlarini belgilab beradi. Bu mahsulotlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan kredit operatsiyalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Ssuda ta'minotga asosan beriladi, ular muayyan turdagi zahiralarini shakllantirish uchun xizmat qiladi, ssudani qoplash qimmatliklar qoldig'i kamayganda sodir bo'ladi. Bunga aylanmaning pulga bo'lgan haqiqiy talabi bilan qarz oluvchiga berilgan pul mablag'larining hajmini muvofiqlashtirish orqali erishish mumkin. Bu xususiyat kredit pullari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit pullarining aylanmaga bo'lgan talabi bilan bog'liq tartibning buzilishi uning ahamiyatini yo'qotadi va qog'oz pul belgilariga aylanadi. Bu holat O'zbekistonda zamonaviy pul muomalasidagi tajribalarning olib borilishi

tasdiqlaydi. Bugungi kunda pul muomalasiga banknotalar yangi turlari bilan kirib kelmoqda (emissiyaga chiqarilmoqda).

Kredit pullari aylanmasining bogʻlanish jarayonini (ularni muomalaga chiqarish va muomaladan qaytarib olish) birgina kredit operatsiyalarini bajarishda emas, balki ularni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ham kuzatish mumkin. Agar, masalan, sanoat korxonasi bankdan ssuda olsa va naqd pul olish (ish haqi) uchun qarz mablagʻlaridan foydalansa, u holda ssudani naqd pulda qoplashga majbur emas, biroq sanoat korxonasining ssuda qarzдорligini naqdsiz pul shaklida qoplashi mumkin.

Oʻz-oʻzini nazorat qilish savollari

- 1. Kredit qonunlarining zarurligi qanday belgilar orqali belgilanadi?*
- 2. Kreditning qaytuvchanlik qonuni nimalardan iborat?*
- 3. Qiymatning saqlanish qonunining mazmuni nimadan ibarat?*
- 4. Kredit qonunlarining kredit munosabatlari amaliyoti uchun qanday ahamiyati bor?*
- 5. Kredit funksiyasi nima va u qaysi xususiyatlarga ega boʻlishi lozim?*
- 6. Kreditni taqsimlash funksiyasining beshta xususiyati nimalardan iborat?*
- 7. Iqtisodiy aylanmaga vaqtincha boʻsh turgan pul mablagʻlarini jalb qilish funksiyasi qanday tasnifga ega?*
- 8. Kreditning qaysi funksiyalari munozarali xarakterga ega?*
- 9. Kredit pullarining qanday turlarini bilasiz?*
- 10. Veksel, banknota, chek, plastik kartochkalar va elektron pullarning bir-biridan farqlanishi nimalardan iborat.*

U CH I N CH I B O B

KREDITNING TURLARI VA SHAKLLARI

3.1. Kreditning turlari

Kreditning turi – kreditlarni tasniflash uchun foydalaniladigan, tashkiliy-iqtisodiy belgilariga ko‘ra mukammal tasnif beriladigan tushunchadir. Kreditlarni tasniflash xalqaro yagona standartlarga mos kelmaydi. Har bir mamlakatda kreditlashning alohida o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. O‘zbekistonda kreditlar kreditning ta‘minoti, kreditning tarmoq xususiyatlari, kreditlash ob‘ekti, kreditlar takror ishlab chiqarish jarayoni uchun xizmat ko‘rsatishi, kreditning muddati, kreditning to‘lovliligi hamda kredit foizining mazmuni kabi turlari bo‘yicha tasniflanadi.

Kredit ayirboshlash kategoriyasi sifatida aholi va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar, hukumat va banklar uchun xizmat qiladi. Mahsulot sotishda, tovar ishlab chiqaruvchilarning faoliyati uchun zarur bo‘lgan xom ashyo va materiallar, uskunalar va boshqa tovarlarni sotib olishda qo‘shimcha to‘lov mablag‘lariga bo‘lgan talab yuzaga keladi. Kredit to‘lovning muhim instrumenti sifatida qarz oluvchining talabini ta‘minlash maqsadida ishlatiladi. Bu talab nafaqat ayirboshlash jarayonida, hatto to‘lov aylanmasining uzulishm yuzaga kelganda yohud takror ishlab chiqarishning turli bosqichlarida paydo bo‘ladi. Mahsulot ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar ssudadan ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish, xodimlarning mehnat haqlari bilan hisoblashishga bo‘lgan talabini ta‘minlashda ham foydalanadi. Aholi esa iste‘mol ehtiyojlarini ta‘minlash maqsadida kredit oladi. Kreditdan yalpi mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol qilishga bo‘lgan talabni ta‘minlashda foydalaniladi.

Kredit ta‘minlanganligiga ko‘ra ta‘minlanmagan kredit, qisman ta‘minlangan kredit va to‘liq ta‘minlanmagan kredit turlariga bo‘linadi. Ta‘minot qiymatga ega bo‘lmagan yoki ta‘minotning real qiymati qarz miqdorining 60 foizidan kam bo‘lgan kredit - ta‘minlanmagan kredit, qisman ta‘minot qiymatiga ega (qiymat jihatdan qarzning 60 foizi miqdorida) bo‘lgan, biroq uning real qiymati yoki realizatsiyasi shubhali bo‘lgan kredit - qisman ta‘minlangan kredit,

real qiymati qarzga ekvivalent yoki undan ortiq miqdorda bo'lgan likvidli tarzda ta'minotga ega yoki belgilangan tartibda sug'urtalangan yo bank yohud hukumatning kafolatiga ega bo'lgan kredit - ta'minlangan kredit deb hisoblanadi. Kreditlar ta'minotga ega bo'lmashligi ham mumkin. Bunday kredit - blank (rasmiy qog'oz) krediti deb yuritiladi. Odatda blank krediti tarkibiga ta'minot manabiga ega bo'lmagan kreditlar kiradi. Bunday holatda banklar qarz oluvchiga etarli darajada ishonch bildiradi.

Kreditning ta'minotini nafaqat likvidli tovar-moddiy zahiralarining umumiy qiymati sifatida, hatto ularni garov sifatida ham kuzatish mumkin. Qarz oluvchi kreditning qaytarilishini ta'minlash maqsadida tovar-moddiy qiymatliklar, mol-mulk, uchinchi shaxs kafolati va sug'urta hujjatlarini garovga qo'yadi.

Kreditning turlari bo'yicha tasniflash uning ta'minoti bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Odatda, kredit - ta'minotning xarakteri, mukammal darajasi va shakliga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi. Ta'minlanganlik xarakteriga ko'ra ssudalar bevosita va bilvosita ta'minotlarga bo'linadi. Bevosita ta'minot, masalan, konkret moddiy ob'ektga berilgan ssuda, tovar-moddiy qiymatliklarning konkret turini sotib olish uchun ushbu ta'minot turlari saqlab turiladi. Bilvosita ta'minot, masalan, to'lov aylanmasida yuzaga kelgan uzulishni to'ldirish maqsadida beriladigan ssuda ushbu ta'minotga ega bo'lishi lozim. Ssuda qarz oluvchining to'lov majburiyatlarini qoplashi uchun yoki bevosita tovar-moddiy qiymatliklar bo'yicha to'lovlarni to'lash uchun beriladi, ular bevosita kreditni inkor etadi, ammo ular o'z mablag'lari manbai hisobidan shakllangan tovar-moddiy zahiralariga bilvosita moddiy ta'minot hisoblanmasligi mumkin.

Kredit tarmoq xususiyatiga ko'ra, sanoat krediti, qishloq xo'jaligi krediti, qurilish krediti, transport krediti kabi turlarga bo'linadi. Sanoat korxonalarining kreditga bo'lgan talabini ta'minlash uchun sanoat krediti xizmat qiladi. SHu bilan birga, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo va boshqa sohalarga beriladigan kredit ham mavjud. Iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalari uchun tijorat kreditining alohida turlari beriladi.

Kreditning kreditlash ob'ektiga ko'ra, tovarni sotib olish uchun berilgan

kreditlar, ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida beriladigan kredit turlariga bo‘linadi. Kredit ko‘proq tovarlarni (sanoatda - xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, qurilish materiallari va hokazolar; savdoda - tur xildagi tovarlar assortimenti, uzoq muddatda foydalaniladigan alohida tovarlar) ayirboshlash maqsadida beriladi. Gohida ayrim turdagi tovar-moddiy qiymatliklar kreditdan foydalanishni inkor etishi ham mumkin. Ayrim holatlarda esa kredit ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida beriladi. Masalan, qishloq xo‘jaligida kreditning katta qismi o‘simlikshunoslik yoki chorvachilik xarajatlari uchun, sanoatda mavsumiy xarajatlar (ta‘mirlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish jarayonlarini yangi mavsumga tayyorlash) uchun beriladi.

Kreditlar takror ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatishiga ko‘ra, xom ashyo va materiallarni sotib olish, to‘lov aylanmasidagi uzulishni qoplash va tovarlarni xarid qilish uchun berilgan kredit turlariga bo‘linadi. Kreditning kreditlash ob‘ekti moddiy-buyumlar shakliga ega bo‘lishi mumkin. Qarz oluvchiga kreditlar tovar-moddiy qiymatliklarni to‘plash maqsadida xom-ashyo va materiallarni sotib olish uchun beriladi. Bunda kredit xom-ashyo va materiallarning konkret turini inkor qilishga majbur emas. Korxonaning to‘lov aylanmasida pul mablag‘lari vaqtinchalik etishmagan holatlarda uzulish yuzaga kelganda uni qoplash uchun kredit beriladi, bunda korxonada joriy to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar shakllanadi. Bu esa korxona xodimlarining mehnati haqi, byudjetga to‘lanadigan soliqlar va boshqa turdagi to‘lovlarni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan talablarni yuzaga keltiradi. Ammo vaqtinchalik pul mablag‘lari etishmaganda yoki to‘lov aylanmasida yuzaga kelgan uzulish paydo bo‘lganda ularni qoplash uchun kreditdan foydalaniladi.

Kreditning muddatiga ko‘ra, ular qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli kredit turlariga bo‘linadi. Qisqa muddatli kreditlar qarz oluvchining aylanma mablag‘lari harakatini shakllantirishga bog‘liq joriy talab uchun xizmat qiladi. Qisqa muddatli kreditlar xalqaro standartlarga muvofiq qaytarish muddati bir yilgacha belgilangan kreditlar hisoblanadi. Ammo amaliyotda qisqa muddatli kreditlarning muddati bir xil muddat orqali belgilanmaydi. Ular iqtisodiy

sharoitlar, inflyasiya darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Inflyasiya sharoitida qisqa muddatli kreditlar 3 oygacha yoki 6 oygacha muddat bilan beriladi. O'rta va uzoq muddatli kreditlar moddiy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni kengaytirishga safarbar qilinadigan kapital xarajatlar uchun ajratiladi.

AQSHda o'rta muddatli kreditlarni qoplash muddati sakkiz yilgacha, Germaniyada esa muddati olti yilgacha belgilangan. Uzoq muddatli kreditlar uchun bir xil muddat belgilanmagan.

Hozir O'zbekistonda uzoq muddatli ssudalarni qaytarish muddati 15 yil muddatgacha deb belgilangan. Qar oluvchining xo'jaligida ulardan foydalanish davomiyligiga ko'ra, pulning qadrsizlanishi sharoitida qarz oluvchining xo'jaligida kreditdan qisqa muddatga foydalanish unda saqlangan kapitalning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Kuchli inflyasiya sharoitida kreditlash to'g'risidagi tushunchani kreditlash muddatining mezonini o'zgartirish mumkin.

Kreditning to'lovligiga ko'ra, tekin, arzon va qimmat kredit turlariga bo'linadi. Tarixan, tekin kreditlar cheklangan miqdorda beriladi. Zamonaviy xo'jaliklarda tekin kreditlar ko'proq insayderlar (bank atsionerlari)ni kreditlash uchun yoki do'stonalik shaklida berilishi mumkin. Zamonaviy xo'jalik yuritishda kredit kapital sifatida harakat qiladi. Kreditor ssudaga berilgan qiymatni o'z-o'zidan ko'payadigan qiymat sifatida beradi va unga kredit foizi qo'shib qaytariladi. Olingan mablag'lardan qarz oluvchi shunday maqsad uchun foydalanadiki, bu mablag'lar nafaqat ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi, hatto etarlicha miqdordagi yangi qiymat yaratiladi, dastlab berilgan qiymat bilan ssuda foizi kreditorga qaytarilib beriladi. Kredit shu sababli ham qiymat kategoriyasi sifatida to'lov xarakteriga ega.

Kreditlashda tovar (veksel) shaklida foiz bilan birga qaytarib berish kuzatilmaydi. Kredit to'lovi o'zidan-o'zi paydo bo'lmaydi, ammo foiz to'lovi mahsulotning narxiga kiradi, bu uning muddati o'tgan to'lovlar ko'rinishida bo'ladi.

Kredit to'lovlar doirasida arzon va qimmat kredit tushunchalari qo'llaniladi.

Qimmat kredit foiz stavkasi bilan birga undirish bilan o‘zaro bog‘liq, uning bozordagi darajasi yuqori. Ssudani qaytarish riskka tortilgan kredit uchun qarz oluvchining kreditga layoqatliligi, shubhali ta‘minotga ega ekanligi va boshqalarni hisobga olgan holda foiz stavkasi beligilanadi. Boshqa kreditlar uchun kredit shartnomasi shartlariga va intizomiga rioya qilinmagan holatlarda o‘ziga xos sanksiya (oshirilgan foiz stavkasi)lar qo‘llaniladi.

Aslida arzon kredit bilan qimmat kredit o‘zaro bir-biriga nisbatan nisbiy tushunchalardir. Kreditor to‘lov miqdorini kreditning muddati, qarz oluvchining to‘lovga layoqatliligi hamda garovga qo‘yilgan ta‘minotning sifatiga qarab tabaqalashtiradi. To‘lovlarni amalga oshirishda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoiti, depressiya, iqtisodiy sikl kabi jarayonlar hisobga olinadi. Masalan, 1990 yillar o‘rtalarida iqtisodiy inqiroz sharoitida amaliyot uchun foiz stavkalar miqdori yuqori pozitsiyani egallagan edi, ammo inflyasiyaning oylik yoki yillik darajasi hisobga olingan holda pulning qadrsizlanishi oyiga bir foizdan ikki foizgacha oshganligi kuzatildi. Ularning ta‘siri O‘zbekiston bank tizimida kredit to‘lovlari bo‘yicha operatsiyalarda ham kuzatildi.

Kredit foizining mazmuniga ko‘ra, ular qat‘iy belgilangan stavkadagi hamda suzib yuruvchi stavkadagi kredit turlariga ajratiladi. Qat‘iy belgilangan stavkadagi kredit qarz mablag‘idan foydalaniladigan barcha davr uchun o‘zgarmaydigan bir xil darjada o‘rnatilgan stavkali kreditdir. Bu tijorat banki uchun noqulay stavkadagi kredit hisoblanadi. Bu holatda bank o‘z aktivlarining muayyan bir qismini yo‘qotishi mumkin. Masalan, bank 30% stavkadagi bir yillik kredit beradi, deylik. Uch oydan so‘ng ssuda kapitali bozorida bir yillik kreditning foiz stavkasi 35%ga ko‘tarilsa, bu kredit zarar keltiradi. Suzib yuruvchi stavkadagi kredit – bu o‘rta va uzoq muddatli kreditlarga mo‘ljallangan kredit bo‘lib, kreditning foiz stavkasi pul-kredit bozoridagi kon’yunkturaga bog‘liq ravishda tebranib o‘zgarib turadi.

3.2. Kreditning asosiy shakllari

Kreditning asosiy shakllari uning tarkibi va kredit munosabatlarining mohiyati bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq. Kredit tarkibiga kreditor, qarz oluvchi va qarzga olingan qiymat kiradi, uni kredit shakllarining xarakteriga bog‘liq holda

ko‘rib chiqish mumkin: kreditor va qarz oluvchi, qarzga olingan qiymat bilan qarz oluvchining muayyan maqsadga qaratilgan talabi.

Kreditning asosiy shakllarini qarzga olingan qiymat asosida kreditning tovar shakli, kreditning pul shakli, kreditning aralash (tovar-pul) shakliga ajratish mumkin.

Kreditning tovar shakli tarixan pul shaklidan oldin mavjud bo‘lgan. Kredit qiymatning pul shakliga qadar mavjud bo‘lgan, ayriboshlash paytida tovarlar (teri, chorva mollari va boshqa predmetlar)dan ekvivalent sifatida foydalanilgan. Kreditor dastlab o‘zining iste‘molidan ortiqcha predmetga ega bo‘lgan sub’ekt sifatida ishtirok etgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, er egasiga (dehqonga) yangi hosilni yig‘ib olgunga qadar don yoki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari shaklida kredit berilgan.

Zamonaviy amaliyotda kreditning tovar shakli kreditning asosini tashki etmaydi. Kreditning pul shakli uning asosiy shakli sifatida harakat qiladi, ammo amaliyotda kreditning tovar shakli ham qo‘llaniladi. Kreditning oxirgi shaklidan tovalarni sotish, buyumlarni yoki mulkni ijaraga olish (lizing uskunasi), to‘lovlarni qisman to‘lash shaklida foydalaniladi. Kreditor tovarga pul shaklida to‘lovlarni qisman to‘lashda kreditga bo‘lgan talabga duch keladi. Bu holatda kreditning tovar shakli harakatda bo‘ladi, uning harakati kreditning pul shaklida namoyon bo‘ladi.

Kreditning pul shakli - zamonaviy xo‘jalikda o‘ziga xos shaklga ega. Pul - tovar qiymatga ayirboshlanganda, muomala va to‘lov vositalarida umumiy ekvivalent sifatida ishtirok etadi. Hukumat, fuqaro va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar kreditning bu shaklidan tashqi iqtisodiy aylanmada foydalanadilar.

Kreditning tovar va pul shakllari bilan bir qatorda uning aralash shakli ham qo‘llaniladi. Kreditning tovar va pul shakli bir vaqtning o‘zida harakat qilganda uning aralash shakli yuzaga keladi. Qimmat turadigan uskunani sotib olish uchun nafaqat kreditning lizing shakli, hatto uning pul shakli ham sotib olingan texnikani o‘rnatishda va sozlashda talab qilinadi.

Kredit nafaqat mablag‘lardan vaqtinchalik foydalanish bosqichida, hatto boshqa bosqichlarda ham muayyan natijaga erishadi (masalan, qarzga olingan

qiymatni qaytarishda). Agar kredit pul shaklida berilib, pul shaklida qaytarib berish talab etilsa, u holda bu kelishuv kreditning pul shakli deb yuritiladi. Kreditning tovar shaklini faqat kredit kelishuvida tan olish mumkin, bunda mablag'larni qarzga berish va ularni qaytarib berish jarayonida tovarning qiymat shakli paydo bo'ladi.

Agar kredit tovar shaklida berilgan bo'lib, u pul yoki tovar shaklida qaytarib berilgan bo'lsa, u holda kreditning aralash shakli paydo bo'ladi.

Kreditning aralash (tovar-pul) shakli rivojlangan davlatlarning iqtisodiyotida tez-tez uchraydi. Ichki iqtisodiyotda to'lovlarni bo'lib-bo'lib to'lash orqali tovarlarni sotish kreditni pul shaklida asta-sekin qaytarib olish holati sodir bo'ladi.

Kredit kelishuvida kreditning bank krediti shakli, xo'jalik (tijorat) shakli, davlat shakli, xalqaro shakli, fuqarolik (xususiy, shaxsiy) shakli ishtirok etadi. Kredit kelishuvida ham kreditor ham qarz oluvchi birgalikda, teng huquqli sub'ektlar sifatida qatnashadi. Kreditor ssudani taklif etadi, qarz oluvchi esa ssudani talab qiladi.

Agar bank tomonidan, masalan, aholiga kredit berilsa, jismoniy shaxs o'zining jamg'armasini bankdagi depozitlarga joylashtirsa, u holda ishtirokchilar tarkibi shakllanadi. Har ikki tomon ham birgalikda turlicha holatda bo'ladi: birinchi holatda bank kreditor, ikkinchi holatda esa u qarz oluvchi sifatida xizmat qiladi va o'z navbatida, jismoniy shaxs birinchi holatda qarz oluvchi, ikkinchi holatda esa kreditor sifatida ishtirok etadi. Bunda kreditor bilan qarz oluvchining o'zni almashadi, ya'ni kreditor qarz oluvchi, qarz oluvchi esa kreditor sifatida shakllanadi. Bu holatda kreditning shakli bir-biriga o'zaro o'rin almashadi.

Kreditning bank krediti shakli eng ko'p tarqalgan shakllardan biri hisoblanadi. Aynan banklar o'zining ssudasini dastlab vaqtinchalik moliyaviy yordamga muhtoj sub'ektlarga beradi. Kreditning bank shaklida ssuda hajmi bo'yicha uning boshqa shakllarida ssudaga berilishi muhim ahamiyatga ega. Bu tasodif emas. Bank o'ziga xos sub'ekt bo'lib, uning asosiy vazifasi kredit ishlarini takshil etadi, u qaytarish sharti asosida pul mablag'larining karrali doiraviy

aylanishini amalga oshiradi.

Bank krediti shakli bo'yicha dastlabki o'ziga xos xususiyatlar shundan iboratki, bank o'z kapitali bilan emas, balki jalb qilingan resurslari bilan muomala qiladi. Pul bitta sub'ektda mavjud bo'lib, u pul mablag'larini yuridik va jismoniy shaxslarga vaqtinchalik foydalanish maqsadida beradi (qayta taqsimlaydi).

Uning ikkinchi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini o'zida hisobvaraqlar ochgan yoki omonatlarga mablag'larni joylashtirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qarzga beradi.

Kredit shaklining uchinchi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank pul mablag'larini shunchaki ssuda sifatida qarzga bermaydi, balki pul mablag'larini kapital sifatida beradi. Bu esa qarz oluvchining bankdan olingan mablag'lardan maqsadli foydalanish zarurligini, ularni kreditorga qaytarib berish, ssuda foizini to'lash va hatto, etarli darajada foyda olishni ko'rsatadi. Bank krediti shaklining to'lovchanligi uning ajralmas atributi sifatida shakllanadi.

Kreditning tijorat shaklida kreditor xo'jalik tashkiloti (korxona, firma, kompaniya) sifatida ishtirok etadi. Kreditning bu shakli tarixan, goh tijorat krediti, gohida veksel krediti deb ham yuritiladi, modomiki uning asosida tovarning muddati o'tgan to'lovlari yoki veksel uning qarz majburiyatlari sifatida berilishi yotadi. Tijorat krediti atamasi mol etkazib beruvchilar bilan xaridorlar o'rtasida yuzaga keladigan qarz munosabatlariga reaksiya sifatida paydo bo'lgan. Tijorat savdo-sotiqqa doir tushunchani bildiradi, ya'ni u tovarni sotishning o'ziga xos xususiyatlari negizida shakllandi.

Korxonalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar evolyusiyasiga nafaqat tovarlarning muddati o'tgan to'lovlari, hatto boshqa shakllari ham sabab bo'ladi. Korxonaning zamonaviy xo'jaligida nafaqat tovar krediti, hatto pul krediti ham o'zaro bir-biriga o'tkazib turiladi. Banklar kredit munosabatalarini amalga oshirishda monopolist sifatida hukmron bo'lib kelgan, amaliyotda esa kreditlar korxonalar va tashkilotlarning bo'sh turgan pul mablag'lari bilan xarakterlanishi mumkin. O'ziga xos xususiyatlarga ega yirik sanoat korxonalari va savdo tashkilotlari o'z sheriklariga pul mablag'larini berib turadi. Tijorat krediti atamasi

tovar va pul shaklida korxonalar-kreditorlarga beriladigan xo‘jalik krediti sifatida namoyon bo‘ladi.

Kreditning xo‘jalik (tijorat) shakli bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, kredit manbai band yoki band bo‘lmagan kapitalni tashkil etadi. Kreditning xo‘jalik (tijorat) shaklida muddati o‘tgan to‘lovlar mahsulotlarni sotish jarayoni uchun xizmat qiladi, vaqtinchalik bo‘sh turgan qiymatga yoki tovarning muddati o‘tgan to‘lovlariga ssudalar berilmaydi. Kreditning xo‘jalik (tijorat) shakli uning manbai bo‘lib, xo‘jalik aylanmasida vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘lar sifatida namoyon bo‘ladi. Tovar xo‘jalik kreditida mulkka egalik qilish ob‘ekti sotuvchidan - kreditordan o‘z navbatida xaridorga o‘tadi, pul xo‘jalik kreditida qarzga berilgan ssuda qiymatida mulkka egalik qilish ob‘ekti kreditordan qarz oluvchiga o‘tmaydi va oxir oqibat u faqat mulkka egalik qilgan shaxs qo‘lida qoladi. Kreditdan foydalanganlik uchun to‘lovlar turlicha amalga oshiriladi. Tovar xo‘jalik kreditida muddati o‘tgan to‘lovlarni to‘lash tovarning qiymati bilan amalga oshiriladi, pul xo‘jalik kreditida kreditorga to‘lanadigan kreditdan tashqari ssudadan foydalanganlik uchun to‘lovlar ochiq shaklda undirib olinadi, shu bilan birga qarz oluvchi ssuda foizini to‘lab beradi.

Xo‘jalik krediti o‘zining tovar yoki pul shakliga bog‘liq bo‘lmagan holda qisqa muddatga beriladi, masalan, bank krediti uzoq muddatli xarakterga ega.

Kreditning davlat shakli davlat kreditor sifatida kreditni turli sub‘ektlarga berish jarayonida yuzaga keladi. Davlat krediti davlatning qarzlaridan farqlanadi, u o‘zining majburiyatlarini, obligatsiyalarini joylashtiruvchi davlat - qarz oluvchi sifatida ishtirok etadi. Davlat qarzi ko‘proq muayyan davlat dasturlarini (iqtisodiyot, tarmoq va sohalarni rivojlantirish) amalga oshirish maqsadida joylashtiriladi. Qarzlar, qoidaga ko‘ra, uzoq muddatga (besh, o‘n va hatto, yigirma yil) joylashtiriladi. Davlat qarzi kreditning davlat shaklidan farqi shundaki, uning qo‘llanishi cheklangan bo‘lib, u banklar orqali beriladi. Mohiyatiga ko‘ra, u xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida kreditning xalqaro shakli sifatida shakllanadi.

Kreditning xalqaro shaklida kredit kelishuvining ishtirokchilari

o'zgarmaydi, kredit munosabatlarida sub'ektlar – banklar (korxonalar), davlat va aholi ishtirok etadi, ammo bu shaklning farq qiluvchi belgisi ishtirokchilardan biri boshqa mamlakatning shaxsi sifatida ishtirok etishi mumkin. Bu holatda tomonlardan biri albatta xorijiy sub'ekt bo'ladi. O'zbekiston xorijiy sub'ektlarga ham kredit beradi, ammo qarz oluvchi kreditorga nisbatan yirik bo'lishi mumkin.

Kreditning fuqarolik shakli kredit kelishuvida ishtirokchilar kreditor sifatida fuqaro yoki xususiy shaxslarga asoslanadi. Bu kelishuv ayrim paytlarda kreditning xususiy (shaxsiy) shakli deb yuritiladi. Kreditning xususiy (shaxsiy) shakli ham pul ham tovar xarakteriga ega bo'lishi mumkin, o'zaro aloqada bo'lgan kredit munosabatalarining boshqa ishtirokchilaridan birontasi bunda ishtirok etishi mumkin. Xususiy shaxslarning bir-bir bilan o'zaro aloqasi ko'pincha do'stona xarakterga ega bo'ladi. Bu holatda ssuda foizlari banklarga nisbatan past summada belgilanadi, ssuda foizlari ko'pincha unidirilmaydi; kredit shartnomasi tuzilmaydi, qarzga oid tilxat tez-tez ishlatilib turiladi, ammo u tez-tez qo'llanilmaydi. Bu erda ishonch elementi yuqori ahamiyat kasb etadi. Bunda kreditning muddatiga jiddiy e'tibor qaratilmaydi, u shartli xarakterga ega bo'lib turadi.

Kredit shakllari qarz oluvchining maqsadli talabi bilan bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ular kreditning foydali va iste'mol shakllaridan iborat.

Kreditning foydali shakli kreditordan olingan mablag'lardan foydalanish xususiyatlari bilan o'zaro bog'liq. Kreditning bu shakli ishlab chiqarish va muomala (foydali) maqsadi uchun ishlatiladigan ssudalarga xos bo'lgan shakl sanaladi.

Kreditning iste'mol shakli tarixan kredit munosabatlari rivojlanishining boshlarida paydo bo'lgan, bunda bitta sub'ektda iste'mol predmetining ortiqchaligi sezilsa, boshqa shaxslarda ulardan vaqtinchalik foydalanishga bo'lgan talab paydo bo'lgan. Bu shakl vaqtinchalik zamonaviy xo'jaliklarda ham keng doirada tarqalgan shakllardan biri bo'lib, sub'ektning imkoniyati aholining tovarlarga bo'lgan uzoq muddatli talabini ta'minlash uchun jarayonlarni tezlashtiradi.

Kreditning iste'mol shaklining foydali shaklidan farqi shundaki, kredit aholining iste'moli uchun ishlatiladi, u yangi qiymatni yaratishga yo'naltirilmaydi,

balki u qarz oluvchining iste'molga doir ehtiyojlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutadi. Iste'mol krediti aholining shaxsiy ehtiyojlarini ta'minlash uchun biroq uni korxonalarda yaratilgan qiymatni iste'mol qilish maqsadida olish mumkin.

Zamonaviy kredit ko'proq foydali xarakterga ega. Bank krediti kreditning shakllari ichida asosiy salmoqqa ega. Bu nafaqat qarz oluvchi tomonidan ssudani qaytarishi, balki undan foydalanganlik uchun ssuda foizlarini ham to'lash zarurligini bildiradi. Zamonaviy xo'jalikda kredit pul shaklida qarzga berilgan ssuda emas, balki pul shaklidagi kapital sifatidagi ssudadir. Pul kapitalning harakati sifatida yoki qiymatning ko'payishi sifatida ssudadan unumli foydalanishni taqozo etadi, u qarz oluvchidan mablag'larning joylashuvini talab etadi hamda ulardan samarali va unumli foydalanishni, yangi qiymat yaratishni, foyda olishni ko'zda tutadi.

Ushbu kredit korxona faoliyatida yuzaga kelgan zararlarni qoplashni istisno qiladi. Bu erda kredit shakli uning mazmuniga zid ko'rinishda bo'ladi, natijada kredit qonunlariga rioya qilinmaydi va kredit jarayoni buziladi, kredit iqtisodiyotning rivojlanishida disproporsiyani keskinlashuviga olib keladi.

Kreditning sof shakli, haligacha bir-biridan xolis bo'ladigan shaklga ega emas. Masalan, bank krediti pul shaklida beriladi, ammo amaliyotda uni qoplash tovar shaklida amalga oshirilishi mumkin. Ko'pincha bu holat o'ziga xos jihatlarni keltirib chiqaradi. 90-yillarda zamonaviy moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida qarz oluvchidan kredit tovarga mos summada undirildi. Bu holatda korxona-qarz oluvchi tomonidan bankdan olingan krediti shakar berish orqali to'lab berildi, bank xodimlari esa ularni mijozlarga arzon narxda sotib yubordi.

Bu holat kreditning boshqa shakllari bilan bog'liq. Bank krediti xarakteriga ko'ra foydali kredit bo'lib, u amaliyotda iste'mol xususiyatlarga ega. Fuqarolik krediti – bu iste'mol kreditidan uzoq emas. Fuqaro ssudaga imorat qurish yoki uyni ta'mirlash, qishloq xo'jaligi ishlarida foydalanadigan xo'jalik inventarlarini sotib olishi mumkin. Fuqarolik krediti uning hayot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, sog'lig'i bilan jismoniy kuchini tiklash uchun yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, shu sababli u bilvosita o'ziga xos foydali xususiyatlarga ega.

Ayrim holatlarda kreditning boshqa shakllaridan ham foydalaniladi, jumladan: bevosita va bilvosita; ochiq va yashirin; eski va yangi; asosiy va qo'shimcha; rivojlangan va rivojlanmagan va hokazolar.

Kreditning bevosita shakli foydalanuvchilarga ssudalarni bevosita vositasiz xizmat qiluvchi bo'g'inlarga berishda ishtirok etadi. Kreditning bilvosita shakli boshqa sub'ektlarni kreditlash uchun ssuda berishda paydo bo'ladi. Masalan, bankdan savdo tashkilotlari ssudani tovarlarni sotib olish va sotish, fuqarolarni kreditlash maqsadida oladi. Bank kreditining bilvosita shakli kreditga tovarlarni sotib olishda savdo tashkilotlari bilan fuqaroning ssudani rasmiylashtirishida namoyon bo'ladi.

Bevosita kreditlash tayyorlov tashkilotlarini kredit bilan ta'minlashdan kelib chiqqan. Ssuda tayyor mahsulotlarga to'lovlarni amalga oshirish uchun tayyorlov tashkilotlariga berilgan, bu holatda kreditning bevosita shakli kuzatiladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining kelgusi hosilni garovga olgan holda tayyorlov tashkilotlariga beradigan ssuda ko'rinishidagi bo'naklari kreditning bilvosita shakli sifatida ishtirok etadi.

Kreditning ochiq shakli deb oldindan shartlashib qo'yilgan kredit tushuniladi. *Kreditning yopiq shakli* tomonlarning o'zaro majburiyatlari oldindan ko'rib chiqilmagan maqsadlar uchun foydalanilgan ssuda sifatida ishtirok etadi.

Kreditning eski shakli kredit munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan kredit shaklidir. Masalan, mulkni garovga qo'yish orqali berilgan kreditning tovar shakli kreditning eski shakli hisoblanadi, undan ijtimoiy rivojlanishning dastlabki bosqichidan boshlab foydalanib keladi. Kreditning sudxo'rlik shakli quldorlik jamiyati uchun xarakterli bo'lib, undan paytlarda keng doirada foydalanilgan. Kredit eski shaklining zamonaviylashuvi zamonaviy xususiyatlarga xos bo'lishi ham mumkin.

Kreditning yangi shakliga lizing kreditini kiritish mumkin. Ta'minlash ob'ekti nafaqat an'anaviy ko'chmas mol-mulklar, hatto texnikalarning zamonaviy turlari, yangi tovarlar, zamonaviy hayot belgilari (avtomobil, yaxta, videoapparat, kompyuter) hisoblanadi. Zamonaviy kredit sudxo'rlik shakli bilan

bog'liq holda kreditning yangi shakli sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy kreditning asosiy shakli pul kreditining qo'shimcha shakli sifatida ishtirok etadi, ammo ular ikkinchi darajali kredit shakli hisoblanmaydi. Kredit shakllarining har biri muayyan tizimda birinchi shakli ikkinchi shaklini tovar-pul munosabatlarining adekvat darajasiga muvofiq ravishda to'ldirib boradi.

Kreditning rivojlangan va rivojlanmagan shakli uning rivojlanish darajasi bilan xarakterlanadi. Ayrim mutaxassislar lombard kreditini alimsoqdan qolgan kredit, u iqtisodiy munosabatlar darajasiga mos kelmaydigan kredit deb ataydilar. Bu kredit hozirgi vaqtda jamiyatda keng doirada qo'llaniladi, ammo u bank krediti sifatida rivojlanmagan.

O'z-o'zini nazorat qilish savollari

1. *Kredit turlari nima va uni tasniflashda oltita mezonning qaysilaridan foydalanish mumkin?*
2. *Kredit ta'minlanganligiga ko'ra qanday turlarga ega?*
3. *Kredit tarmoq xususiyatiga ko'ra qanday turlarga ega?*
4. *Kredit ob'ektiga ko'ra qanday turlarga ega?*
5. *Kredit muddatiga ko'ra qanday turlarga ega?*
6. *Kredit to'lovligiga ko'ra qanday turlarga ega?*
7. *Kredit foizining mazmuniga ko'ra qanday turlarga ega?*
8. *Qaysi mezonlar bo'yicha kreditning shakllarini ajratish mumkin?*
9. *Kreditning qaysi shakllari qiymatlar bilan bog'liq holda ajratiladi?*
10. *Kreditning qaysi shakllari kreditor va qarz oluvchi bilan bog'liq holda ajratiladi?*
11. *Kreditning qaysi shakllari qarz oluvchining maqsadli talablari bilan bog'liq?*

T O ' R T I N C H I B O B

KREDITNING BAHOSI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

4.1. Kredit bahosi va uning shakllanish mexanizmi

Iqtisodiyotda banklar tomonidan beriladigan kreditlar uchun iqtisodiy asosga ega bo'lgan bahoni belgilash kredit operatsiyalarning samaradorligi, kredit va unga hisoblangan foizning o'z vaqtida qaytarilishi bilan bog'liq. *Kredit bahosi* – bu vaqtincha muddatga berilgan qiymatdan foydalanganligi uchun qarz oluvchi tomonidan kreditorga to'lanadigan o'ziga xos to'lovdir. Bankda kreditning to'lovchisi ham ta'minot manbai ham mijozlar bo'lib hisoblanadi. Kredit bahosi tuzilgan shartnomadagi belgilangan foiz stavkasi va qo'shimcha to'lovni tashkil etadi.

"Kredit bahosi" atamasi tarixan kredit operatsiyalarning samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich sifatida qadimgi davrdan kurtaklanib shakllana boshladi. Bu davr ichida u ajib va mazmunli yo'lni bosib o'tdi, uning rivojlanish davrida bir qator maktablar (konsepsiyalar, yo'nalishlar) takomillashdi, u atrof muhit va inson ongida aks etishi borasidagi tasavvurlar klassik, ma'muriy, psixologik, axloqiy va ruhiy jihatdan bir-biriga mustahkam bog'lanishi bilan birga bank sohasining ehtiyojlariga mos ravishda parallel rivojlandi.

Qadimda yashab o'tgan faylasuf Platon "Siyosat yoki davlat" nomli asarida "... mijozlarga kredit faqat ishonch asosida va foizsiz shaklda berilishi maqsadga muvofiq" yoki faylasuf Arastu esa "... pul pulni yaratmaydi, foiz daromad keltirmaydi" degan mazmunni qo'llab-quvvatlaydi. Bu qarashlar qadimgi davr talablariga muvofiq kelishi mumkin. Sudxo'rlik rivojlangan davrda bu kabi fikrlar jamiyatning rivojlanishida tabaqalanishning cheklanishiga xizmat qilgan. J. Keys "foiz normasi – bu qarzdorning kapitaldan foydalanganligi uchun to'laydigan foydasidir", I. Fisher esa "foiz normasi – bu pulda ifodalangan va bir yildan so'ng to'lanadigan foizning mukoftidir" degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Bu kabi qarashlar kredit bahosining asosini tushuntirib berishga va uning mohiyatini ochishga yordam bera olmaydi, uning mazmunini ssuda kapitalidan emas, balki kreditlash jarayonidan qidirib topish maqsadga muvofiq bo'ladi. Muallif foiz

to'lovlarini daromadning bir ko'rinishi sifatida emas, balki uni daromadning umumiy ko'rinishi sifatida ifodalab bergan. Fikrimizcha, foiz to'lovining manbai – bu qo'shilgan qiymatdir.

O.I. Lavrushin "ssuda foizi – bu vaqtinchalik muddat ichida ssudadan foydalanishdan olinadigan o'ziga xos to'lov" degan mazmunni qo'llab-quvvatlaydi. Muallif kredit bahosining mikro- va makrodarajadagi omillar ta'sirida shakllanishini guruhlariga ajratib tushuntirib bergan.

T.M. Qoraliev "pul bozorida kreditga bo'lgan talab va taklif mujassamlanadi va uning zahirida baho, ya'ni ssuda foizi shakllanadi" degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Bunda muallif ssuda foizi darajasini pul-kredit instrumentlarining ta'sirida shakllanishini e'tirof etadi. SH. Abdullaeva esa kredit bahosini berilgan mablag'lar bahosi bilan kredit operatsiyalari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar qiymati asosiy mezon sifatida xizmat qilishini e'tirof etadi.

Kredit bahosi o'zining shakllariga ko'ra tijorat krediti bo'yicha foiz, bank krediti bo'yicha foiz, iste'mol krediti bo'yicha foiz, lizing shartnomasi bo'yicha foiz, davlat krediti bo'yicha foiz; kredit tashkilotlari bo'yicha Markaziy bank hisobiga foiz, lombard krediti bo'yicha foiz, bank krediti bo'yicha foiz; investitsiyalar turi bo'yicha aylanma mablag'lar uchun berilgan kredit bo'yicha foiz, asosiy fondlar uchun berilgan kredit bo'yicha foiz, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalash uchun berilgan kredit bo'yicha foiz; kreditlash muddati bo'yicha qisqa muddatli ssuda foizi, o'rta muddatli ssuda foizi va uzoq muddatli ssuda foizi; kredit tashkilotlarining operatsiyalari bo'yicha depozit foizi, ssuda foizi, banklararo kredit foizi kabi turlarga bo'linadi.

Kredit tashkilotlari ssudani asosan o'zining mablag'lar hisobidan emas, balki jalb qilingan mablag'lar hisobidan ajratadi. Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qayta taqsimlashdagi vositachilik faoliyati uchun bankning olgan daromad kompensatsiya rolini bajaradi. Bank aktivlari zimmasidagi majburiyatlarning bajarilmaslik riski omonatchilar o'zining passivlari oldidagi majburiyatlarning bajarilmaslik riskining oshishiga olib keladi. Demak, bank ssudalar bo'yicha to'lay olmaslik riskini o'z zimmasiga oladi.

Foiz siyosati nafaqat pul-kredit siyosatini muvofiqlashtiradi, hatto kredit munosabatlarini boshqarishda ham ustuvor iqtisodiy dastak vazifasini bajaradi.

Bank foizining shakllanish mexanizmi deganda ssuda foizi siyosatini olib borishda va uni amaliyotga joriy qilishda qo'llaniladigan vositalar va choralar majmui tushuniladi. Ularning ayrimlari quyidagilar hisoblanadi: foiz darajasini shakllantirish usuli; foiz stavkalarini tabaqalashtirish mezonlari; Markaziy bank tomonidan foiz me'yorlarini muvofiqlashtirish usuli; foizlar bo'yicha to'lovlar va undirishlar tartibi; foizni to'lash manbalari; qarz oluvchilar manfaatlarini himoya qilish tizimi bilan foiz o'rtasidagi bog'lanish; kredit tashkilotining daromadlari va xarajatlarini shakllantirishda foizning o'rni.

Bu mexanizm, *bir tomondan*, foizni tovar ishlab chiqarishning iqtisodiy kategoriyasi sifatida ifodalasa, *ikkinchi tomondan*, uning foiz siyosatini olib borish bilan o'zaro bog'liq ekanligini ifodalaydi. Amaliyotda aksariyat hollarda uning iqtisodiy tabiatiga qarama-qarshi sub'ektiv ustuvorlik namoyon bo'ladi. Bozor munosabatlarigacha, ya'ni xo'jalik mexanizmi amal qilgan davrda bank foizidan foydalanish asosan davlatning xo'jalik yuritish siyosatiga bo'ysungan holda amalga oshirilgan. Ushbu siyosatning o'zgarishi bilan bank foizidan foydalanish mexanizmi ham o'zgardi.

Hozir bank foizining quyidagi mexanizmidan foydalanilmoqda:

- foiz darajasi kredit resurslariga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda sub'ektlar o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida o'rnatiladi;
- ssudalar bo'yicha foiz stavkasini o'rnatish kredit kelishuvlari amalga oshirilayotgan aniq sharoitlarga, ya'ni ssuda summasi va uni qoplash muddati; ssuda ta'minotining mavjudligi; mablag'larni jalb qilish sarfi; kreditni rasmiylashtirish va nazorat qilish xarajatlari; bankning rentabelli bo'lishini ta'minlash zaruriyati; mijozning kreditga layoqatliligi kabi belgilarni inobatga olgan holda bank bilan mijoz o'rtasidagi kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.
- bankning passiv operatsiyalariga qaraganda foizning ahamiyati oshib boradi, bo'sh pul mablag'larini omonatga qo'yishni rag'batlantiradi;
- foizlarni o'rnatish va undirish o'zaro kelishuv bitimi asosida amalga

oshiriladi va, odatda har oyda kredit foizi to'lab turiladi;

- kredit jamg'armalarining yo'nalishiga qarab foizlarni to'lash turlicha bo'lishi mumkin: aylanma mablag'lar uchun berilgan kreditlar bo'yicha to'lovlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi; asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa aylanma mablag'lari bo'lmagan aktivlarni sotib olish uchun berilgan kreditlar bo'yicha xarajatlarni korxona foydasiga qo'shiladi.

Bank kreditidan foydalanganligi uchun to'langan foiz xarajatlari Markaziy bank tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasi doirasida soliqqa tortiladigan bazani kamaytiradi. Ammo muddatdan o'tgan kreditlar foizi soliq bazasini kamaytirmaydi.

Foiz mexanizmidan foydalanish foizli daromadlar va xarajatlarning bankning pirovard moddiy manfaatdorligi bilan bevosita bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Kredit bahosidan foydalanish mexanizmidagi asosiy unsurlardan biri - bu kredit bahosi darajasining shakllanish usuli hisoblanadi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida, kredit to'lovlarining erkinligida, makroiqtisodiyot darajasida foiz uchun belgilangan o'rtacha foyda me'yoriga erishish kabi jarayonlar ustuvor vazifa hisoblanadi. Foizning o'rtacha foyda me'yoridan u yoki bu tomonga og'ishiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Ularni ikki guruhga, ya'ni umumiy va xususiy omillarga ajratish mumkin.

Umumiy omillarga qarzlarga bo'lgan talab va taklif nisbati; Markaziy bankning muvofiqlashtiruvchi siyosati; qadrsizlanayotgan pulning ta'minot darajasi kiradi.

Xususiy omillar tabiati tijorat banklarining faoliyat ko'rsatish sharoitlari, shuningdek, mijozlar bilan tuziladigan bitimlarning xususiyatlari bilan belgilanadi. Bulardan tashqari, bu omillar ssuda foizining ayrim turlari bo'yicha har xil bo'lishi mumkin. Masalan, *depozit foizi* darajasi yuqoridagi omillardan tashqari quyidagi omillar ta'sirida bo'ladi: bankning aktiv operatsiyalari bo'yicha foiz darajasi; jalb qilinadigan depozitning muddati va summasi; bankning ishonchliligi.

Banklararo pul bozorida foiz darajasi, boshqa sharoitlarni hisobga olmaganda, odatda, depozit foizi me'yoridan oshadi, chunki ssuda berilayotganda kredit muassasasining xarajatlari va manfaatlari hisobga olinadi.

Bank aktivlari bo'yicha foiz darajasiga ssuda summasi va uni to'lash (qaytarish) muddati, ssuda summasining ta'minlanganlik darajasi, bank ssuda kapitalining tannarxi, mijozning kreditga layoqatliligi va uning bank bilan o'zaro munosabatining mustahkamligi kabi xususiy omillar ta'sir qiladi.

Ssuda kapitalining tannarxi qilingan umumiy xarajatlar summasining maqsadli joylashtirilgan mablag'lar (daromad keltiradigan aktivlar) summasiga bo'lish yordamida aniqlanadi. Bank xarajatlari bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq xarajatlar va bank faoliyatini ta'minlash bo'yicha xarajatlardan iborat. Birinchi guruhga bankka jalb qilingan mablag'lar bo'yicha foiz to'lovlari, zayomlar va depozitlar, muomalaga chiqarilgan qarz majburiyatlari bo'yicha foizlar kiradi. Ikkinchi guruh xarajatlariga ma'muriy boshqaruv va ijtimoiy-maishiy xizmatlar uchun qilingan sarf-xarajatlar, chet el valyuta operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xarajatlar, kassa, hisob-kitoblar bilan bog'liq operatsiyalar, olingan grantlar bilan bog'liq xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar, jumladan, texnikaga ko'rsatilgan sarflar, axborotlashtirish xizmatlari, blankalarni tayyorlash, ularni pochta-telegraf orqali jo'natish, amortizatsiya, bino va inshootlar, transport vositalarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar, ijara to'lovlari, nodir metallar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xarajatlar, valyuta, faktoring, lizing operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar va boshqalar, jarima, penya va to'langan qarzlar kiradi.

Ssuda kapitalining tannarxi amaliyotda aktiv operatsiyalar bo'yicha foiz darajasini aniqlash uchun asos bo'lib hisoblanadi. Kredit bahosining yuqori chegarasi bozor sharoitlari ta'siri ostida shakllanadi. Kredit bahosining quyi chegarasi bankka jalb qilingan mablag'lar bo'yicha xarajatlar bilan kredit muassasasi faoliyatini tashkil qilishga sarflangan xarajatlar ta'siri ostida shakllanadi. Bu esa kredit resurslarining tarkibiy tuzilishi sifatiga bog'liq. Masalan,

mablag'lar uchun to'lovlar salmog'ining oshishi foiz darajasining quyi darajasini ko'tarishga yordam beradi va aksincha.

Foiz me'yorini hisoblashda tijorat banklari tomonidan tayanch foiz stavkasining darajasini va har bir bitim (kelishuv) bo'yicha shartlarni hisobga olgan holda risk uchun ajratilgan qo'shimcha mablag'lar ko'zda tutiladi. Bu ko'rsatkichlar, odatda, ta'minlangan ssudalar bo'yicha kreditga layoqatli bo'lgan mijozlar uchun o'rnatiladi.

Tayanch foiz stavkasi taxmin qilinayotgan ssuda kapitali tannarxi bilan kelgusi davr uchun mo'ljallangan rentabellik darajasiga asoslangan holda belgilanadi.

Kredit resurslarining o'rtacha real bahosi bankka jalb qilingan har bir resursning real bahosi bilan har bir resurs salmog'ining ko'paytmasi va ularning bankka jalb qilingan umumiy (to'lovli va to'lovsiz) resurslariga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi.

Har bir resursning o'rtacha real bahosi resurslarning bozordagi nominal bahosi va Markaziy bankka majburiy zaxira qilinadigan deponentlar me'yoriga o'zgartirish kiritish asosida aniqlanadi. Xuddi shu tartibda boshqa turda jalb qilinadigan resurslarning real bahosi ham aniqlanadi.

Marja – bank aktivlari keltiradigan daromadlar foizi bilan bank majburiyatlari bo'yicha xarajatlar foizi o'rtasidagi tafovutdir. Bank marjasi foizli va foizsiz marjalarga bo'linadi. *Foizli marja* - bu daromad keltiradigan aktivlar (qimmatbaho qog'ozlar, kreditlar, boshqa investitsiya loyihalari)dan keladigan foiz daromadlari bilan bank tomonidan jalb qilingan resurslar bo'yicha foiz majburiyatlari (xarajatlari) o'rtasidagi farqdir. Foizli marja tijorat banklari tomonidan foyda darajasini rejalashtirish jarayonida asosiy strategik ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Bu erda daromad keltiruvchi aktivlardan olinadigan foiz daromadlari majburiyatlar bo'yicha foiz xarajatlaridan katta bo'lishi foyda miqdorini ko'paytiradi. Foizli marjaning nisbiy ko'rsatkichi foiz evaziga erishilgan sof daromadning daromad keltiruvchi bank aktivlari summasiga bo'lgan nisbat bilan aniqlanadi. Foizli marjaning o'zgarishiga kredit qo'yilmalarining hajmi,

tarkibi va manbalari, to'lov muddatlari va foiz stavkalarini qo'llash xarakteri va ularning dinamikasi kabi omillar ta'sir qiladi.

Foizsiz marja – bu bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha olinadigan haq bilan bank tomonidan to'langan komission to'lovlar o'rtasidagi farqdir. Foizsiz marjadagi o'zgarishlar bank xizmatlari bo'yicha belgilangan haqlar hajmini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Erkin foiz siyosatini yuritish uchun kredit muassasasi avvalo bank xizmatining ichki qiymati qanday oraliqda bo'lish kerakligi va bu koeffitsient qanday darajalar doirasida bo'lishini bilishi shart. Bu ko'rsatkich bank tomonidan joylashtirilgan mablag'lar va ularning har bir so'mi sarflangan xarajatlarning har bir so'mini qanchalik darajada qoplaganini ifodalaydi va minimal foizli marja ko'rsatkichi deb yuritiladi.

Minimal foizli marja joriy davrda bank faoliyatini ta'minlash uchun sarflangan xarajatlarning bankning boshqa turdagi xarajatlar o'rtasidagi farqi va ularning bankning daromad keltiradigan aktivlariga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi. Joriy davrda bank faoliyatini ta'minlash uchun sarflangan xarajatlar tarkibiga ma'muriyatni saqlash va ijtimoiy-maishiy maqsadlar uchun xarajatlar, kassa va hisob-kitob operatsiyalari, olingan kafolatlar va boshqa operatsion xarajatlar, shu jumladan, texnika qarovi uchun to'lovlar, axborot xizmati, blankalarni tayyorlash, ko'paytirish, jo'natish bo'yicha xarajatlar, amortizatsiya to'lovlari, bino va inshootlarni saqlash, pochta, telegraf xarajatlari, boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, shu jumladan, kredit muassasasidagi anjomlarni sotish, hisobdan chiqarish, debitorlik qarzlarni o'chirish, o'g'irlangan naqd pullar, moddiy mablag'lar, qalbaki qog'oz pullar va tangalarni hisobdan chiqarish uchun qilingan xarajatlar, ijara to'lovlari, arbitraj ishlari bo'yicha sud xarajatlari, auditorlik tekshiruvlari va hisobotlarni ko'paytirish uchun sarflangan xarajatlar kiradi.

Xalqaro kredit aloqalarida *foiz stavkasi* milliy kredit tizimidagi foiz darajasiga bog'liq holda belgilanadi. Ssuda foiziga ta'sir etuvchi omillarning xalqaro-valyuta va moliya-kredit munosabatlari bilan bog'liq bo'lganligi sababli foiz stavkasining darajasi milliy stavkalardan birmuncha farq qiladi. Jahon bozoridagi raqobatchilik natijasida foiz stavkalarining tez-tez o'zgarib turishi

milliy va mintaqaviy iqtisodiyotda beqarorlik, inflyasiyaning kuchayishi, valyuta kursining tebranishi kabi ko'rsatkichlar bilan izohlanadi.

4.2. Kreditning foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari

Amaliyotda olingan qarzlar uchun haq to'lash kreditning asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Olingan haq qarz yig'indisiga nisbatan foiz hisobida kreditning *foiz stavkasi* deb yuritiladi yoki kredit foiz stavkasi berilgan kreditga nisbatan foizda belgilangan holda kreditning bahosini ifodalaydi. Foiz stavkasining o'sishi kreditning qimmatlashuvi, foiz stavkasining kamayishi kreditning arzonlashuvi bilan xarakterlanadi.

Kredit bahosi pul bozorida shakllanadi. Bozorda foiz stavkasi o'zining o'zgarishiga qarab qat'iy belgilangan foiz stavkasi va suzib yuruvchi foiz stavkasi turlariga bo'linadi. *Qat'iy belgilangan foiz stavkasi* qarz mablag'laridan foydalanilgan barcha davr uchun bir xil darajada yoki o'zgarmaydigan tarzda belgilangan stavkadir. Bu stavka kredit shartnomasining shartlari bajarilgunga qadar o'zgarmasdan qoladi. Qat'iy belgilangan foiz stavkasi tijorat banklari uchun noqulay stavka bo'lib hisoblanadi, bunda bank o'z aktivlarining muayyan bir qismini yo'qotishi mumkin. Masalan, bank 30% stavkada bir yil muddat uchun kredit berdi. Uch oydan so'ng ssuda kapitali bozorida bir yil muddatga berilgan kreditning foiz stavkasi 35%ga ko'tarilsa, u holda bu holat tijorat banklari uchun zarar keltiradi.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi – bu o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan kreditlarga belgilanadigan foiz stavkasi bo'lib, uning darajasi pul-kredit bozoridagi kon'yunkturaga bog'liq ravishda tebranib turadi. Suzib yuruvchi foiz stavkasi pul-kredit bozoridagi kon'yunkturaga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Bu foiz stavkasi uchun odatda kredit resurslarining banklararo stavkalari (Londonda – LIBOR, Parijda – PIBOR, Singapurda – SIBOR, Quvaytda – KIBOR, Lyuksemburgda – LYUKSIBOR va hokazo) qo'llaniladi.

Kredit shartnomasida belgilanagan foiz stavkalari *nominal foiz stavkasi* deb yuritiladi. Amaliyotda nominal foiz stavkasi odatda bozor joriy foiz stavkasi deb ataladi. Inflyasiya darajasini hisobga olgan stavka odatda real foiz stavkasi deb

e'tirof etiladi. J.Fisher nominal foiz stavkasi bilan real foiz stavkasi o'rtasidagi bog'lanishni quyidagi ko'rinishda ifodalagan:

Real foiz stavkasi = Nominal foiz stavkasi – Inflyasiya darajasi

Qachonki, inflyasiyaning o'sish sur'ati foiz stavkasidan yuqori darajada bo'lsa, u holda real foiz stavkasi salbiy ko'rsatkichga aylanishi mumkin.

Real foiz stavkasini aniqlash bevosita inflyasiya darajasini aniqlash bilan bog'liq. Tasodifiy inflyasiya sur'atlari sharoitida pul mablag'larini olish qarzga oluvchilar uchun qulay bo'lib, ular keyinchalik qarzlarini qadrsizlangan pul bilan qoplaydilar. Kreditorlar kredit bahosining to'xtovsiz o'sishi sharoitida daromad olishni yutqazadi.

Bank krediti uchun foiz stavkalarining darajasi pul bozoridagi talab va taklif nisbati bilan bevosita bog'liq. Agar bu nisbat muvozanatda bo'lsa, u holda bazaviy stavka bilan foiz marjasi miqdorini aniqlash mumkin.

Tijorat banklari mijozlarga iste'mol kreditini berayotganda ular bilan kelishgan holda kreditga foiz stavkasini yillik foiz stavkasida, oddiy foiz stavkasida, diskont foiz stavkasida yoki murakkab foiz stavkasida belgilashi mumkin.

Yillik foiz stavkasi bir yil uchun to'lanadigan umumiy to'lovlarning kredit summasiga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi. Bu stavka jismoniy shaxslar uchun eng qulay kreditni tanlab olish uchun yordam beradi.

Kredit bozorida kreditdan foydalanish muddatiga qarab unga oddiy foiz stavkasi va murakkab foiz stavkasi belgilanadi.

Odatda odiy foiz stavkasi qisqa muddatli kreditlar uchun qo'llaniladi. Har chorakda yoki boshqa beliglangan muddat uchun tuzligan shartnomaga ko'ra kreditorga foiz to'lab boriladi. Odiy foiz stavkasi usulida qarzdorning to'laydigan umumiy to'lov summasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$T = Q(1+n*i)$$

bu erda T – boshlang'ich qarzni hisobga olgan holda kredit uchun to'lanadigan to'lov summasi; Q – boshlang'ich qarz; i – foiz stavkasi; n – ssudaning

davomiyligi (yil yoki ssudadan foydalanish kunlari uchun qo'llaniladigan bazaga nisbati (360 yoki 365 kun)).

Oddiy foiz stavkasining xususiyatida, mijoz bankka kreditni bosqichma-bosqich to'lashi natijasida foiz stavkasi qarzni qoldiq summasidan undiriladi.

Bank amaliyotida oddiy foiz stavkasi usuli bilan birgalikda murakkab foiz stavkasi usuli ham qo'llaniladi. Bu usuldan uzoq muddatli kreditlashda keng foydalaniladi. Murakkab foiz stavkasi usulida asosiy summaning ustiga qo'shib hisoblangan summa shartnomaning oxirgi muddatiga qadar kreditorga to'lab berilmaydi, natijada mijozning qarzi ketma-ket ko'payib boraveradi. Bugungi kunda bank amaliyotida bu usul yordamida hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayoni jismoniy shaxslarning depozit hisobvaraqlari bilan bog'liq operatsiyalarda kuzatiladi.

Murakkab foiz stavkasini hisoblashda qo'shib hisoblanadigan summa qarz summasiga qo'shiladi. Bu summaga foiz summasi qo'shib hisoblanadi. Murakkab foiz stavkasi o'zgarmas foiz stavkasi orqali hisoblanganda quyidagi formula yordamida

$$T = Q(1+i)^n,$$

foiz stavkasi o'zgaruvchi foiz stavkasi orqali hisoblanganda esa quyidagi formula yordamida

$$T = Q(1+i_1)^{t_1} * (1+i_2)^{t_2} \dots k * (1+i_k)^{t_k}$$

hisoblash mumkin.

bu erda T – k yildagi qarzlar; Q – berilgan ssuda summasi; i_k – k foiz stavkasi; t_k – berilgan ssudaning davomiyligi (yillar).

Agar foizlar yiliga bir necha marta qo'shib borilganda murakkab foizlarni hisoblash formulasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$T = Q(1+m*i)^N$$

bu erda m – yil davomida qo'shilgan foizlar soni; N – foiz qo'shiladigan davrlarning umumiy soni.

Bank qaysi operatsiyalarni amalga oshirsa yoki qaysi usulni qo'llagan taqdirda ham ko'proq foyda olishini ketma-ket tahlil qilib borishlari lozim.

Masalan, inflyasiyani hisobga olganda bank qancha foyda yoki zarar ko'rishini mumkin? Yoki qo'shilgan foizlarning yig'ilgani ma'qulmi? Yoki har yiliga kredit to'lovlarini talab qilgan ma'qulmi?

Foizlarni qo'shish ssudadan foydalanadigan kunlarning o'zgarishi va bir yil ichida kunlarning davomiyligi bilan belgilanadi. Masalan, ssudadan foydalanish kunlari aniq yoki taxminan aniqlanishi mumkin, bunda har bir oy 30 kun, yildagi kunlar 365 yoki 366 deb qabul qilinadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotda foiz stavkasini hisoblash *oddiy shartnoma usuli* yordamida amalga oshiriladi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$F_m = \frac{Q \cdot f \cdot t}{360 \cdot 100}$$

bu erda F_m – foiz miqdori; Q – bank hisobvarag'idagi mablag'larning o'rtacha qoldig'i; f – kredit uchun foiz stavkasi; t – davrdagi kunlar soni.

Markaziy bank qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun hisob (diskont) stavkasini qo'llashni joriy etadi. Diskont inglizcha «discount» so'zidan olingan bo'lib, hisoblamoq ma'nosini beradi. Banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarni muddatidan oldin qaytarib sotib olish (aksiya hisobi)da, qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olganda bank undiradigan foizlar yoki tovar narxi (masalan, sifatli standartga to'g'ri kelmaganda), birja va valyuta bitimlarida valyuta narxidan chegirma (tashlama)lar hisob-kitob qilinganda diskont stavkasini qo'llash mumkin.

Ushbu usulda foiz oldindan to'lanishi ko'zda tutiladi, ya'ni to'lanadigan foiz miqdori oldindan hisoblanadi va kredit berilayotganda hisoblangan foiz summasi ushlab qolinadi. Kredit miqdori belgilangan summa hisobiga kam miqdorda beriladi.

Lombard krediti - bu Markaziy bank tomonidan davlat qimmatli qog'ozlarini garovga olgan holda, o'zgarmas yoki kimoshdi savdosi orqali shakllanadigan foiz stavkasida banklarga beriladigan kreditdir. Bank lombard krediti va unga hisoblangan foizlar summasining etarli darajada ta'minlanganligi garovga qo'yilgan davlat qimmatli qog'ozlarining bozor narxi

sifatida rasmiy e'lon qilinadigan o'rtacha narx bilan qabul qilinadi. Lombard kreditining summasi (kredit uchun hisoblangan foizlar summasi) garovga qo'yilayotgan davlat qimmatli qog'ozlarining Markaziy bank belgilagan tuzatish koeffitsientiga ko'paytirilgan bozor narxidan oshmasligi lozim.

Agarda bankning garovga olingan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha bozor narxi (Markaziy bank belgilagan tuzatish koeffitsientiga ko'paytirilgan) lombard kreditiga doir asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni ta'minlash uchun etarli yoki undan ko'p bo'lsa, lombard krediti etarli darajada ta'minlangan deb hisoblanadi.

4.3. Kredit bahosiga ta'sir qiluvchi omillar

Iqtisodiyotda kredit bahosining shakllanish mexanizmi eng avvalo unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashni taqozo etadi. Baho - kreditga ta'sir etuvchi omillar natijasida o'zgarib turadi. Kredit bahosiga pul bozoridagi talab va taklifning nisbati, qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi, qarzni to'lash muddati va sharti, qarzning qanday pul bilan berilishi, inflyasiya darajasi, pulni qarzga berishdan ko'ra boshqa yo'sinda ishlatishdan tushadigan daromad, qarz berishning risk darajasi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Pul bozoridagi talab va taklifning nisbati bozorda qanday miqdorda qarz puliga nisbatan talab bor va unga nisbatan qanday miqdorda qarzga beriladigan pulning chiqarilganligi kabi bilan izohlanadi. Bunda talab oshganda, foiz ortadi, taklif oshganda esa talab kamayadi.

Qarzga olinadigan pulning ishlatilishidan kutiladigan naf darajasi shu pulning iste'mol qiymati bilan belgilanadi. Qarz puli tadbirkorlar uchun ko'proq foyda keltirsa yoki iste'molchining ehtiyojini to'laroq qondirilsa, u holda foiz darajasi yuqori bo'ladi, aks holda uning foiz darajasi pasayib ketadi. Bu holatda puldan foydalanishdan kelib chiqadigan naflik o'zaro qiyoslanadi.

Qarzni to'lash muddati va shartida uzoq muddatga berilgan qarzning foiz bilan birga qaytarilishi izohlanadi. Bunda qarz asta-sekin, kichik-kichik qismlarga ajratilgan holda bema'lol qaytarilishi mumkin bo'lsa, qarzdor past darajali foizni afzal ko'radi. Qarz qanchalik uzoq muddatga berilsa, undan shuncha muddatga

foydalangan holda daromad ko'rish mumkin va shular hisobidan bankka foiz undirish osonroq amalga oshiriladi.

Qarzning qanday pul bilan berilishi erkin konvertirlangan valyutada yoki oddiy valyutada berilishi bilan izohlanadi. Agar qarz erkin konvertirlangan valyutada berilsa, u holda foiz yuqori darajada belgilanadi. Agar qarz oddiy valyutada berilsa, u holda foiz nisbatan past darajada belgilanadi. Konvertirlangan pul obro'li bo'lganligi sababli undan foydalanish oson bo'lib, undan tez furs'at ichida daromad olish mumkin bo'ladi.

Inflyasiya darajasi qarzga berilgan pulning egasiga etib kelguniga qadar sotib olish quvvatini qisman yo'qotishi bilan belgilanadi. Qachonki, inflyasiya yuz bersa, qarzga berilgan pul uning egasiga qaytib kelgunga qadar o'z qadrini qisman yo'qotadi. Bu holatda pulning egasi yutqazadi. SHu sababli foiz stavkasi inflyasiya darajasini hisobga olgan holda belgilanadi. Foiz stavkasi inflyasiya darajasining shiddatiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradi.

Pullarni qarzga berishdan ko'ra uni boshqa usulda foydalanishdan kelib tushadigan daromad pul egasining afzal ko'rish tamoyiliga asoslanadi. Agar aksiyadan ko'rilgan dividend yuqori miqdorda bo'lsa, u holda foiz stavkasi pasayadi va aksincha. Agar aksiya uchun 15% dividend berilsa, u holda foiz stavkasi undan yuqori darajada bo'lishi shart, aks holda pul egasi uni qarzga bermaydi va u aksiya sotib olishni afzal ko'radi.

Qarz berishning risk darajasi qarzning qaytib kelish ehtimolligini izohlaydi. Agar qarzning qaytib kelishi kafolatlangan bo'lsa, u holda foiz stavkasi past darajada, agar u riskli bo'lib, qarz qaytishi shubhali bo'lsa, u holda foiz stavkasi yuqori darajada belgilanadi. Odatda moliyaviy barqaror va nufuzli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun foiz stavkasi alohida belgilanadi. YUqori foiz bilan past foiz o'rtasidagi farq pul egalari uchun muayyan darajadagi qarz riskini kamaytiradi, chunki foiz stavkasining biron joyda past darajada bo'lishi, boshqa joylarda foiz stavkasining yuqori darajada bo'lishi bilan qoplanadi.

Kredit bahosiga ta'sir qiluvchi omillarni ichki va tashqi omillarga guruhlab o'rganish mumkin. Ichki omillar kredit operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari,

resurslar qiymati va sherikchilik munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Tashqi omillar esa makrodarajadagi ko'rsatkichlar o'zagrishini ifodalaydi.

Ma'lumki, iqtisodiyotda kreditga bo'lgan talab ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, u mamlakatdagi baho darajasi bilan funksional bog'liqlikda bo'ladi. Iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar bahosining ko'tarilishi sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar pul mablag'lariga ehtiyoj sezadi, chunki mahsulot ishlab chiqarish uchun tovarlar va xizmatlar bahosining ko'tarilishi qo'shimcha mablag'larni talab etadi. Bu holat moliyalashtirish manbaiga, bank kreditlariga bo'lgan talabni oshiradi.

Kreditga bo'lgan talab jamiyatda olinadigan daromad bilan funksional bog'liqlikka ega. Mamlakatdagi uy xo'jaliklari va yirik firmalar tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad darjasining o'sishi bank kreditlarini olishga moyillikni oshiradi. SHunday ekan, kreditga bo'lgan talab daromad o'zgarishiga nisbatan proporsional ravishda o'zgarib boradi.

Respublikamizda yaratiladigan mahsulotlar va xizmatlar qiymati yalpi ichki mahsulotlarda o'z ifodasini topadi. YAlpi ichki mahsulot hajmining oshishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining daromadlik darjasining oshishini ko'rsatadi. Demak, umumiy kredit qo'yilmalari bilan yalpi ichki mahsulotlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik ularning nisbati asosida mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga baho beriladi.

Mamlakatda fiskal siyosati yordamida soliq stavkalarining pasayishi, davlat byudjeti kamomadining oshishi bilan davlat xarajatlarining ko'payishi birgalikda kreditga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi.

Real daromadning o'sishi kreditga bo'lgan talab bilan taklifga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada iqtisodiyotda pul resurslari ko'payib, ularning doiraviy aylanishi tezlashadi. Daromad samarasining mexanizmi iqtisodiy sikl davridagi foiz stavkasi darajasi bilan asoslanadi. Foiz stavkasining o'zgarishi daromad darjasining o'zgarishiga mos keladi, chunki real daromadning o'sishi pul mablag'lariga bo'lgan talabni oshiradi. Bu holatda nisbatan bo'lsa-da foiz stavkasi darajasi oshadi. Foiz stavkasi darjasining oshishi daromadning real o'sishiga mutanosib ko'rinishda bo'ladi.

Iqtisodiyotda kutilayotgan inflyasiya darajasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, u holda kredit taklifi shunchalik kam bo'ladi. Markaziy bankning ekspansiv monetar siyosati pul massasining o'sishiga va kredit taklifining oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada bank aktivlari tarkibida sezilarli darajada o'zgarishlar yuz beradi. Ayniqsa, qisqa muddatli kreditlarning kredit portfelidagi ulushi keskin darajada oshadi, uzoq muddatli kreditlar hajmi esa kamayadi.

Markaziy bank moliya bozoridagi operatsiyalari yordamida foiz stavkasiga tezkor ta'sir ko'rsatadi va tijorat banklarining likvidli aktivlarini optimal boshqarishga erishadi. Bu esa banklarning daromad keltiradigan aktivlarini segmentlash va aktivlarning sekyuritizatsiya qilinishiga olib keladi. Markaziy bank pul-kredit siyosati orqali kreditlar hajmini muvofiqlashtirish uchun foiz stavkalarining umumiy darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Foiz stavkalarining o'zgarishi kredit berishni rag'batlantirish yoki aksincha, foiz stavkasi darajasini ushlab turish imkonini beradi.

Bankka jalb qilingan resurslar hajmi ularning bahosi bilan o'zaro bog'liq. Bank resurslari sifati kreditlashni to'g'ri tashkil qilishning imkonini beradi. Banklar past bahodagi resurslarni jalb qilgan holda yuqori foyda olishni ko'zlaydi. Bu holatda ular bankning likvidlilik darajasi bilan to'lovga qobiliyatlilikini ta'minlashi zarur bo'ladi.

Banklarda talab qilib olinguncha depozitlardagi mablag'lar qoldig'ini arzon resurslar sifati ishlatiladi. Depozitlar bazasida ular hajmining ko'payishi foizli xarajatlarni kamaytiradi, ammo bankning likvidlilikini boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Banklarda mijozlarni kreditlash uchun ularning kredit tarixini tahlil qilish orqali ularning majburiyatlarni bajarishi va to'lov intizomiga rioya qilinishiga baho beriladi. Bu holat kredit bahosi bilan bog'liq. Kredit tarixi yaxshi hisoblangan mijozlarga past bahoda kredit berilishi mumkin.

Banklarda mijozlarning moliyaviy ahvoli va kreditga layoqatlilik darajasi baholanadi. Bu holat kredit bahosining shakllanishiga asos bo'ladi, baholashdagi muammolarning mavjudligi kredit bahosining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Kredit ta'minoti va uning sifat darajasi kredit bahosining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Banklar Hukumatning qimmatli qog'ozlari, qimmatbaho metallar va hukumatning kafolati ta'minoti ostida beriladigan kreditlarning bahosini past darajada belgilashi mumkin. Bu holatda kredit riski minimal darajada bo'ladi.

Xalqaro kredit bahosiga qarz oluvchining mamlakatdagi valyuta; moliya va kredit; iqtisodiy va siyosiy ahvol; loyiha riski xarakteri; kredit manbalari; kredit qiymatini tartibga solish bo'yicha xalqaro kelishuvlar; foiz stavkasi turlari (suzib yuruvchi, qat'iy va aralash); raqobatdagi takliflarning mavjudligi; kredit muddati; inflyasiya sur'ati; kreditning tijorat operatsiyalariga bog'liqligi; jahon va milliy bozorda ssuda kapitalining holati; qarz oluvchi va kreditorning maqomi, nufuzi va moliyaviy holati; kreditning ta'minot sifati; kredit bo'yicha sug'urta qoplamasining mavjudligi; qarz oluvchining olingan kreditdan belgilangan muddatda foydalanish majburiyatining mavjudligi; tijorat bitimlariga nisbatan kredit kelishuvining tuzilgan vaqti; bitim summasi; kredit va to'lov valyutasi; valyuta kursining dinamikasi kabi omillar ta'sir qiladi.

O'z-o'zini nazorat qilish savollari

- 1. Kredit bahosining mohiyati nima va uni izohlashda qanday belgilardan foydalanish mumkin?*
- 2. Kredit bahosi xususidagi qaysi nazariy qarashlarni bilasiz?*
- 3. Bankda kredit bahosining shakllanishi qarz oluvchining qaysi talablari bilan bog'liq?*
- 4. Real foiz stavkasi bilan nominal foiz stavkasi o'rtasidagi tafovut qaysi belgilar bilan izohlanadi?*
- 5. Kredit uchun oddiy foizlar qanday hisoblanadi?*
- 6. Kredit uchun murakkab foizlar qanday hisoblanadi?*
- 7. Markaziy bankning hisob stavkasi qanday belgilanadi?*
- 8. Markaziy bankda lombard stavkasining mohiyati nima?*
- 9. Kredit bahosiga qaysi omillar ta'sir qiladi?*
- 10. Xalqaro kredit bahosiga qaysi omillar ta'sir qiladi?*

B E S H I N C H I B O B

KREDIT TIZIMI VA UNING BARQARORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

5.1. Kredit tizimining mohiyati va tarkibi

Iqtisodiy tizimda moliyaviy mablagʻlarning ortiqcha va defitsitli birliklar oʻrtasida qayta taqsimlanish jarayonlari bilan maxsus moliya instituti shugʻullanadi. Bu institut moliyaviy vositachi deb nomlanadi va kreditor bilan qarz oluvchi oʻrtasidagi aloqani mustahkamlaydi. Moliyaviy vositachilarning jamgʻaradigan va undan foydalanadigan mablagʻlari boshqa sektordan kelib tushadigan mablagʻlardan sezilarli darajada ortiq boʻladi. Moliyaviy vositachilik muomalasi moliya institutlar oʻrtasida amalga oshiriladi, masalan Angliyada institutlar sifatida gʻazna veksellarini tijorat banklari oʻrtasida joylashtirishni hisobga olish bilan shugʻullanadigan uy mavjud. Ular tijorat banklari bilan Markaziy bank oʻrtasida moliyaviy vositachilik muomalasini amalga oshiradilar.

Milliy qonunchilik hujjatlarida «kredit tizimi» tushunchasi «bank tizimi» tushunchasiga nisbatan kam uchraydi. Ammo ushbu tushunchalarni aynan bir-biriga maʼnda tenglashtirib boʻlmaydi. Banklar faqat bitta yoki bir necha kredit tashkiloti sifatida eng koʻp tarqalgan yuridik shaxs boʻlib hisoblanadi. SHu sababli bank tizimi mantiqan kredit tizimining iuayyan bir segmenti boʻlib hisoblanadi, barcha banklar kredit tashkiloti tizimining yadrosini tashkil etadigan yuridik shaxslardir.

Milliy kredit tizimini mamlakatda kredit tashkilotlari majmui sifatida qarash mumkin, ularning faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy meʼyorlar va oʻrnatilgan tartiblar boshqa xoʻjalik yurituvchi subʼektlar bilan oʻzaro chambarchas bogʻliq.

Kredit tizimining institutsional asosini kredit institutlari majmui, ularni nazorat qiluvchi organlar va turli xil tashkilotlar, moliyaviy uyushmalar, assotsiatsiyalar, xoldinglar va muayyan munosabatlar bilan bogʻliq boshqa tashkilotlar tashkil etadi. Ushbu institutlar majmuini mamlakatning kredit sektori sifatida koʻrish mumkin. Har bir davlatning oʻzga xos takrorlanmas kredit tashkilotlari mavjud, ular kredit sektorining tarkibiga kiradi. Bu kredit

munosabatlari rivojlanishining tarixiy xususiyatlari, shuningdek kredit institutlarining faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy xususiyatlar bilan o'zaro bog'liq. Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit institutlarining o'xshash shakllari keng doirada ko'paymoqda. Ammo «bank», «kredit tashkiloti», moliyaviy institutlar kabi qonuniy tushunchalar bir-biridan o'zaro farq qiladi, ular kredit tashkilotlari yoki banklar sifatida qaraladi. Ular bajarayotgan bank operatsiyalarining ro'yxati orqali aniqlanadi, unda odatdagi qo'shimcha belgilar ko'rsatiladi, bu institutlar tijoratning boshida turib faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslar bo'lishi lozim.

Mamlakat kredit tizimi tarkibiga ko'proq institutlar majmui kiritiladi, ular moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajaruvchi institutlar, xususan, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, investitsiya fondlari va kompaniyalar, xayriya fondlari, lombardlar va hokazolardan tarkib topadi. Har qanay institut u yoki bu shakldagi kreditning funksiyasini amalga oshiradi. YUqorida nomlari keltirilgan institutlardan eng ko'pini kredit tashkilotlari tashkil etmaydi. Ular qonunga ko'ra yuridik yoki jismoniy shaxs sifatida ssudalar bera olmaydi. Bu tarkibga sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, investitsiya fondlari va kompaniyalar, xayriya fondlari kiradi. Bu tashkilotlarning asosini qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar majmui tashkil etadi. Sug'urta kompaniyalari va pensiya fondlari ko'chmas mulkka, bank omonatlari (depozitlar)ga, valyuta qimmatliklariga, hisobvaraqlarga o'zlarining pul mablag'larini yo'nalitirishi mumkin. Hissali qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning mohiyatiga ko'ra, ularni qarz shaklida qarash mumkin emas. Kredit sektorida yagona asos bo'lgan hissali qimmatli qog'ozlarga qilingan mablag'larni investitsiyaga yo'naltirish mumkin. Ular investitsiyaning qarz shakli sifatida harakatda bo'ladi.

Demak, kredit sektorining nobank tashkilotlarini aniqlashda ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: ular kredit funksiyalariga ega, shuningdek qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya qilishga asoslangan (masalan, lizing, faktoring, forfeyting kompaniyalari, lombardlar, moliyaviy kompaniyalar) tashkilotlardir. Moliya-kredit institutlarining asosiy turlari kredit sektorining institutlari,

ixtisoslashtirilgan moliya-kredit tashkilotlari, investitsiya kompaniyalari, investitsiya fondlari, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalaridan tashkil topadi. Kredit sektorining institutlari, mamlakat Markaziy banki yoki boshqa kompetentli organlar tarkibini tijorat banklari va davlat ulushi ishtiroki etgan banklar, ixtisoslashtirilgan moliya-kredit tashkilotlari, lizing kompaniyalari, faktoring kompaniyalari, forfeiting kompaniyalari, moliya kompaniyalari, korporativ kredit institutlari, kredit koopreativlari, kredit uyushmalari va notijorat kredit jamiyatlaridan iborat. Kredit sektori tarkibiga faqat qarzlar beruvchi va kredit ajratuvchi moliya institutlari kiradi. Ixtisoslashtirilgan moliya-kredit muassasalarida ta'kidlab o'tidgan moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilmaydi yoki cheklangan doirada amalga oshiriladi. Demak, mamlakat kredit sektori boshqa sektorlardan o'zaro farq qilar ekan. Xususan, ixtisoslashtirilgan moliya-kredit tashkilotlarining barchasi teng huquqiy asosda bank sektorining tarkibiga kiradi. Mamlakatda investitsiya kompaniyalari va fondlarning faoliyatini tartibga solish va uning nazoratini maxsus organlar amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekistonda fondlarning faoliyatini tartibga solish va uning nazorati bo'yicha funksiyalarni fond bozori va qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalar amalga oshiradi.

Kredit institutlarining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- 1) pul kapitalini jamg'arish va muayyan maqsadlarga safarbar qilish;
- 2) pul kapitalini qayta taqsimlash;
- 3) pul aylanmasini tartibga solish;
- 4) moliya kapitalini etkazib beruvchilar uchun moliyaviy risklarni kamaytirish.

Bu funksiyalar moliyaviy vositachi sifatida kredit institutlarining rolini belgilab beradi. Ammo ularni amalga oshirish xarakteriga ko'ra, ular o'z navbatida boshqa kredit tashkilotlaridan farq qiladi.

Kelgusida mamlakatda moliya-kredit institutlari ko'proq moliya-kredit sektori deb yuritiladi. Ular kredit sektori va ixtisoslashtirilgan moliya-kredit

tashkilotlari tarkibidan iborat bo'lib faqat moliyaviy xizmatlar turini ko'rsatadi va qimmatli qog'ozlar bozorida harakat qiladi.

Moliya-kredit tizimi universal va ixtisoslashtirilgan banklar turiga ajratiladi. Universal moliya-kredit tizimi tarkibida banklar tomonidan moliya xizmatlarni amalga oshirish qonuniy jihatdan chegaralanmaydi. Bu esa muhim belgilardan bir hisoblanadi. Bu tizimning klassik andazasini nemislar yaratganlar. Ayrim hollarda universalizmning teskari ko'rinishi, ya'ni nobank tashkilotlari tomonidan bank funksiyalarini amalga oshirish uchun yaratilgan imkoniyat deb ham hisoblanadi. Bu fikr mutlaqo to'g'ri va aniq emas. Amaliyotda esa barcha mamlakatlarda kredit tashkilotlarm segmentlashtirilgan tizim sifatida qaraladi, ularga bank operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshirishga ruxsat beriladi, ularning bunday qilishga haqlari yo'q. Bu birinchidan nobank kredit tashkilotlari ekaniligi hammaga ma'lum.

Demak, milliy moliya-kredit tizimini shakllantirish uchun bankning qonun hujjatlariga muvofiq banklar qaysi operatsiyalarni bajarishi yoki bajarmasligi kerakligini barcha bilishlari kerak. Bank operatsiyalari belgilangan ro'yxat asosida, ularning tarkibi davriy asosida qonun hujjatlariga muvofiq o'zgartirish kiritish mumkin.

Segmentlashtirilgan moliya-bank tizimi tarkibida banklarga nobank operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat berilmaydi. Majburiy bo'lmagan qo'shimcha belgilar kredit tashkilotlari faoliyatining ayrim operatsiyalarida uchraydi. Demak, segmentlashtirilgan tizimda bank operatsiyalari depozitlarni qabul qilish va ularni kreditga berish, sanoat kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarini chiqarish va joylashtirish va boshqa xizmatlar turi bilan bog'liq operatsiyalar alohida qonun asosida tartibga solinadi. Segmentlashtirilgan tizim uzoq vaqtlar davomida AQSHda va YAponiyada hukmronlik qilib kelgan.

Hozirgi sharoitda moliya-kredit tizimining universal va ixtisoslashtirilgan kabi turlarga bo'linishi cheklanmagan xarakterga ega emas. *Birinchidan*, har bir moliya-kredit tizimi o'zining rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, ular gohida universal andazalar, gohida esa segmentlashtirilgan andazalar sifatida hukmronlik

qiladi. Xususan, Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarning moliya-kredit tizimi uchun bu hodisa o'ziga xos xarakterga ega. *Ikkinchidan*, oxirgi o'n yilliklarda ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda moliya-kredit tizimini universallashtirish jarayoni sodir bo'lmoqda. SHu sababli hozir segmentlashtirish qat'iy tartibda amalga oshirilmasdan kelmoqda, ammo segmentlashtirish elementlari bilan universallashtirish elementlari aralashgan moliya-kredit tizimini tashkil etmoqda.

Oxirgi o'n yilliklarda banklar bilan moliya institutlari (nobank kredit tashkilotlari) o'rtasidagi chegara ko'pmoqda. Bu jarayon rivojlangan mamlakatlar uchun o'ziga xos xarakterga ega. Bu quyidagi sabablarga ko'ra ro'y beradi: *birinchisi*, banklar boshqa moliya institutlari faoliyati sohasida ko'proq tarqalmoqda, *ikkinchisi*, operatsiyalar spektri tobora kengayib bormoqda, ularni nobank tashkilotlari amalga oshiradi. Banklar faktoring va lizing operatsiyalari, trast va boshqa xizmatlarni amalga oshirish uchun ular faol ishtirok etmoqdalar, bu operatsiyalarni ixtisoslashtirilgan moliya institutlari ham amalga oshirmoqda. Nobank tashkilotlari o'zlarining faoliyatini universallashtirishda muayyan ko'rinishdagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ammo ular odatdagi bank operatsiyalari (pul hisob-kitoblari, firmalarni qisqa muddatli kreditlash, kredit kartochkalar bilan bog'liq operatsiyalar, jamg'armalar qabul qilish, joriy hisobvaraqlarni yuritish va boshqalar) bilan faol shug'ullanmoqdalar. Zamonaviy banklar moliya bozorining turli segmentlarida operatorlar sifatida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ularning mohiyatiga ko'ra, ssuda kapitali bozorida operatsiyalarni amalga oshirishi tan olinmoqda, ammo o'rta va yirik banklar qimmatli qog'ozlar bozori, valyuta bozori va hosilaviy moliya instrumentlari bozorlarining faol ishtirokchilariga aylanib bormoqdalar. Bu holatlar ular faoliyatida universallashtirish jarayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ixtisoslashtirilgan moliya-kredit tashkilotlari moliya bozorining ayrim segmentlariga ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat kredit sektorining tarkibiga odatda quyidagi moliya institutlar turi kiradi:

- 1) markaziy bank;
- 2) turli tipdagi tijorat banklari, jumladan universal (bank operatsiyalarini amalga oshirish va xizmat turlarini ko'rsatish) va ixtisoslashtirilgan (jamg'arma bank, investitsiya banki, ipoteka banki, savdo banki va boshqalar) banklar;
- 3) nobank tipidagi ixtisoslashtirilgan kredit tashkilotlari;
- 4) ixtisoslashtirilgan kredit institutlari (kredit kooperativlari, kredit uyushmalari, ssuda jamg'armasi assotsiatsiyalari va boshqalar), ular hamma joyda ham kredit tashkilotlari sifatida tan olinavermaydilar, ammo ayrim bank operatsiyalari va bank xizmatlari turining muayyan qismlarini amalga oshiradi.

Bank sektori va bank tizimi tarkibiga yuqorida ta'kidlangan moliya institutlari tarkibidagi dastlabki ikkita institut kiradi. Bu institutlar qonun hujjatlariga muvofiq bank sektori tarkibiga kiradi. Evropaning bir qator mamlakatlarida (Germaniya, Gollandiya, Fransiya, Avstriya va boshqalar) kredit tashkilotlari kooperativ kredit institutlarining yirik qismi sifatida qaraladi.

Kredit institutlarining boshqa institutlari bilan bog'liq ko'rinishda bo'linishi yohud ular tijorat tashkilotlari tarkibiga kirishidan qat'iy nazar ularning faoliyatini tartibga solish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Agar bunday institutlar tijorat tashkilotlari deb tan olinsa, u holda ular kredit ishi to'g'risidagi qonunga muvofiq faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi, aks holda bu tashkilotlar faoliyatini belgilovchi boshqa asosiy qonunlarda ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Kredit tashkilotlarining faoliyati davlat nazorat organlari tomonidan ularning nazorati olib boradi. Ular kredit tashkilotlari uchun kapitalning etarliligi, likvidlilik va boshqa me'yorlar, metodik tavsiyalar ishlab chiqadilar hamda ularning ijrosini ta'minlash nazorat qilinadi, ularga litsenziyalar beriladi. Bu organ boshqa mamlakatlarda o'zaro bir-biridan farqlanadi. O'zbekistonda ularni tartibga solish - Markaziy bank, YAponiyada – Moliya vazirligi, Germaniyada esa kredit ishi bo'yicha Federal idora tomonidan amalga oshiriladi.

Kredit tashkilotlari, jumladan, banklar o'zining funksiyalarini amalga oshirish bilan birga mustaqil ravishda xususiy yoki davlat mulklari asosida shakllanadilar. Ayrim mamlakatlar bank tizimi tarkibida aralash davlat-xususiy

kredit tashkilotlari (banklar, lizing, moliya kompaniyalari va boshqalar) ham mavjud.

Kredit tizimining manzarasi batafsil ko‘rinishda gavdalanmaydi, qachonki pochталarni moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilot sifatida tilga olinmasa. Ayrim mamlakatlar hududida joylashgan yirik tarmoqlar, pochta-jamg‘arma tizimi omonatlarning yirik qismini jamg‘arib berish uchun xizmat qiladi (masalan, YAponiyada ular 20%dan ortig‘ini tashki etadi, bunda jamg‘arilgan mablag‘lar qariyb 2 trln.dollarni tashkil etadi). Pochta-jamg‘arma tizimi mijozlarga kredit bermaydi. Pochta-jamg‘arma tizimi pul mablag‘larini jamg‘arishning odatiy funksiyasini amalga oshirish orqali ularni sug‘urtalash bilan shug‘ullanadi va moliyaning boshqa xizmatlar turiini amalga oshiradi. YAponiya pochta-jamg‘arma tizimi xususiy jamg‘armalarni jalb qilish miqdori bo‘yicha dunyoda eng yirik muassasalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mutaxassislar yaponiyaning moliya kapitalini iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuch-qudratga asoslanganligini tasdiqlaydi. YAponiya aholisining jalb qilingan pul mablag‘lari hukumat farmoyishiga ko‘ra, «ikkinchi davlat byudjeti» sifatida kirim qilinmoqda, ular yalpi milliy mahsulotning qariyb 10%ni tashkil etadi. YAponiyaning pochta-jamg‘arma tizimi orqali arzon pul mablag‘larini jalb qilinishi yaqin kunlarga qadar davlat qarz majburiyatlari bozorining rivojlanishi uchun kerak bo‘lmagan.

Notijorat kredit tashkilotlariga asosan kredit kooperativlarining turi kiradi. Ular ko‘pincha kichik kredit tashkiloti deb ham yuritiladi.

Kredit kooperatsiyasi deganda kooperatsiya sub’ektlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos shakli tushuniladi. Bunda kredit kooperatsiyalarining asosiy funksiyasi tijorat banklari sifatida kreditlashni amalga oshirishdan iborat. Ammo ular o‘zining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslari tayangan holda keyingi kooperatsiyalardan farq qiladi.

Kredit kooperatsiyasi XIX asrda Germaniya, G‘arbiy Evropaning qator mamlakatlari va Rossiyada ma’lum edi. F.Rayffayzen va X.SHuls-Delich tomonidan kredit kooperatsiyalarining shakllari, Rayffayzen kooperativlari – ssuda jamg‘armalari, kredit shirkatlari va boshqalar xalq banki sifatida shakllantirilgan.

Kooperativ kredit ishining evolyusion rivojlanishi Evropa va Amerikada boshlangan, natijada qator mamlakatlar (Germani, Avstriya, Fransiya, Italiya, AQSH va boshqa mamlakatlar)da raqobatga asoslangan ko‘rinishdagi ko‘p bosqichli kooperativ kredit tizimlari shakllantirilgan.

Kredit kooperativ tizimining asosiy modellarini kontinental evropacha va amerikacha modellarga ajratamiz. Kontinental evropacha modelidan Germaniyada keng doirada foydalaniladi. Ularning tashkiliy farqlarining mavjudligiga qaramasdan ularning prinsiplari yaxlit ko‘rinishda shakllanadi. Ular tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash jarayonini ko‘proq kredit kooperativi a‘zolari amalga oshiradi. Kredit kooperatsiyasining paydo bo‘lish bosqichida faqat kredit kooperativining a‘zolari vakil sifatida qatnashadi. Hozirgi sharoitda kooperativ banklarda ko‘proq kredit kooperativi rivojlanmoqda, ular mijozlar hisobidan kengaymoqda. Germaniyada kooperativ banklar 30 mln.dan ortiq o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatadi. Bu banklar boshqa tijorat banklari bilan raqobatni yuzaga keltiradi. SHu bilan birga, bank a‘zolari imtiyozli sharoitda ko‘proq xizmat ko‘rsatishni amalga oshiradi. AQSHda kooperativ banklar shaxslarni kreditlash huquqiga ega, ammo ular a‘zo bo‘lib sanalmaydi, balki ular kreditning limitini aniqlab beradi. Bu esa banklar tomonidan berilgan tashqi shaxslarga berilgan kreditlar umumiy miqdorining 1%dan ortig‘ini tashkil etadi.

2. Kredit kooperativining asosiy maqsadi maksimal darajada foydani olishga qaratilga emas, balki o‘zining a‘zolariga moliyaviy xizmat turlarini ko‘rsatishdan iborat. Ammo kredit kooperativi bank sifatida o‘z operatsiyalarini amalga oshirish orqali daromadlar jamg‘arishga intilmaydi. Masalaning bunday qo‘yilishi ularning faoliyatiga zarar keltiradi. Har qanday kredit kooperativida uning a‘zolari qarzlarni to‘lovlar asosida qaytarishlik va muddatlik shartlarida beradi, ularning bunday munosabatlari tijorat banklarining kreditlaridan tubdan farq qiladi. Kredit kooperativi mijozlarning omonatlari bo‘yicha foiz hisoblaydi va ularni jamg‘arma hisobvaraqlari orqali beradi. Kooperativ banklar zamonaviy hisobvaraqlarning barcha turlarini, jumladan, hisob-kitoblarni amalga oshirish,

kassa hujjatlarini yuritish maqsadida ochadilar. Kredit kooperativlari tijorat yoki kooperativ banklarda o'zining hisob-kitoblar hisobvarag'iga ega bo'ladilar.

3. Kredit kooperativlarida olingan daromadlar asosan ssuda fondlarini ko'paytirish va jamg'arma hisobhisobvarag'i bo'yicha foiz to'lovlarini undirish orqali shakllanadi. Daromadlarni taqsimlashda kredit kooperativlarining tijorat banklaridan o'zaro farqlanishi kelib chiqadi.

4. Kredit kooperativlari boshqarishning demokratik xarakteriga tayanadi. Ularning yakka ovozga ega bo'lgan a'zolari rahbar organlarida ishtirok etishlari mumkin. Tijorat banklarida mulkka vakillik qilishi ularning ustav kapitalidagi ulushlari bilan belgilanadi, bu holat aksionerlik banklari uchun o'ziga xos xarakterga ega.

5. Kooperativlar faoliyatida kredit, savdo va ta'minot funksiyalari o'zaro birgalikda amalga oshiriladi. Banklar nomoliyaviy xarakterdagi operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega emas. Bu cheklovlar kredit kooperativlari uchun o'rnatilmaydi. Germaniyada kredit kooperativlarining barchasi $\frac{1}{4}$ miqdordagi savdo va ta'minot funksiyalarini amalga oshiradi.

Kredit kooperativ tizimi modellari to'g'risidagi faoliyatni tashkil etishning umumiy prinsiplari milliy kredit tizimida zamonaviy holatini xarakterlovchi umumiy xususiyatlarga ega. *Birinchidan*, barcha mamlakatlarda kredit kooperativlari sektorining tarixiy rivojlanishi qishloq va shahar kooperativlari asosida shakllantirilgan. Ular ko'pgina mamlakatlarda xalq banki nomi bilan yuritiladi. Qishloq kooperativlariga nisbatan ular yuqori saviyadagi tijorat banklari faoliyatining o'ziga xos prinsiplariga rioya qiladi. Kredit kooperativlari ayniqsa qishloq joylarida keng doirada rivojlanmoqda. U AQSHda fermer krediti Tizimi (Farm Credit System – FCS) nomi bilan yuritiladi.

Ikkinchidan, har bir milliy kredit tizimida kredit kooperativi tashkilotlari ikkita sinfga ajratiladi. Birinchi sinfga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun kreditlar berishga mo'ljallangan kreditlar kiradi. Ular fermerlar, kichik tadbirkorlar va boshqa shaxslarni tashkil qiladi, qarzlar ishlab chiqarish va tadbirkorlik maqsadlariga beriladi. Bunday kooperativlarda iste'mol qarzlari keng doirada

tarqalmagan. Ammo amaliyotda boshqa nom bilan ishlatiladi. Kredit kooperativi tashkilotlarining ikkinchi sinfi tarkibiga kredit uyushmalari kiradi, ular asosan mijozlarga iste'mol qarzlar beradilar. Bu tashkilotlar jismoniy shaxslarni yaxlit ko'rinishda bir joyga birlashtiradi, joriy iste'mol yoki uy-joy qurilishi maqsadlari uchun qarzlar beradilar. Kredit kooperativlari va kredit uyushmalari, qoidaga ko'ra, o'ziga tegishli bo'lgan Bosh kredit kooperativlari ko'rinishdagi tarkibiy tuzilishga ega.

5.2. Kreditlashni tashkil qilish prinsiplari

Kreditlashning o'ziga xos qoidalari borki, ular maxsus tamoyillar asosida shakllanadi. Bu tamoyillar tarkibi kreditning qaytuvchanligi, kreditning muddatligi, kreditning ta'minlanganligi, kreditning maqsadliligi, kreditning to'lovchiligi, kreditning samaradorligi va differensial yondashuv kabi prinsiplarni tashkil etadi.

Kreditning qaytuvchanligi. Kreditni qaytarib berish ikki taraflama jarayonni tashkil etadi. Bu jarayon kreditor uchun ham qarz oluvchi uchun ham bir xil darajadagi manfaatdorlikni ko'zda tutadi. Bu tamoyil bank amaliyotida kreditdan foydalanilganlik uchun hisoblangan foiz summasini kreditorning hisobiga o'kazishda o'z aksini topadi. Kreditor shu yo'l orqali kredit resurslarini yana qaytadan shakllantirib boradi.

Kreditning muddatligi. Qarz oluvchiga kreditor muayyan muddatga kredit beradi. Qarz oluvchi bankdan kredit olish paytida uning qancha muddatga berilishi to'g'risidagi tuzilgan kredit shartnomasida bayon etadi. Kredit shartnomasi bank bilan qarz oluvchi o'rtasidagi bitim bo'lib, unda kreditning qaysi muddatga berilganligi, kredit uchun qancha ustama haq to'lanishi va kreditni qaytarish uchun garov ta'minoti yoki kafolatlar qayd qilinadi. Kreditning muddatliligi kreditor uchun ham qarz oluvchi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar kreditor tomonidan qarzni foiz bilan birgalikda belgilangan muddatga ko'ra qaytarib olinsa, u holda qarz oluvchining kreditor oldidagi ishonchi mustahkamlanadi, bu holatda qarz oluvchi takroran kredit olishi uchun qulay imkoniyat yaratiladi.

Kreditning muddati bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan shartlarning buzilish qarz oluvchiga nisbatan iqtisodiy jazo choralarini qo'llashga olib keladi. Kreditning muddatliligi kreditning pulga aylanish davri, tushgan mablag'larning tejimli va qayta ishlatilish muddati, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni jo'natish muddati, tovarlarni sotish muddati hamda aylanma mablag'larning doiraviy aylanuvchanlik tezligi bilan bog'liq.

Kreditning ta'minlanganligi. Pul massasi bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi mutanosiblikning bir me'yorda bo'lishi kreditning ta'minlanganlik prinsipi yordamida ta'minlanadi. Xo'jalik aylanma mablag'larida ishtirok etuvchi mablag'larning har bir so'miga tovar-moddiy qiymatliklar bir so'mining mos kelishi taqozo etiladi.

Banklar tomonidan beriladigan kreditlar tovar-moddiy qiymatliklar va muayyan miqdordagi xarajatlar bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi lozim. Iqtisodiyot tarmoqlariga ta'minlanmagan kreditlarning berilishi kreditlarning bankka qaytib kelmasligi uchun asos bo'ladi. Bu esa bankning likvidlilik darajasiga va pul muomalasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. SHu sababli banklar tomonidan beriladigan kreditlar tovar-moddiy qiymatliklar va xarajatlarning ta'minlangan bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Garov ta'minoti banklarga kredit qaytarilmay qolgan holatlarda uning qaytarilishini qoplash uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Kreditning maqsadliligi. Banklardan olingan kreditlar muayyan bir maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Kredit muayyan bir (ishlab chiqarish zahiralar, ishlab chiqarish xarajatlari, tayyor mahsulotlar, jo'natilgan tovarlar va hakoza) ob'ektlar uchun bank tomonidan maqsadli ajratiladi.

Kreditning to'lovliligi. Banklar tomonidan kreditlar ustama haq undirish maqsadida beriladi. Buning uchun bank qarz oluvchidan foiz shaklida qarz mablag'larini undiradi. Qarzni bank qarz oluvchiga tekidan-tekinga beravermaydi. Foiz – bu berilgan qarzdan undirib olinadigan ustama haqdir. Kreditning miqdori berilgan qarzlarga nisbatan foiz hisobida belgilanadi. Foiz

kreditning bahosi bo'lishi bilan birga kreditdan foydalanganlik uchun undiriladigan haqdir.

Kreditning to'lovliligi uni to'liq miqdordagi summada o'z egasiga qaytarish zarurligini emas, balki kredit uchun foiz shaklida to'lov bilan birga qaytarilishini bildiradi (imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning samaradorligi. Iqtisodiyotning real tarmog'i yoki korxona tomonidan olingan kredit summasi va unga hisoblangan foizning banklarga qaytarib to'lanishidan qancha miqdorda samardorlikka erishilganligi kreditning samaradorligi prinsipi yordamida aniqlanadi. SHu sababli bank kredit berishdan oldin berilayotgan kreditning qancha miqdorda samara keltirishini hisob-kitob qilishi lozim. Masalan, investitsion loyihaga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori bankka qancha miqdorda samara keltirgandagina bu loyihaga bank mablag' ajratish mumkin ekanligi maqsad qilib qo'yiladi.

Bank amaliyotida kredit samaradorligi mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiining mijozga ajratilgan kreditning o'rtacha hajmiga nisbatan aniqlanadi.

Qachonki, bankka kredit resurslari kam miqdorda jalb qilingan bo'lib uning bir so'miga ortiqcha mahsulotlar sotilgan bo'lsa, u kreditning samaradorligi shuncha miqdorda yuqori darajada bo'lishini ko'rsatadi.

Kreditning differensial yondashuvi. Kreditlashning mohiyatini o'zida aks ettiruvchi jihatlar kreditning differensial yondoshuvi prinsipiga asoslanadi. Bank kredit munosabatlarda barcha mijozlarga bir xil ko'rinishda yondoshavermaydi. Masalan, ishonchli mijozlarga kredit ta'minoti talab qilinmasdan ham kreditlar ajratilishi mumkin yoki ishonchsiz mijozlardan kredit qaytimidan ortiqcha qiymatga ega bo'lgan garov ta'minotlari talab qilinishi mumkin. Kredit uchun foiz stavkasini belgilash chog'ida bank mijozlarga turlicha yondashuvlarni amalga oshirishi mumkin.

5.3. Kredit tizimining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar

Kredit tizimining barqarorligi - bu tizim faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sifat parametrlarining takomillashuvi va uning elementlari faoliyatining iqtisodiyot

manfaatlariga ta'sir etishini xarakterlovchi kompleks ijobiy jihatdir. Kredit tizimining barqarorligi quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) moliyaviy barqarorlik;
- 2) tashkiliy barqarorlik;
- 3) xodimlar barqarorligi;
- 4) operatsion barqarorlik;
- 5) ishbilarmonlik barqarorligi.

Kredit tizimining *moliyaviy barqarorligi* bankning yakuniy faoliyati, resurslari, kapitali, daromadlari va xarajatlari, foyda (zararlari) hamda fondlar bilan bog'liq bo'ladi. Moliyaviy barqarorlik tarkibida tizimdagi har bir elementning moliyaviy holati o'z aksini topadi. Bu faoliyatning sintetik ko'rsatkichlari indikatorlar orqali ifodalangan bo'lishi mumkin. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyot tizimining muayyan bo'g'ini sifatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ularning yakuniy faoliyatlarida kamchiliklarga duch kelish mumkin. Bugungi kunga qadar O'zbekiston iqtisodiyotida ham 10 ga yaqin tijorat banklari restrukturizatsiya qilganligi yoki ular boshqa turdagi tijorat banklariga qo'shib yuborilganligini kuzatishimiz mumkin.

Kredit tizimining *tashkiliy barqarorligi* bankdagi boshqarish apparatining tarkibiy tuzilishi orqali belgilanadi. Bozor iqtisodiyotida kredit tizimining elementlari tarkibining ikki bosqichda bo'lishi, ularning har biri boshqa mamlakat kredit tizimining elementlariga nisbatan alohida farqlanishga ega bo'lishi mumkin. Masalan, bir qator mamlakatlarda kredit muassasalari faoliyatining nazorati Markaziy bankning vazifasiga kiradi va aksincha, ularni nazorat qilish ayrim mamlakatlarda ixtisoslashtirilgan davlat organlarining kompetensiyasiga kiradi. Boshqaruv apparatining tuzilishi turli tarkibiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Markaziy banklarda tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash, tartibga solish va nazorat qilish departamenti tashkil etilgan. Bundesbankda (Germaniya) kredit muassasalari faoliyatini nazorat qilish bu bankning vazifasiga kirmaydi va shu sababli uning tarkibida bu kabi o'xshash funksiyalar mavjud emas.

Kredit tizimining *xodimlar barqarorligi* muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat O'zbekiston Respublikasi bank tizimini shakllantirishning dastlabki bosqichlarida yuzaga kelgan. Markaziy bank apparatidan yuqori malakali va tajribali xodimlarning ishdan ketib qolish holatlari mamlakat bankining ish faoliyati samaradorligiga, pul aylanmasini tartibga solish sohasiga va bank nazorat sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Markazi bankdan o'zining oldiga qo'yilgan vaziflarni boshqarishi va tashkil etishi uchun apparatga bo'sh o'rinlarni sifatli xodimlar bilan to'ldirib borish talab etiladi.

Kredit tizimining *operatsion barqarorligi* bank xizmatlari turini ko'rsatish va bozor talabining adekvatli operatsiyalarini amalga oshirish bilan xarakterlanadi. Raqobatchilik sharoitida kredit tashkilotlarining ahvoli bank xizmatlari va mahsulotlar turlari, shuningdek mijozlar talabiga javob beradigan bank xizmati turlarini ko'rsatish bilan bog'liq.

Yirik banklar universal kredit muassasalari sifatida rivojlanishi, bank mahsulotlari va xizmatlari turining hajmini ko'paytirish, turli mijozlarga bank xizmat turlarini ko'rsatish imkoniyati ularning barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi. Kichik kredit muassasalari universal bank sifatida xizmatlar turini ko'rsatishning imkoniyati yo'q, ular o'zining ichki imkoniyatlari orqali barqarorlikni ta'minlaydi, bank operatsiyalarining muayyan turdagi assortimentlari bilan ta'minlashga ixtisoslashadi. Ammo ikki holatda ham barqarorlik tushunchasi bank operatsiyalari hajmini amalga oshirishda bankning imkoniyati bilan bog'liq, bu imkoniyat ularning faoliyatini bozor sharoitida samarali ta'minlab berishi mumkin.

Kredit tizimining *ishchanlik (tijorat) barqarorligi* bank tizimi faoliyatini samarali yuritishda muhim ahamiyat kasb etadi. U kredit tizimining oldida turgan maqsadi va vazifalarini amalga oshirishni belgilab beradi. Kredit institutlari o'zining mohiyatiga ko'ra, yagona bank, u o'zining maqsadi va vazifalariga ko'ra muayyan farqlarga ega.

Amaliyotda kredit tizimining barqarorligi qator omillar bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Odatda, omil deganda qandaydir jarayonning sababi, harakat kuchi, uning xarakterini ifodalovchi hodisa yoki o'ziga xos xususiyatlar

tushuniladi. Barqarorlik tushunchasini aniqlovchi omillarning ko'pchiligi bank tizimi tarkibidagi tijorat banklariga mos keladi. Qoidaga ko'ra, barqarorlik omillari to'g'risida gapirilganda ular ichki va tashqi omilarga murojaat qilinadi, bunda ichki omillar (kompyuterlashtirish) - tijorat banklari uchun; tashqi omillar esa (bank infrastrukturasini, bank raqobati) kredit tizimi uchun mos keladi.

Kredit tizimi barqarorligining ichki omillarini 1) tashkiliy omillar; 2) texnologik omillar; 3) iqtisodiy omillar kabi guruhlariga ajratish mumkin.

Kredit muassalari barqarorligining *tashkiliy omillari* guruhiga bank menejmentining holati; innovatsiyaga, o'zgarishga va qayta qurishga bo'lgan imkoniyat; bank boshqaruvining ichki tarkibiy tuzilishi kabi omillarni kiritish mumkin.

Boshqaruv sifatining tahlili bank menejmenti maqsadining muvaffaqiyatga erishishini tashkil etadi. Bank rentabellikka erishi uchun mijozlar talabini resurslar hajmi, tarkibi va xizmatlar sifati bilan maksimal darajada ta'minlash, jamoaning ishlab chiqarish va ijtimoiy muammolarini hal qilishi, balans likvidliligini ta'minlash, xodimlar malakasini oshirishni rag'batlantirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Menejment o'z navbatida ob'ektiv va sub'ektiv omillar yordamida baholanadi. Baholash jarayoni bank faoliyati erishgan natijalarni tahlil qilish bosqichidan boshlanadi. Menejment yordamida bankning aktivlari va passivlari sifati yaxshilanadi, kapitalning etarliligi va likvidlilik darajasi ta'minlanadi. Menejment qonunlar, nizomlar va qoidalarga rioya qilish nuqtai nazaridan baholanadi, unga bank nazorati organlaridagi mavjud hisobotlarning sifati va ularni o'z vaqtida ta'minlash jarayoni kiradi. Ular bilan bir vaqtda olib borilayotgan siyosat, nazorat tizimi, prognozlash, rejalashtirish va operativ boshqarish imkoniyati nuqtai nazaridan menejmentni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank menejmenti o'zining faoliyatida miqdor, sifat va ijtimoiy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Bunda miqdoriy ko'rsatkichlarga mijozlar soni, ko'rsatilayotgan xizmatlar turi, depozitlar hajmi, kredit va investitsiya portfelining hajmi; sifat ko'rsatkichlariga - ROA, ROE, mablag'lar aylanmasining

aylanuvchanlik tezligi, mijozlar tomonidan berilgan savollarining ta'minlanish darajasi, bank xizmat turlari va ularning sifati; ijtimoiy ko'rsatkichlarga – xodimlar qo'nimsizligi, kasbiy tayyorgarlik darajasi kiradi.

Bankning barqarorligini ta'minlovchi *texnologik omillar* guruhiga zamonaviy bank texnologiyasini rivojlantirish yo'llari, bozoning yangi bank mahsulotlari va xizmatlar turiga bo'lgan talabi kiradi. Ma'lumki, oxirgi 10-15 yilda jahon bank hamjamiyati o'zining amalga oshirayotgan operatsiyalari orqali muhim yangilanishga qadam qo'ydi. Axborotning qog'oz vositalari o'rnini kompyuter jihozlari egalladi, aloqa va kommunikatsiyaning yangi vositalari tezlashdi, bank xizmatlar turining sifati oshirilmoqda. Bankomatlar, plastik kartochkalar zamonaviy bank tizimining oddiy vositasi bo'lib qolganligini kuzatishimiz mumkin.

Bankning barqarorligiga ta'sir qiluvchi *iqtisodiy omillar* guruhi eng muhim omillar guruhidan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, bankning ahvoli kapitalning etarililigi, aktivlar va passivlar sifati, foydalilik va likvidlilik darajasi bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Bu omillar bank faoliyatining barcha tomonlarini izohlab beradi va uning barqarorligining umumiy mezonini sifatida xizmat ko'rsatadi.

O'z-o'zini nazorat qilish savollari

- 1. Kredit tizimining mohiyati nima va uni izohlashda qanday belgilardan foydalanish mumkin?*
- 2. Kredit tizimining tarkibi va elementlarini izohlashda qanday belgilardan foydalanish mumkin?*
- 3. Kreditlashni tashkil qilish prinsiplari qaysi jarayonlar bilan o'zaro bog'liq?*
- 4. Kredit tizimining turlari qaysi belgilar bilan ifodalanadi?*
- 5. Kredit tizimining barqarorligiga qaysi omillar ta'sir qiladi?*
- 6. Kredit tizimining davlat tomonidan muvofiqlashtirib turilishi zaruriyati nimadan iborat ?*
- 7. Kredit tizimining qaysi jihatlari davlat nazorati ostida bo'ladi?*
- 8. Mayda va yirik banklar tarkiban bir-biridan qaysi belgilar bilan farqlanadi?*

O L T I N C H I B O B

KREDITNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

6.1. Kreditning iqtisodiyotning real sektori korxonalarining joriy va investitsion xarajatlarini moliyalashtirishdagi roli

Korxonalarning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishda *kreditning roli* uni amaliyotga joriy etish usullarining xususiyatlari hamda erishilgan samarali yutuqlar bilan belgilanadi. Kreditlardan amaliyotda foydalanish bilan bir qatorda ular ustama haq bilan birgalikda egasiga to'liq qaytarilishi taqozo etiladi. Bu holat kredit operatsiyalari ishtirokchilarining qarz mablag'larini olishi va ulardan maqsadli foydalanish jarayonlarida javobgarlikni tobora oshiradi.

Ma'lumki, banklarga jalb qilingan mablag'lar hajmi, ularning muddatida banklarga qaytarilishi iqtisodiyotdagi real sektor korxonalarining manfaatdorligi bilan belgilanadi. Kredit munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari ob'ektlarni byudjet mablag'lari orqali moliyalashtirish jarayonida ko'zga tashlanadi. Byudjet mablag'lari orqali moliyalashtirilgan summaning miqdori kamayganda shaxslar uchun moddiy manfaatdorlik yo'qoladi, ya'ni foydalanish uchun olingan mablag'lar byudjetga qaytarib berilmaydi yoki ulardan tekin berilishi sharti asosida foydalaniladi. Ta'kidlash joizki, moliyaviy resurslarning qaytaruvchanlik, muddatlilik va to'lovlilik shartlari kreditning rolini oshirishiga imkon yaratadi.

Kreditdan korxonalarning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi va u rang-barang shaklga ega. Kreditning roli korxonalarning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish natijasida mahsulotlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarida, shuningdek pul aylanmasida namoyon bo'ladi va ularga o'zaro ta'sir ko'rsatadi.

Bank krediti, iste'mol krediti, ipoteka krediti va sinditsiyalashtirilgan kredit kabi kreditning turlari orqali korxonaning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish jarayonlarida paydo bo'ladigan kredit munosabatlarini erishilgan yutuqlarda kuzatish mumkin. Bu holatda kredit rolining namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Kreditning ta'siri bo'yicha etakchi o'rinni kredit munosabatlarining muayyan bir

turi egallaydi. Tovarlarini sotish jarayonida asosiy rolni tijorat krediti egallasa, qarzg'a berilgan mablag'larda bank krediti egallaydi.

Ma'lumki, kredit munosabatlari tizimida kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun jalb qilingan mablag'lar muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo bu faoliyat kredit munosabatlari ichida bir xil emas. Masalan, tijorat kreditini amaliyotga joriy etishda kreditor tomonidan mablag'larni jalb qilishiga zaruriyat yo'q; qarz mablag'larini sotilgan tovarlar ko'rinishida kreditga berish uchun kreditor o'z mablag'laridan foydalanadi. Kreditor o'z mablag'lari qo'yilmasining o'rmini to'ldirish uchun bank kreditini (vekselni hisobga olish, vekselni garovga qo'ygan holdagi ssudalar) jalb qilishni o'zida istisno etmaydi. Tijorat kreditini mijozlarga berishda dastlab jalb qilingan mablag'larni mo'ljallashi shart emas va, aksincha, bank kreditlash jarayonida jalb qilingan mablag'alardan ko'proq foydalanishni istaydi. Banklarning bu faoliyati korxonalarining investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo qarz mablag'larini berishda ular uchun tovarlarini sotib olishiga imkoniyat tug'iladi. Bank kreditida moddiy resurslarning qayta taqsimlanishi korxonaning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishda kuzatiladi va uning natijasi moddiy resurslarni xo'jalikda qayta taqsimlashning ahamiyati bilan belgilanadi.

Ahamiyatiga ko'ra, bu natijalar ko'proq tijorat kreditidan korxonaning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishda foydalanishga olib keladi, xususan, moddiy resurslarning qayta taqsimlanishi mol etkazib beruvchilardan xaridorlarga o'tkazilgan paytning o'zida kuzatiladi.

Moddiy resurslarning qayta taqsimlanishi ko'chmas mulklarni garovga olgan holda davlat, iste'mol va ipoteka kabi kredit turlaridan foydalanish korxonaning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishga imkon beradi. Bularning barchasi moddiy resurslarni taqsimlash hamda korxonaning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish davrida kredit ishtirokining muhimligi to'g'risidagi axborotni beradi. Ammo bu holat kredit munosabatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va resurslardan maqsadli foydalanishga erishiladi. Kreditning roli aynan korxonaning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish, mahsulotlarni ishlab chiqarish va

ayirboshlash jarayonining uzluksizligiga ta'sir ko'rsatish paytida namoyon bo'ladi. Korxonada joriy pul mablag'larining kirimi va sarflarning tizimli nomutanosibligi, tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilishda vaqtinchalik pul mablag'larining etarli darajada bo'lmaslik holatlari korxonaning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish, mahsulotlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonlari uzluksizligining buzilishiga olib keladi. Pul mablag'lariga bo'lgan vaqtinchalik talabni ta'minlash qarz oluvchilardagi mablag'larning kirimi va chiqimi doimiy uzluksizlik bilan ta'minlangan bo'lishni taqozo etadi. Mablag'larning uzluksizligi va aylanish tezlanuvchanligi takror ishlab chiqarish jarayonlarini mustahkamlashga olib keladi.

Bu natijalar kredit shakllaridan korxonaning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishda foydalanishni, jumladan tijorat krediti yordamida qarz oluvchi tomonidan korxonaning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish, moddiy resurslarni xarid qilish, mahsulotlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash kabi jarayonlarni taqozo etadi. Bank krediti korxonalarning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish, mahsulotlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash kabi jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin yohud talab qilingan moddiy resurslarni xarid qilishga yoki ular bilan bog'liq to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishga imkon berishi mumkin.

Ssuda berish orqali qarz oluvchilarning talabini ta'minlashda o'zaro ishonch muhim vosita sifatida asosiy rol o'ynaydi. Ishonch ssuda qarzдорligini o'z vaqtida qoplashga imkon beradi. Ortiqcha zahiralarining mavjudligi kreditdan foydalanishni inkor etishi yoki doiraviy aylanish aylanuvchanligining sekinlashuviga zamin yaratishi mumkin.

Kredit korxonalarning faoliyatini modernizatsiya qilish, rekonstruksiya qilish, ishlab chiqarish quvvatini oshirish, faoliyatni kengaytirish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga zamin yaratadi.

Yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar uchun esa investitsion xarajatlarni moliyalashtirish, aksioner kapitalidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki yangi tashkil etilgan korxonalar uchun bank kreditidan foydanish

yuqori risklar bilan bog'liq bo'lib, kredit olishda korxona uni qaytarish uchun etarli darajada moliyaviy resurslar yoki boshqa aktivlar bilan ta'minlanmagan bo'lishi mumkin, bunday shartlarni yangi korxona yoki tashkilotlar tomonidan bajarilmasligi ularni aksionerlik kapitalidan foydalanishga majbur etadi. To'lov qobiliyati va likvidlilik darajasi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarda yangi korxonalar qiyin vaziyatga tushib qolishi mumkin. Xarajatlar ijobiy baholanganda yoki texnik asoslanganda ham banklar yuqori foizli stavkasida kreditlar berishi mumkin. Aksionerlik kapitali bunday muammolarni keltirib chiqarmaydi, ammo kapitalni to'plash ancha murakkab vazifadir, bundan bank kreditlari mustasno.

Investitsion xarajatlarni kreditlash shartida foiz stavkasining o'zgarishi bilan iqtisodiy ko'rsatkichlarlarining o'zgarishi o'rtasidagi munosabatlar ko'zga tashlanib qoladi. Ma'lumki, foiz stavkasi o'zgarmas va o'zgaruvchan ko'rinishda bo'lishi mumkin. SHu sababli korxona investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida uzoq muddatli kredit olmoqchi bo'lsa, u holda korxona o'zgarmas foizli stavkasidagi kreditlardan foydalanadi.

Ijobiy asoslangan xarajatlar uchun qarz mablag'larini olish bir muncha osonroq. Investitsiya xarajatlarni moliyalashtirishda dastlab qarz mablag'larining hajmini aniqlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki u olinadigan kreditlarni kafolatlashi mumkin.

Ssuda kapitalini asbob-uskunalarini xarid qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish kabi maqsadlar uchun yo'naltirish mumkin. Ssuda kapitalining tarkibi aylanma mablag'larni to'ldirish, tijorat krediti, bank krediti yoki boshqa shakldagi kreditlar qisqa va uzoq muddatli ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Investitsiyalarni moliyalashtirishning manbalarida kredit rolining oshishi chet el kreditlarini jalb qilish orqali ko'paytirish hisobidan yuzaga kelishi mumkin. CHet el kreditlari salmog'ining yuqori darajadaligi ular bo'yicha davlat kafolatlarining mavjudligi yoki tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari nobarqaror ekanligi bilan izohlanadi. Hukumat kafolatlari orqali olinayotgan chet el kreditlari hissasining ko'payishi ehtiyotkorlik bilan valyuta kreditlarining

qaytarilmaslik risklarini hisobga olishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, investitsiya loyihalarini tahlil qilish, ularni ekspertizadan o'tkazish, investitsiya qarorlarini qabul qilish, xalqaro moliya institutlari va chet ellik investorlarning qarz mablag'laridan foydalanishda banklar mas'uliyatini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Moliyalashtirish manbalari ularni belgilangan muddatlarda qaytarishlik, ta'minlanganlik va to'lovlilik shartlari asosida maqsadli yo'naltiriladi.

Kreditlar foydalanish muddatiga ko'ra qisqa muddatli (1 yilgacha) va uzoq muddatli (1 yildan yuqori)ga bo'linadi. Korxonaning asosiy fondlarini shakllantirish maqsadida olinadigan uzoq muddatli kreditlar odatda investitsiyalar deb yuritiladi. Uzoq muddatli kreditlarning ob'ektiv zarurligi korxonaning ishlab chiqarishni kengaytirishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Kapital qo'yimlarni moliyalashtirishga nisbatan kredit usulining afzallik tomonlari pul mablag'larining belgilangan muddatda qaytarilishi bilan bevosita bog'liq. Kapital qo'yimlarning o'z vaqtida qoplanishi, kreditning o'z vaqtida qaytarilishi bo'yicha nazorat mablag'lardan foydalanishning samaradorligini oshiradi.

Hozirgi kunda tijorat banklari uzoq muddatli kreditlash jarayonini ichki kredit siyosatidan kelib chiqqan holda mustaqil belgilab amalga oshirmoqda. Uzoq muddatli kreditlar – bu ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlantirish maqsadlari uchun mo'ljallangan ob'ektlar, qurilishni tashkil etish, rekonstruksiya qilish, texnik qayta jihozlash bilan bog'liq bo'lgan harajatlar uchun kapital qo'yimlarni moliyalashtirish, yangi texnika, texnologiya va uskunalarni harid qilish, ko'p yillik o'simliklarni shakllantirish kabi investitsiyalar uchun mo'ljallangan kreditlar bo'lib hisoblanadi. Uzoq muddatli kreditning qoplash muddati bir yildan ortiq muddatga beriladigan ssudadir. Uzoq muddatli kreditlar bilan yuridik va jismoniy shaxslar, xususiy tadbirkorlar, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaliklari ham foydalanishlari mumkin.

Ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash uchun qo'yilgan quyidagi talablar taqozo etiladi:

- ular amaldagi tartibga muvofiq ekspertiza qilingan va tasdiqlangan,

loyiha-smeta hujjatlari asosida tasdiqlagan bo'lishi;

- qurilish, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar Davlat arxitektura qurilish qo'mitasining nazorati yoki mahalliy inspeksiyaning yozma ruxsatnomasi bo'lishi;
- texnologik uskunalar va xom ashyolar bo'yicha shartnomalar bilan ta'minlangan bo'lishi;
- davlat ekologiya ekspertizasining xulosasi bo'lishi;
- shartnoma bahosi qaydnomasining bo'lishi;
- qurilish ob'ekti uchun ajratilgan hududiy shartnomaning bo'lishi;
- inflyasiya jarayonlarini hisobga olgan holda pudrat ishlari bo'yicha kontraktlarning bo'lishi.

Bank kredit resurslari yoki qarz mablag'laridan samarali foydalanish uchun qarz oluvchilar bilan iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi hamda kredit samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni o'zi mustaqil hal etadi.

Uzoq muddatli kreditlar ta'minoti quyidagilar hisoblanadi: hukumat kafolati; mol-mulk garovi; bank, kredit muassasalari va sug'urta tashkilotlarining kafolati; uchinchi shaxs kafilligi; qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalari tomonidan berilgan sug'urta polisi.

Qarz oluvchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart: belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihaning texnik iqtisodiy asosnomasi va loyiha smeta hujjatlari; qurilish qiymati bo'yicha yig'ma moliyaviy smeta hisob-kitoblari; qurilishning belgilangan tartibda tasdiqlangan manzilli dasturi; qurilish davriga mo'ljallangan pudrat shartnomalari; texnik uskunalarni etkazib berish uchun kontrak loyihalari; Davarxitektqurilish qo'mitasi nazorat ekspertizasi bilan loyiha xujjatlariga doir davlat ekologik ekspertizasi xulosalari; yuridik shaxslarning moliyaviy hisoboti; zaruriyat tug'ilganda bank investitsiya loyihasi bo'yicha boshqa hujjatlarni talab qilishi mumkin.

Kreditlanayotgan loyihaning kompleks ekspertizasi qarz oluvchi tomonidan takdim etilgan quyidagi ma'lumotlar tahliliga asoslanadi:

- loyihada foydalaniladigan asbob-uskunalar, yangi texnologiyalar va texniklarning tavsiflarni o'rganish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, raqobatchilar va loyiha mahsulotining harakatlanish omillarini tahlil qilish;
- ekspertizani o'tkazish, loyihani tadbiq etish, pul mablag'larining oqimini loyihalashtirish va ularning iqtisodiy jihatdan muvofiqliligini aniqlash;
- risklarni baholash va loyihaga ta'sir etuvchi risklarni pasaytirish omillarini aniqlash;
- bino va inshootlar, asbob-uskunalar va boshqa ob'ektlar qiymatini baholash va tahlil qilish;
- kapital harajatlari qiymatining oshishini shartnoma narxlari bo'yicha to'g'ri baholash;
- asbob-uskunalarining etkazib berilishi va ularning montaj qilinishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni aniqlash;
- loyihaning o'zini-o'zi qoplashiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

Ipoteka krediti korxonalarining investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishda, xususan, investitsiya faoliyatining muhim elementi bo'lib hisoblanadi. Qarzdorning to'lovga layoqatsizligi holatida garovni ro'yhatdagi navbat ketma-ketligi bo'yicha mulklarni sotishdan tushgan tushum hisobidan kreditorlarning talabini ta'minlash mumkin. Garov predmeti mulkiy xuquqlar yoki talablar ham bo'lishi mumkin, chunki amaliyotda uy-joylarni garov ob'ekti sifatida olish mumkin emas.

G'arbiy Evropada uy-joylar bo'yicha ipoteka kreditlari keng tus olgan. Ular AQSHda ko'chmas mulk ostidagi ssudalar umumiy hajmining 60%idan ortiq miqdorini tashkil qiladi. Ipoteka kreditlari uzoq (qariyb 10 yildan 30 yilgacha) muddatga beriladi. Ipoteka kreditini olishda «garov xati» bilan maxsus kredit bitimi ham tuziladi. «Garov xati»ning ikkilamchi vazifasi kreditlash uchun doimiy resurslar, shuningdek, kredit resurslariga ehtiyoj seziladigan hududlarga va tarmoqlarga pul mablag'lari yo'naltiriladi. Ipoteka kreditlari past darajadagi riskli

bank operatsiyalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu riskning katta qismi qarzдорlar bilan investorlarning zimmasiga yuklanadi.

Korxonalarning investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishda *sinditsiyalashtirilgan kredit* ishtirokchi banklarning loyiha - smetalar va boshqa hujjatlarning nusxalarini etakchi bankka taqdim etishlari, ularni amaliyotga joriy etish usullari va erishilgan samarali natijalar bilan belgilanadi. Ishtirokchi banklar bilan qarz oluvchilar o'rtasida kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng qarz oluvchi uchun ularning xizmat ko'rsatuvchi bankida belgilangan tartibda alohida ssuda hisobvaraqlari ochiladi, to'lovlar ssuda hisobvarag'idan naqd pulsiz shaklda o'tkazib beriladi.

Sinditsiyalashtirilgan kredit summasi ishtirokchi banklar balansida aks ettirilgan kredit miqdoriga ekvivalent ulushida ifodalanadi. Ularning qaytarilish muddati pul oqimining kelib tushishi istiqboliga qarab bir necha bosqichda qoplanishini ko'zda tutuvchi jadval taqdim etiladi.

Etakchi bank tomonidan qarz oluvchining moliyaviy ahvoli, berilgan kreditdan maqsadli foydalanganligi, qo'yilgan garov yoki kafil vositalarining moliyaviy holati bo'yicha kreditdan foydalanish muddati bo'yicha monitoring olib beradi. Ushbu monitoring ishtirokchi banklarning talabi asosida kredit shartnomasida belgilangan tartibda ishtirokchi banklar tomonidan mustaqil amalga oshirilishi mumkin.

6.2. Kreditning qurilish industriyasini rivojlantirishdagi roli

Kredit rolining samaradorligini qurilish industriyasida ham kuzatish mumkin. Qurilish industriyasi moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Hozir qurilish industriyaning oldiga investitsiya dasturlarini bajarish bilan bog'liq muhim vazifalar qo'yilgan. Bundagi birinchi navbatdagi vazifalar kapital qo'yilmalarining samaradorligini oshirish, qurilayotgan ob'ektdagi qurilishning davomiyligini qisqartirish, qurilish ob'ektining qiymatini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, qurilish sifatini yaxshilash kabi masalalar tashkil etadi. Kapital qo'yilmalaridan foydalanish sanoat, qishloq xo'jaligi, transport kabi tarmoqlarga belgilangan vazifalarning echimlari bilan o'zaro bog'liq. Kapital

qo'yilmalar ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholining madaniy-maishiy talablarini ta'minlashga mo'ljallangan asosiy fondlarni shakllantirish va yangilash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning yig'indisini tashkil etadi.

Ma'lumki, *kreditning roli qurilish industriyasida ishlab chiqarishni kengaytirishda* o'zining asosiy dastaklaridan biri ekanligi bilan belgilanadi. Qarz mablag'lari qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni kengaytirish maqsadida talab qilinadigan zahiralar hajmini ko'paytirish, xarajatlarni qoplash uchun qisqa muddatli kreditlar beriladi. SHu bilan birga, kreditlar pul mablag'lari manbai sifatida qurilish industriyasida binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar, mashina va asbob-uskunalarni sotib olish kabi boshqa turdagi asosiy fondlarni ko'paytirish uchun foydalanish maqsadida beriladi. Bu holat qurilish mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, qurilish tashkilotlarining yangi asosiy fondlarini kengaytirishda qurilish industriyasining imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Kreditni asosiy fondlarni kengaytirish manbai sifatida qurilish industriyasiga qaytarmaslik sharti asosida pul mablag'lari manbai hisobidan foydalanishga berish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, byudjetning moliyalashtirish hisobidan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va kreditlash maqsadida belgilangan talablarga ko'ra foydalanishga berish mumkin. Kreditlarni kapital qo'yilmalarga mablag'lar manbai sifatida safarbar qilingan mablag'larning sarfini nazoratdan o'tkazish eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Moddiy resurslarni taqsimlash kredit ishtirokchilarining ahamiyati to'g'risidagi axborotlarni beradi. Ushbu holat kredit munosabatlarining paydo bo'lishiga va moddiy resurslardan maqsadli foydalanishga erishishga olib kelishi mumkin. *Qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonining uzluksizligiga ta'sir ko'rsatishda kredit juda katta rol o'ynaydi.* Korxonada joriy pul mablag'larining kirimi va chiqimining tizimli nomutanosibligi, tovar-moddiy qiymatliklarni sotib olishda vaqtinchalik pul mablag'larining etarli emasligi kabi sabablar qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi va ayirboshlashdagi uzluksizlikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Pul mablag'lariga bo'lgan vaqtinchalik talabni ta'minlash uchun qarz oluvchilar mablag'larning kirimi va

ularning chiqimi uzluksiz tarzdagi takroriy aylanish ko‘rinishida bo‘lishi lozim. Mablag‘larning uzluksizligi va aylanmalarning tezlanuvchanligi qurilish mahsulotlarini takror ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga olib keladi.

Ushbu jarayonlarning barchasi kredit shakllaridan foydalanishni taqozo etadi, jumladan tijorat krediti yordamida qarz oluvchi moddiy resurslarni xarid qilishi, qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishi va ayirboshlash jarayonlarini bajarishi mumkin. Bank krediti qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi yohud talab qilingan moddiy resurslarni xarid qilishi yoki ular bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Kredit qurilish mahsulotlarining muayyan turini ishlab chiqarish va ayirboshlashni amalga oshirishdagi vaqtinchalik mablag‘larga bo‘lgan talabni ta’minlashda katta rol o‘ynaydi. Bunda qarz mablag‘lari mavsumiy zahiralar bilan mavsumiy xarajatlarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi. Kredit nafaqat korxona va tashkilotlar ish faoliyatining yuritilishiga imkoniyta yaratadi, undan resurslardan tejamli foydalanish uchun o‘zining pul mablag‘lari hajmida zahiralarining kamaytirilgan tarzda foydalaniladi.

Davlat krediti asosan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan byudjet xarajatlarni qoplash maqsadida ishlatiladi. Qarz mablag‘lari bu talabni ta’minlash uchun g‘azna majburiyatlarini amalga oshirishdan tushgan tushum ko‘rinishida yoki obligatsiya, ayrim holatlarda bank krediti yoki xalqaro kredit shaklida kelib tushishi mumkin. Bu mablag‘lar orqali byudjet xarajatlarini ta’minlash, jumladan byudjet defitsitini qoplash uchun imkoniyat yaratiladi. Bu kabi maqsadlar uchun qarz mablag‘laridan foydalanish resurslarning tejamli ishlatilishini cheklaydi, ayniqsa korxonalar qarzdor bo‘lgan paytida olingan qarz mablag‘lari aynan qoplangan bo‘lishni taqozo etadi.

Ipoteka kreditining roli ko‘chmas mulklarni garovga qo‘ygan holda qarz berish jarayonida namoyon bo‘ladi. Ipoteka krediti turar-joylarni qurish, rekonstruksiya qilish yoki turar-joyni sotib olishga qurilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan va sotib olinayotgan uy-joyni u joylashgan er uchastkasi bilan

birgalikda garovga olgan holda beriladigan maqsadli kreditdir. Ipoteka kreditidan qurilish industriyasida iste'mol ehtiyojlari, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlarini kengaytirishga bo'lgan talabni ta'minlash maqsadida foydalanish mumkin. Ipoteka krediti kreditlashning qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadli foydalanish shartlari asosida inson oila a'zolarining yashashiga mo'ljallangan shinam uy-joy qurilishi, ko'p qavatli uylardagi kvartiralarini mukammal ta'mirlash hamda yakka tartibda qurilgan uylarni rekonstruksiya qilish (qayta qurish), ko'p qavatli uylardagi kvartiralarini ta'mirlash hamda yakka tartibda qurilgan uylarni sotib olishda ham muhim rol o'ynaydi.

Modomiki, qarz mablag'larini qaytarish jarayoni bo'sh turgan pul mablag'larining manbai bilan o'zaro bog'liq emas. Kredit shakllarini amaliyotga joriy etishning o'z o'rnini bor. Ko'pincha qarz mablag'larini qaytarishning manbai sifatida qarz oluvchilarning daromadlari xizmat qiladi. Bu o'z navbatida tugallangan uy-joylar va tugallangan qurilish ob'ektlarining ayirboshlanishi bilan o'zaro bog'liq.

Ipoteka kreditidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga garovga qo'yilgan ko'chmas mulklarni asoslangan tarzda baholash va ularni ayirboshlashning real imkoniyatini aniqlashga bo'lgan zaruriyatning mavjudligi sabab bo'ladi. Bu kabi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi garovga qo'yilgan ko'chmas mulklar asosida berilgan ssudalarni qaytarishga va kreditning ehtimoliy yo'qotishlarining oldini olishga qaratilgan ishonchni yuzaga keltiradi.

Qurilish industriyasida qurilish-montaj ishlarining asosiy qismi (90%dan ortig'i) pudart usuli yordamida amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turlicha mulk shakliga asoslangan pudart qurilish tashkilotlari (firma, ma'suliyati cheklangan jamiyat va boshqalar) faoliyat ko'rsatmoqda. Kapital qo'yilmalarining samaradorligini oshirishda iqtisodiy rag'batlantirish tizimini samarali boshqarish talab etiladi.

Korxonalarning aylanma mablag'larini to'ldirishda ham *kredit asosiy rol* o'ynaydi va o'z navbatida, aylanma mablag'lar ham qurilish-montaj ishlarini

bajarish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Aylanma mablag'lar tarkibiga ishlab chiqarish zahirolari (xom ashyo va materiallar, konstruksiya va detallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'ilar, ehtiyot qismlar va boshqalar), qurilishda ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash, tugallanmagan qurilish, asbob-uskunalarni o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan mablag'lar va boshqa aktivlar kiradi.

Qurilish tashkilotlarida qurilish ishlarining bajarilishi yangi sifatga o'tishi munosabati bilan ularning aylanma mablag'lar tarkibida qator o'zgarishlarning bo'lishiga olib keldi. Bozor islohatlarining amalga oshirilishiga qadar qurilish tashkilotlarida aylanma mablag'larning asosiy qismi ishlab chiqarish zahiralarini shakllantirish maqsadida foydalanilar edi. Yangi islohatlar sharoitida aylanma mablag'larning umumiy summasida tugallanmagan qurilish qiymatining salmog'i oshib borayotganini kuzatish mumkin. Qurilish ishlarida aylanma mablag'larning tarkibida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari ko'payib bormoqda. Bunda tayyor mahsulotlarni buyurtmachiga topshirgunga qadar tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari qurilish tashkilotlarining balansi moddalarida aks ettirilib boradi.

Qurilish tashkilotlarida aylanma mablag'larning doiraviy aylanishini bank kreditidan foydalanishda kuzatish mumkin. Ma'lumki, doiraviy aylanishning birinchi fazasida aylanma mablag'lar o'z navbatida pul shaklidan tovar shakliga o'tadi. Aynan bu paytning o'zida ko'pgina qurilish tashkilotlarida bank kreditiga talab paydo bo'ladi. Bu talab asosan xom ashyo va materiallar, konstruksiya va detallar, yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'ilar, ehtiyot qismlar va boshqa qurilish mahsulot turlarini ishlab chiqaradigan qurilish tashkilotlarida yuzaga keladi. Ma'lumki, qurilish mahsulotlari turini ishlab chiqaruvchi tashkilotlar minimal zahiralarini shakllantirish maqsadida o'zlarida etarli darajadagi aylanma mablag'lariga ega bo'lishi lozim. Shu sababli qurilish mahsulotlari kredit mablag'isiz oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishi mumkin emas. Demak, qurilish industriyasida kreditning roli unda erishilgan natijalar va joriy etilgan usullar bilan belgilanar ekan.

Kreditning qaytarilish tamoyili asosida qurilish tashkilotlariga kreditlar ajratiladi va ular ko'p karrali mablag'larning doiraviy aylanishini amalga oshiradi. Bu esa kredit operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan ishtirokchilarning manfaatdorligini oshirishga va uni kuchaytirishga olib keladi. Demak, banklar tomonidan qurilish tashkilotlariga kredit berish va ulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar ekan.

Qurilish tashkilotlarida aylanma mablag'larning doiraviy aylanishi notekis aylanma harakati bilan xarakterlanadi. Qachonki, qurilish tashkilotlarida notekis aylanma harakati yuzaga kelganda yillar davomida ishlab chiqarish jarayoniga industrial usulni joriy etish orqali aylanma mablag'larning doiraviy aylanishi harakati asta-sekinlik bilan tekis aylanma harakat ko'rinishiga keltiriladi.

Qurilish tashkilotlarida pul mablag'lari hajmining yuqori darajadagi tebranishli harakatining paydo bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin: yil davomida qurilish ishlari uchun pul mablag'larining noteks taqsimlanishi, qurilishni kompleks ishga tushirish uchun materiallarning kelib tushishi, qurilish materiallarining alohida turining mavsumiyligi yoki notekisligi. Ta'kidlangan m'lumotlar bo'yicha qurilish - montaj tashkilotlari aylanma mablag'larining harakatini shakllantirish uchun bank kreditining ishtiroki zarur bo'ladi. Qurilish tashkilotlarida aylanma mablag'lar harakatining shakllanish manbaining umumiy summasida kreditor qarzdorlikning yuqori darajadagi salmoqqa ega ekanligi tez-tez uchrab turadi.

Hukumat tomonidan qurilish industriyasi uchun beriladigan kreditlardan foydalanish vazifasi tijorat banklariga yuklatilgan. Buning uchun tijorat banklari mustaqil balansga ega va aylanma mablag'lari harakati mavjud bo'lgan bosh pudratchi, subpudratchi va shu kabi boshqa qurilish tashkilotlariga maqsadli kreditlar ajratadi. Ularga aylanma mablag'larni to'ldirish, qurilish konstruksiyasi va detallar zahirolari, mehnat haqi va shu kabi boshqa maqsadlar uchun kreditlar beriladi.

6.3. Kreditning eksport-import operatsiyalarini rivojlantirishdagi roli

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida eksport-import

operatsiyalarini rivojlantirishni davlat tomonidan qullab-quvvatlash va tartibga solish iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy omillaridan bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati eksport-import hajmini to'xtovsiz oshirib borishga imkoniyat yaratadi. Bu boradagi tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri – eksport-import qilinadigan mahsulotlar va xizmatlarning tarkibi bo'lib hisoblanadi.

Eksport-import operatsiyalarini rivojlantirish masalasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishlab chiqarishni rivojlantirish va investitsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport-import dasturlarini amalga oshirish, valyuta daromadlarining tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish va pirovard natijada, o'z oldimizga qo'yilgan yuksak maqsadlarimizga erishishimiz mumkin emas.

Ma'lumki, eksport-import operatsiyalarini rivojlantirish uchun tadbirkorlardan tashqi bozorlarni o'rganish, chet ellik sheriklarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlar, ruxsat berishga oid hujjatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruvlari kerak bo'ladi. Odatda, eksport deganda tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar va texnologiyalarni tashqi bozorga chiqarish majmui tushuniladi. Tovarlarni bir mamlakat orqali olib o'tish (tranzit) va bir mamlakatdan olib kelingan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish uchun chiqarish jarayoni eksport tarkibiga kiradi.

Eksport-import operatsiyalarini rivojlantirish va ularning ko'lamini kengaytirishda *xalqaro kreditning rolini* erishilgan yutuqlarda kuzatish mumkin. Ulardan foydalanish turlicha rang-baranglikka ega. Kreditning roli pul aylanmasi ko'rinishida shakllanadi va ularga ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro kredit eksport-import operatsiyalari munosabatlari jarayonida tovar va valyuta resurslarini qaytarishlik,

muddatlilik hamda foiz to'lash shartlari asosida taqdim etish bilan bog'liq bo'lgan ssuda kapitalining harakatidir.

Xalqaro kredit kapitalistik ishlab chiqarish usulining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va kapitalni dastlabki jamg'arib borishning dastaklaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarishning milliy chegaralardan tashqariga chiqishi, xo'jalik aloqalari baynalmilallashuvining kuchayishi, kapitalning xalqaro jihatdan ijtimoiylashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi kapital rivojlanishining ob'ktiv asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mablag'larning davriy aylanishi jarayonida vaqtinchalik bo'sh turgan pul shaklidagi kapitalning muayyan qismi hamda banklarga jalb qilingan davlat va xususiy sektorlarning pul jamg'armalari xalqaro kreditning manbalari bo'lib sanaladi.

Takror ishlab chiqarish jarayonida xalqaro kreditga bo'lgan ob'ktiv zaruratlar yuzaga keladi. Bu zaruriyat mablag'larning doiraviy aylanishi, mahsulot ishlab chiqarish va uni ayirboshlash xususiyatlari, tashqi iqtisodiy bitimlar hajmi va muddatidagi farqlar, ishlab chiqarishni kengaytirishga mo'ljallangan kapital qo'yilmalarni yo'naltirish bilan o'zaro bog'liq.

Xalqaro kredit o'zining funksiyalarining bajarilishiga ko'ra ijobiy yoki salbiy rolni o'ynaydi. Uning ijobiy roli eksport-import operatsiyalarini rivojlantirish, takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash orqali ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining tezlashuvida o'z aksini topadi. Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarga va pirovard natijada takror ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi bo'g'inni ta'minlash mexanizmi rolini bajaradi. Ishlab chiqarish o'sishining mahsuli bo'lgan xalqaro kredit bir vaqtning o'zida uning zaruriylik sharti va katalizatori bo'lib hisoblanadi. U jahon bozorining shakllanishi va rivojlanishiga ko'maklashadi.

Kreditor mamlakatlardan olingan foydasini boshqa qarzidor bo'lgan mamlakatlarga o'tkazib beradi. Ssuda foizlari va ularning qaytimi qarzidor mamlakatlarda jamg'armalarning manbalari shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro kredit qarzdor mamlakatlar uchun iqtisodiy va siyosiy rejimning shakllanishi hamda uning mustahkamlanishiga ko'maklashadi.

Firma (tijorat) krediti odatda bir mamlakat eksportyori tomonidan boshqa mamlakat importyoriga to'lovni kechiktirish shaklida taqdim etiladigan ssudadir. Tashqi savdodagi tijorat krediti tovar operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar orqali amalga oshiriladi. Firma kreditlarining muddatlari turlicha bo'lib, u jahon bozoridagi kon'yunktura shartlari, tovarning turlari va boshqa omillar bilan belgilanadi. Firma krediti odatda veksel orqali rasmiylashtiriladi yoki ochiq hisobvaraqlar bo'yicha o'tkazib beriladi.

Ochiq hisobvaraq bo'yicha kredit eksportyor va importyorlar o'rtasidagi kelishuv yo'li bilan amalga oshiriladi. Mazkur kelishuvga asosan tovarlarni etkazib beruvchi sotilgan tovarlar qiymatini sotib olgan shaxs hisobvarag'ida qarzdorlik yozuvi shaklida amalga oshiradi, importyor esa olingan kreditni muddatida so'ndirish to'g'risidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Ochiq hisobvaraq bo'yicha kredit tovarlarning muntazam etkazib berilishi, majburiyatlarning esa oyning o'rtasi yoki oxirida davriy ravishda so'ndirilib borilishi shartida amalga oshiriladi.

Firma krediti sotuvchi bilan sotib oluvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalasa-da, u odatda bank krediti bilan birgalikda harakatda bo'ladi. Mashina va jihozlar sotuvida firma krediti uzoq muddatga mo'ljallab beriladi. Bu esa eksportyorning yirik hajmdagi mablag'larining ichki muomalasidan tashqi muomalaga chiqib ketishiga olib keladi. SHu sababli eksportyor odatda bank kreditiga murojaat qiladi yoki banklarda o'zining kreditini qayta moliyalashtiradi.

Bank krediti eksport-import operatsiyalari bilan o'zaro chambarchas bog'liq. So'nggi o'n yillikda bank kreditining roli tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bank krediti tovarlar, tovarayirboshlash va to'lov hujjatlari, veksellarni akseptlash va hisobga olish hamda boshqa garov shakllarini ta'minotga olgan holda beriladi. Xorijiy banklarda eksport-import operatsiyalari hisob-kitoblari bilan bog'liq kompleks xizmatlar, ularni garov bilan ta'minlash orqali kreditlash jarayoni *savdoni moliyalashtirish*

deb nomlanadi. Kreditlash jarayoni eksport va import ko‘rinishdagi kreditlarga bo‘linadi.

Eksport krediti - bu mashina va asbob-uskunalarni kreditlash maqsadida eksporter mamlakatning banki tomonidan importer mamlakatning bankiga berib turiladigan kredit bo‘lib hisoblanadi. Bank krediti pul shaklida beriladi va u majburiylik xarakteriga ega. Qarz oluvchi ssudani kreditor mamlakatdan istino tariqasida foydalanish maqsadida ishlatish uchun olishi lozim.

1960 yildan boshlab mashina va asbob-uskunalarni kreditlash shakli sifatida xaridorlar krediti shakllandi. Bu holatda kredit eksporter mamlakatning banki tomonidan bevosita milliy eksporterlarga emas, balki imorter mamlakatning banki va firmalariga ajratildi. Bu kreditlarni kreditor mamlakatdan u yoki bu tovarlarni sotib olishga mo‘ljallangan o‘rta va uzoq muddatli kreditlar deb tushunmoq maqsadga muvofiq. Sanoat yoki fuqarolik qurilishi, asbob-uskunalarni montaj qilish va sozlash ob‘ekti bo‘yicha faqat bir martalik tuziladigan kontraktlar, kredit liniyalari bo‘yicha kredit shakllari joriy qilinmoqda. Ayrim holatlarda banklar yirik eksportyor firmalarga rasmiy ta‘minotga ega bo‘lmagan *blankali kreditni* taqdim etadilar.

Kreditlashda *akseptli krediti* keng miqyosda tarqalgan kreditlardan biri hisoblanadi. Bu eksporterga muayyan miqdordagi veksellarni bankka taklif qilish imkoniyatini beradi. So‘ngra bu veksellar akseptlanadi va qarz oluvchi ularni belgilangan muddatda to‘lashga kafolat beradi. Odatda ekaporterning xoxishiga ko‘ra bank veksellari hisobga olinadi, ya‘ni ularning foiz summasida farqi nominal qiymatda xarid qilinadi. Yirik banklarning akseptlangan veksellari tashqi savdoni kreditlashning muhim vositasi sifatida shakllanib boradi. Bank akseptlarining yirik bozorlari Nyu-Yorkda va Londonda joylashgan. Akseptli kredit hisob-kitoblarning akkreditiv shakliga mos keladi va turli konkret ko‘rinishga ega. Akseptli kredit ko‘rinishlaridan biri *akseptli-rambursli kredit* bo‘lib, u imorter tomonidan mablag‘larni akseptli bankka akseptga muvofiq qoplashga asoslangan holda beradi.

Akseptli-rambursli kredit eksportyor bilan importyor o‘rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirishda qo‘llaniladi. Bunda akkreditiv bilan o‘tkaziladigan

veksel muayyan vosita sifatida ishlatiladi. Akseptli-rambursli kreditning limiti, kreditning muddati, foiz stavkasi, rasmiylashtirilishi, ishlatilishi va so'ndirilishi kabi shartlari oldindan tuzilgan banklararo kelishuvlar asosida belgilanadi. Ularning ta'minlanganligi tovarlarning sotilishi bilan asoslanadi. Agarda mazkur kredit tovarlarning etkazib berilishi bilan bog'liq bo'lmasa, u holda bu jarayonlar sof moliyaviy xarakterga ega bo'ladi.

Broker krediti ayrim mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Belgiya) firma va bank kreditlarining oraliq shakli sifatida harakatda bo'ladi. Ushbu kredit tijorat shaklidagi bitimlarga tijorat krediti bilan bir vaqtning o'zida bank kreditiga o'zaro aloqador, chunki brokerlar odatda banklardan qarz olib turadi. Brokerlik vositachilik haqi shartnoma summasining 1/50-1/32 qismini tashkil qiladi. Broker firmalari Buyuk Britaniyada yagona yaxlit uyushmaga birlashgan. Brokerlar jahon bozorining ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarga ega. Ular sotib oluvchilarning to'lov qobiliyati yuzasidan kafolatlarni taqdim etadi. Hozirgi kunda broker kreditlarining tashqi savdodagi roli pasayib ketmoqda.

Faktoring - bu ixtisoslashgan moliyaviy kompaniyalar tomonidan eksportyorning importyorga pulga bo'lgan talabining sotib olinishi va inkassatsiya qilinishi shaklidagi xalqaro kredit turlaridan biridir.

Banklar qiymati bo'yicha teng bo'lgan tovarlarni bir-biriga etkazib berishga asoslangan kompensatsiya bitimlari yuzasidan *uzoq muddatli kreditlar* ajratadilar. Ushbu turdagi kreditlar hamma vaqt ham maqsadli xarakterga ega. Korxonani barpo etish va qayta tiklash, tabiiy resurslarni o'zlashtirish uchun mashina va jihozlarni 8 - 15 yil muddatga kreditga olgani holda mazkur kreditni qurilayotgan korxonalarning mahsulotlari hisobiga so'ndirishni ko'zda tutadi. Kompensatsiya bitimlarining farqli tomoni ularning keng qo'lamli va uzoq muddatli xarakterga ega ekanligi, eksport va import bitimlarining o'zaro bog'liqligidir.

Uzoq muddatli kreditning bir qismi zayomlar bo'lib, davlat va xususiy korxonalari, banklar tomonidan qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish orqali jahon ssuda kapitali bozorida qarz mablag'larini o'ziga jalb qiladi. Uzoq muddatli kredit va zayomlar asosan asosiy kapitalni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish,

mashina va jihozlar eksporti, sanoat loyihalarini sotish uchun xizmat turlarini ko'rsatadi.

O'zbekistonda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklarining eksport salohiyatini yanada kengaytirishi, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish, mamlakatimizning eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor kon'yunkturasining o'zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilinishini ta'minlash maqsadida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatining asosiy vazifalari bo'lib, talab-ehtiyojga bo'lgan joriy va istiqboldagi kon'yunkturani o'rganish yuzasidan tashqi bozorlarning chuqur marketing tadqiqotlarini o'tkazish hamda mamlakatimizning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eksport qilish uchun potensial imkoniyatlarni aniqlash; xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning assortimenti va turlarini tizimli asosda tahlil qilish, ularning tashqi bozorlardagi raqobatdoshlik darajasini aniqlash, tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va buning asosida eksportga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon va mintaqaviy bozorlardagi talab-ehtiyojga mos kelishini ta'minlash; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarishda, ehtimoliy ko'zda tutilgan xaridorlarni izlashda, shartnomalarni tayyorlash va tuzishda, eksport operatsiyalarini amalga oshirishda, eksport qiluvchilarni ehtimoliy ko'zda tutilgan xavf-xatarlardan ishonchli himoya qilishda, shuningdek xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi bo'yicha talab etiladigan zarur litsenziyalar, sertifikatlar hamda boshqa ruxsatnomalar va yig'implarni olish va ularni to'lashda yuridik, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatish; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining chet ellardagi tender savdolaridagi ishtirokini kengaytirishga, shuningdek, yarmarkalar, «davra stollari» va boshqalarni tashkil etish yo'li bilan mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari

orqali xorijiy xaridorlarning muloqotlarini tashkil etishga ko'maklashish ko'zda tutildi.

Jamg'arma eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun etarli mablag'lari bo'lmagan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ta'sischilari tarkibiga kirishi, keyinchalik esa Jamg'arma ulushini tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksportga etkazib berish boshlangandan so'ng ikki yil mobaynida bozor qiymatida sotishi; xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish, mahsulotning dizayn darajasini xalqaro standartlarga etkazish maqsadida xorijiy mutaxassislarni jalb etishi hamda chet elda mahalliy mahsulotga bo'lgan talabni inobatga olib, ularni tashqi bozorlarga olib chiqishi bilan bog'liq xarajatlarning bir qismini qoplagan holda moliyaviy yordam ko'rsatish kabi huquqlar belgilandi. Jamg'arma tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish mablag'lari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan keyinchalik to'liq qaytarish sharti bilan amalga oshiriladi.

6.4. Kreditning aholining turmush farovonligini rivojlantirishdagi roli

Aholining turmush farovonligini oshirishda kredit asosiy rol o'ynaydi. Kreditning rolini aholining turmush farovonligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlarida va erishilgan yutuqlarda gavdalanyotganini kuzatishimiz mumkin.

Kreditning rolini aholining turmush farovonligini oshirishda iste'mol krediti, ipoteka krediti, bank krediti sifatida kredit munosabatlarida ham ko'rish mumkin.

Iste'mol krediti aholining turmush farovonligini oshirish imkoniyatni beradi. Iste'mol krediti bo'yicha ssuda qarzdorligini qoplash manbai qarz oluvchilar daromadining muayyan qismi ko'zga tashlanadi. SHu sababli kreditlarni berishda ularni qoplashning real manbaiga e'tibor bergan holda batafsil tekshirib ko'rish maqsadga muvofiq.

Iste'mol krediti jismoniy shaxslarga uning iste'mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun beriladigan kredit hisoblanadi. Amaliyotda iste'mol kreditini moliyaviy iste'mol krediti yoki tovar iste'mol krediti shaklida kuzatish mumkin.

Moliyaviy iste'mol krediti sotib olingan tovarlar (xizmatlar) haqini to'lash uchun pul mablag'lari tarzida iste'molchilarga beriladigan kreditdir. Товар iste'mol krediti esa sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqlarini bo'lib-bo'lib to'lash tarzida iste'molchiga beriladigan kreditdir.

Jismoniy shaxslarning iste'mol ehtiyojlari uchun mo'ljallangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) iste'mol krediti ob'ekti bo'lishi mumkin. Iste'mol krediti o'z faoliyati natijasida olingan daromadlarga, pensiya va boshqa daromadlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga ajratiladi. Tovarlarni (ishlar, xizmatlar) kreditga sotish sotuv kunida amalda bo'lgan narxlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Iste'mol krediti berish qoidalariga muvofiq iste'molchilar iste'mol krediti olish uchun kredit buyurtmasini va o'z daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlari ko'rsatilgan boshqa hujjatlarni iste'mol kreditini beruvchi tashkilotga taqdim etadi. Kredit buyurtmasida iste'molchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport seriyasi va raqami hamda yashash joyi; iste'mol kreditining ob'ekti; iste'mol kreditining muddati; iste'molchining faoliyat turi va daromadlari; iste'molchi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usuli kabi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Ipoteka krediti aholining turmush farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ipoteka krediti aholining turar-joylarini qurish, rekonstruksiya qilish yoki turar-joyni sotib olishga qurilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan yoki sotib olinayotgan uy-joylarni ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda garovga olgan holda beriladi.

Ipoteka krediti aholining oila a'zolari yashashiga mo'ljallangan shinam uy-joy qurilishi; ko'p qavatli uylardagi kvartiralarni mukammal ta'mirlash hamda yakka tartibda qurilgan uylarni rekonstruksiya qilish (qayta qurish); ko'p qavatli uylardagi kvartiralarni hamda yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olishlari uchun asosiy rol o'ynaydi.

Jismoniy shaxslar bankka kreditning qaytarilish ta'minoti sifatida xususiy mulk shaklida o'zlariga tegishli mulki bo'lgan yakka tartibda qurilgan va

qurilayotgan uy-joylarni ular joylashgan er uchastkasi bilan birga, ko'p kvartirali uylardagi kvartiralarni garovga qo'ygan holda ipoteka krediti olishlari mumkin.

Ipoteka krediti oila a'zolari yashashiga mo'ljallangan uy-joy qurilishi uchun va ko'p kvartirali uylardagi kvartira yoki yakka tartibda qurilgan uy-joylarni sotib olish uchun 10 yil muddatgacha, ipoteka kreditini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobiga beriladigan kreditlar 15 yil muddatgacha; yakka tartibda qurilgan uylarni qayta qurish (rekonstruksiya qilish) uchun 5 yil muddatgacha; ko'p kvartirali uylardagi kvartiralarni mukammal ta'mirlash uchun 3 yil muddatgacha beriladi.

Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi kredit resurslari manbasi bilan bog'liq holda ipoteka kreditini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kredit liniyalari hisobidan beriladigan kredit bo'yicha bank marjasini qo'shib hisoblanganda – kredit summasining yillik 5 foizi miqdorida; bankning o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan beriladigan kreditlar bo'yicha tomonlarning kelishuvi asosida belgilanadi.

Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan (qayta quriladigan) uy-joylar yoki sotib olinadigan kvartira qiymatining 80 foizidan oshmasligini talab etiladi.

Yakka tartibda uy-joy quruvchi yoki sotib oluvchi, yakka tartibda qurilgan uy-joyni qayta quruvchi (rekonstruksiya qiluvchi), ko'p kvartirali uydagi kvartirani sotib oluvchi jismoniy shaxs uy-joy, uy-joyni qayta qurish yoxud kvartira qiymatining 20 foizidan kam bo'lmagan miqdordagi mablag'lariga ega bo'lishi lozim bo'lib, bu mablag'lar bankdagi uning nomidagi omonatda saqlanayotgan so'mda qurilayotgan uy-joy qurilishida bajarilgan qurilish ishlari bo'lishi mumkin.

Ko'p kvartirali uydagi kvartiralarni mukammal ta'mirlashga ipoteka krediti olish uchun qarz oluvchi jismoniy shaxs uchun dastlabki badali talab etilmaydi.

Aholi tomonidan banklarga jalb qilingan mablag'lar hajmi va ularning muddatida banklarga qaytarilishi banklarning manfaatdorligini oshiradi. Aholining turmush farovonligini kreditlash jarayonida kredit munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Kreditlash orqali moliyalashtirilgan summaning

miqdori kamayganda aholining moddiy manfaatdorligi yo‘qoladi. Aytish joizki, moliyaviy resurslarning qaytaruvchanlik, muddatlilik va to‘lovlilik shartlari kredit rolining oshishiga imkon yaratadi.

Aholining turmush farovonligini oshirish jarayonida kreditning roli pul aylanmasi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi hamda ularga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan aholining turmush farovonligini oshirishda foydalanish turlicha rang-baranglikni namoyon qiladi. Kreditning ta’siri bo‘yicha etakchi o‘rinni kredit munosabatlarning muayyan turlari egallaydi. Xususan, tovarlarni sotish jarayonida asosiy rolni iste’mol krediti egallasa, qarzga berilgan mablag‘lar bo‘yicha ipoteka krediti ahamiyatli o‘rinda turadi.

Kreditlardan aholining turmush farovonligini oshirishda foydalanishi bilan birgalikda ularning mablag‘ egalariga to‘liq qaytarilishi taqozo etiladi. Bu holat aholi bilan banklarning qarz mablag‘larini jalb qilishi va ulardan maqsadli foydalanish jarayonida ma’suliyatlarni tubdan o‘zgartiradi. Kredit munosabatlari jarayonida banklarga pul mablag‘larini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo bu faoliyat kredit munosabatlarida bir xil ko‘rinishga ega bo‘lmaydi.

Ipoteka kreditini aholining turmush farovonligini oshirishga berishda dastlab banklar o‘zida jalb qilingan mablag‘larni mo‘ljallashi shart emas, aksincha, ular kreditlash jarayonida jalb qilingan mablag‘lardan ko‘proq foydalanishni xoxlashadi. Banklarning bu faoliyati aholining turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo qarz mablag‘larini aholining turmush farovonligini oshirish uchun berishda ularga tovarlarni sotib olish imkoniyati tug‘iladi. Ipoteka kreditini moddiy resurslarni qayta taqsimlash orqali aholining turmush farovonligini oshirishni kuzatish mumkin. Moddiy resurslarni qayta taqsimlash aholining turmush farovonligini oshirishda o‘zining ahamiyati bilan belgilanadi.

Ahamiyatiga ko‘ra, bu holat ipoteka kreditidan aholining turmush farovonligini oshirishda samarali foydalanishga olib keladi, xususan moddiy resurslarning qayta taqsimlanishi mol etkazib beruvchilardan aholining turmush farovonligini oshirishga o‘tgan paytning o‘zida kuzatish mumkin. Bularning

barchasi moddiy resurslarni taqsimlash hamda aholining turmush farovonligini oshirish davrida kredit ishtirokining ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar beradi. Ammo bu holat kredit munosabatlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va resurslardan maqsadli foydalanishga erishiladi. Kreditning roli aynan aholining turmush farovonligini oshirish, mahsulotlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonining uzluksizligiga ta'sir ko'rsatish paytining o'zida namoyon bo'ladi. Tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilishda kreditlarning etarli darajada emaslik holati aholining turmush farovonligini oshirish jarayoni uzluksizligining buzilishiga olib keladi. Pul mablag'larining uzluksizligi va aylanish tezlanuvchanligi ham aholining turmush farovonligini oshirishni qo'llab-quvatlashda muhim ahamiyatga ega.

O'z-o'zini nazorat qilish savollari

- 1. Kreditning roli nimalardan iborat va ular qanday belgilar orqali namoyon bo'lishi mumkin?*
- 2. Kreditning moddiy resurslarni qayta taqsimlashda qanday roli bor?*
- 3. Mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishning uzluksizligini ta'minlashda kredit roli qanday belgilardan iborat bo'ladi?*
- 4. Takror ishlab chiqarishda kredit turlaridan foydalanishning qanday xususiyatlari bor?*
- 5. Kreditni joriy etish sohalari bilan bog'liq xususiyatlar nimadan iborat ?*
- 6. Kreditning qaysi jihatlari davlat nazorati ostida bo'ladi?*
- 7. Kreditning iqtisodiyotning real sektori korxonalarining joriy investitsiyalarni moliyalashtirishdagi roli nimalardan iborat?*
- 8. Kreditning qurilish industriyasini rivojlantirishdagi roli nimalardan iborat?*
- 9. Kreditnin eksport-import operatsiyalarini rivojlantirishdagi roli nimalardan iborat?*
- 10. Kreditning aholining turmush faravonligini oshirishdagi roli nimalardan iborat?*

ASOSIY TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG‘ATI (GLOSSARIY)

Ayirboshlash – muayyan miqdordagi ne‘matlarning bir sub’ektdan boshqa bir sub’ekt ixtiyoriga o‘tish jarayoni.

Aktiv kapital – asosiy kapitalning ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashadigan qismi; odatda mashina, mexanizmlar, asbob-uskuna kabilar kiritiladi

Aksiya – aksionerlik jamiyati sarmoyasiga qo‘yilgan ulushga guvohlik qiluvchi, uning egasiga ulushiga muvofiq foydaning ma’lum bir qismini olish va jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini beradigan qimmatli qog‘oz.

Amortizatsiya – asosiy kapitalning mahsulotga ko‘chgan, xarajatlarda ifodalangan qismi.

Asosiy kapital – kapitalning ko‘p yil xizmat qilib, bir necha ishlab chiqarish sikli (doiraviy aylanishi)da qatnashib, qiymatini ishlab chiqarilayotgan tovar (xizmat)ga asta-sekinlik bilan o‘tkazadigan, ishlab chiqarish jarayonida o‘z jismoniy xossasini o‘zgartirmaydigan qismi.

Aholining umumiy daromadi – ma’lum bir vaqt davomida pul va natura shaklida olingan daromad.

Bazis yili – indekslar, foizlarni hisoblaganda boshqa yillar iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash uchun asos qilib, ajratib olinadigan yil.

Barter – bir mahsulotni ma’lum bir miqdoriy nisbatda boshqa mahsulotga ayirboshlash.

Biznes – tadbirkorlik qobiliyatini ishga solish, faoliyatga aylantirishning tashkiliy shakli (yakka xususiy tadbirkorlik, kichik, o‘rta, yirik).

Biznesning tashkiliy shakli – mulkiy maqomi, tashkiliy-huquqiy asoslari, xo‘jalik yuritish, boshqarish uslublariga ko‘ra faoliyat yuritishning namoyon bo‘lishi (xususiy, sherikchilik, korporatsiya).

Bir-birini to‘ldiruvchi tovarlar – tovarlar juftligida biriga narxining o‘sishi, ikkinchisiga talabning kamayishiga olib keladigan tovarlar.

Bitimlar uchun pulga talab – pulni muomala vositasi sifatida ishlatish uchun zarur pul miqdori. Nominal YaMM hajmiga to‘g‘ri proporsional.

Bozor – sotuvchi va xaridorning tovarlarini pul vositasida ayirboshlash yuzasidan kelib chiqqadigan iqtisodiy munosabatlar, aloqalar, ana shu aloqalarni ma'lum tartibot asosida amalga oshiriladigan tizim.

Bozor (aralash) iqtisodiyoti – turli-tuman mulkchilik va iqtisodiy faoliyat erkinligiga, aralash tarzda tartibga solishga asoslangan, har bir insonning o'z faoliyat natijasini o'ylab, oqilona xo'jalik yuritishga undovchi demokratik iqtisodiyot.

Bozor iqtisodiyoti belgilari – bozor iqtisodiyotining boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardan farqlanishiga sabab bo'luvchi xususiyatlari.

Bozor iqtisodiyoti ob'ekti – munosabatlar va aloqalar nimaga qaratilganligini, nimaga nisbatan yuz berishini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyotining ob'ekti tovar (xizmat) va pul (pul massasi)dir.

Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari – munosabatlar, aloqalar kimlar o'rtasida yuz berishini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari uy xo'jaligi, firma (korxona), davlat va boshqalar.

Bozor infrastrukturasini – turli-tuman bozor sub'ektlari o'rtasida ayirboshlashning me'yorida amalga oshirilishini ta'minlaydigan soha.

Bozor muvozanati – talab va taklifning miqdor va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi.

Bozor segmenti – savdo-sotiqdagi shart-sharoitlarning ma'lum belgi, alomatlari, mezonlariga qarab bo'g'inlarga ajratish.

Bozor tuzilishi – har xil mezonlar asosida bozor tarkibini turkumlash.

Bozor hajmi – bozordagi tovar aylanmasi hajmi bilan aniqlanadi.

Bozorning to'yinish darajasi – bozorning talabni qondirish darajasini ko'rsatadi.

Bozorning samarasi – narxlarning o'sishi yoki kamayishi tufayli moliyaviy aktivlar real qiymatlarining o'zgarishi oqibatida xarajatlar umumiy hajmining o'zgarishi.

Bozorning valyuta – mamlakatning milliy pul birligi, shu mamlakatning milliy boyligi bilan ta'minlangan.

Valyuta kursi – milliy valyutaning chet el valyutasi birligida ifodalanishi.

Valyutaning konvertatsiyalanishi – mamlakat valyutasini (milliy pul birligining) chet el valyutasiga almashtirilishini tashkil etuvchi operatsiyalar.

Gipoteza – ishonchli nazariya bo‘lishi uchun tajribada sinash va nazariy jihatdan asoslab berish lozim bo‘lgan, muayyan hodisaning yuz berishi sabablarini izohlash uchun ilgari surilgan ilmiy taxmin.

Global muammolar – umumjahon xarakteriga ega, insonning hayoti, jamiyat taraqqiyotiga xavf soluvchi, o‘zaro bog‘liq, dunyo hamjamiyatining birgalikda kechiktirmay hal etishini talab qiladigan muammolar.

Globalizatsiya – har bir mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti tarkibining bir qismiga aylanib, yagona tovar va xizmatlar, kapital, ish kuchi, intellektual bozor sifatida ifodalanishi.

Davlat byudjeti – davlatning o‘z vazifalarini bajarishini moliyaviy ta‘minlash maqsadida pul mablag‘larini to‘plash (daromadlar) va sarflash (xarajatlar)ning balansi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi – milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlash, bozor bajara olmaydigan ijtimoiy–iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish.

Davlat sektori – mamlakat iqtisodiyotining davlat, hukumat tomonidan to‘la nazorat qilinadigan qismi.

Daromad – ma‘lum bir vaqt (yil) oralig‘i(yil)da YaIMning omillar ulushiga ko‘ra taqsimlanishi natijasida olingan, shaxsiy iste‘mol va turli ne‘matlar (tovar va xizmatlar) sotib olishga mo‘ljallangan pul mablag‘lari summasi.

Daromadlarning funksional taqsimlanishi – jamiyatning pul daromadini, qanday omil ulushi evaziga olingani va bajaradigan funksiyalari asosida taqsimlanishi: ish haqi, renta, foiz, foyda.

Daromadning shaxsiy taqsimlanishi – jamiyatning pul daromadini alohida oilalar, shaxslar o‘rtasida taqsimlanishi.

Deduksiya – nazariyadan amaliyotga, umumiy xulosadan xususiy xulosa chiqarishga, ilgari surilgan gipotezani real iqtisodiy dalillar yordamida tekshirishga, tadqiq qilishga asoslangan usul.

Demping – boshqa mamlakatlarda tovarlarning tannarxidan (sarflangan o‘rtacha xarajatlardan) past narxda sotish.

Depressiya – siklning ishlab chiqarish hajmi, bandlikni uzoq vaqt tushkunlikda bo‘lishi fazasi.

Deformatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti – davlatning mulk monopoliyasi, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan, markazdan rejalashtiriladigan iqtisodiyot.

Dinamik iqtisodiy muvozanat – o‘zgaruvchanlikka asoslangan, barqaror rivojlanishni ta’minlaydigan muvozanat.

Doimiy xarajatlar – ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar.

Jamg‘arishga o‘rtacha moyillik – yil davomida shaxs ixtiyoridagi daromadning jamg‘armaga yo‘naltirilgan qismi. Jamg‘armani daromadga nisbati tarzida hisoblanadi.

Jamg‘arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli – muvozanatli sof milliy mahsulotni jamg‘arma bilan investitsiyalarni tenglashtirish orqali aniqlash usuli.

Jamg‘arma funksiyasi – jamg‘arma hajmi bilan (boshqa sharoitlar teng bo‘lgan holda) shaxs ixtiyoridagi daromad o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi.

Jamiyatning sof yo‘qotishlari – (monopoliyalarning ijtimoiy bahosi) – taklif miqdorini kamaytirish uchun monopoliyalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmini samarali darajadan kamaytirish natijasida iste’molchi va sotuvchilar uchun ma’lum miqdorda mahsulotning yo‘qotilishi, ishlab chiqarishning kamayishi.

Jamoa bitimi – ishchi-xizmatchilar jamoasi bilan firmalar o‘rtasida tuzilgan shartnoma.

Jahon bozori – mehnat taqsimoti orqali bir-biriga bog‘langan turli mamlakatlar o‘rtasida barqaror ayirboshlash aloqalari va ularni ma’lum tartiblar asosida amalga oshiriladigan joy. O‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra milliy bozordan farq qiladi.

Jahon xo‘jaligi – ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat’iy nazar iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan bog‘langan milliy xo‘jaliklar majmui.

Jahon xo‘jaligining globallashuvi – jahon xo‘jaligining yagona tovar va xizmatlar, kapital, ish kuchi va intellektual bozori, mamlakat milliy iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotining bir qismi sifatida namoyon bo‘lishi.

Ijara haqi – mulk egasiga mulkdan foydalanish huquqini ma’lum bir muddatga berib turgani uchun egasiga to‘lanadigan haq.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim – jamiyatdagi turli xo‘jalik yurituvchi subektlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar, aloqalar, jarayonlarni bir butun holda, muayyan tarzda tarkib topishi va tartibga solinishini ifodalaydi.

Ijtimoiy siyosat – davlatning insonning samarali ijtimoiy himoyasini shakllantirish va kamol topishiga imkon yaratishga qaratilgan siyosati (chora-tadbirlar ko‘rishi).

Ijtimoiy to‘lovlar – kam ta‘minlangan oilalarga pul yoki natura shaklida yordam berishga qaratilgan to‘lovlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar – jamiyatning hayot kechirishi, rivojlanishi uchun zarur iqtisodiy ne‘matlar, ya’ni turli mahsulot va xizmatlar majmuiga bo‘lgan zaruriyat.

Import – chetdan mamlakatga olib kelingan tovarlar miqdori (qiymat o‘lchovida).

Import qilingan inflyasiya – mamlakatga chet el valyutasining kirib kelishi, milliy valyutani past kursi va import qilinayotgan tovarlar narxini o‘sishi.

Import samarasi – mamlakatning sof eksporti hajmining mamlakat ichida va chetdagi narx darajasi va ularning nisbatiga bog‘liqligi.

Induksiya – empirik bilimdan abstraksiyaga o‘tish, xususiy xulosadan umumiy xulosa chiqarish usuli.

Inson kamoloti indeksi – aholi farovonligi, jamiyatda insonning barkamolligi ta‘minlanishini ifodalovchi ko‘rsatkich. Jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaMM, kutilayotgan yashash yoshi, ta‘lim darajasi (25 yosh va undan kattalar) asosida hisoblanadi.

Inson kapitali – odamlar yillar davomida to‘plagan bilim, malaka, tajriba tarzida bo‘lib, uni egasidan ajratib bo‘lmaydi.

Intensiv iqtisodiy o‘shish – resurslarini tejab-tergab ishlatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga iqtisodiy o‘shish.

Inflyasiya – muomalada pul taklifining talabga nisbatan haddan tashqari ko‘payib ketishi oqibatida, pulning xarid quvvatini pasayishi, pulning obro‘sizlanishi. U narx indeksining ko‘tarilishida ifodalanadi.

Iste‘mol – ishlab chiqarish natijalaridan foydalanish, ehtiyojni qondirish jarayoni;

Iste‘molga o‘rtacha moyillik – yil davomida shaxs ixtiyoridagi daromadning iste‘molga sarflangan qismi. Iste‘molning daromadga nisbati tarzida hisoblanadi.

Iste‘mol funksiyasi – iste‘mol xarajatlari bilan shaxs ixtiyoridagi daromad o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalaydi.

Iste‘molga me‘yoriy moyillik – qo‘shimcha birlik olingan shaxs ixtiyoridagi daromadning iste‘molga sarflangan ulushi. Iste‘moldagi o‘zgarish (ΔS) ni, daromaddagi o‘zgarishga (ΔD_i) nisbati tarzida hisoblanadi. Jamg‘arishga me‘yoriy moyillik – qo‘shimcha birlik olingan shaxs ixtiyoridagi daromadning jamg‘armaga sarflangan ulushi. U jamg‘arishdagi o‘zgarish (ΔS) ning daromaddagi o‘zgarish (ΔD_i) ga nisbati tarzida hisoblanadi.

Ichki xarajatlar – ishlab chiqarish xarajatlarida korxonaning o‘z ixtiyoridagi resurslar qiymatining puldagi ifodasi.

Ish haqi – YaIMdagi mehnat omilining ulushi, bajarilgan ishga qarab to‘lanadigan haq. Mehnat bozoridagi ish kuchiga talab va taklifning muvozanatiga bog‘liq.

Ishlab chiqarish - insonning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ne‘matlar yaratish jarayoni.

Ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi - mavjud iqtisodiy resurslardan to‘la foydalanish evaziga eng ko‘p mahsulot ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i - mavjud resurslardan to'la foydalanish evaziga turli kombinatsiyalarda eng ko'p mahsulot ishlab chiqarishning grafikda ifodalanishi.

Ishlab chiqarish omillari nisbati (Xeksher-Olin) nazariyasi - xalqaro savdo yo'nalishi ishlab chiqarish omillarining qiyosiy narxlariga nisbatan shakllanishini asoslovchi nazariya.

Ishlab chiqarish funksiyasi – ishlab chiqarish omillarining har qanday to'plami bilan shu omillar yordamida eng yuqori imkoniyat darajasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'lanishni ifodalovchi funksiya.

Ishlab chiqarish hajmi va yalpi xarajatlarni taqqoslash metodi – ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini yalpi xarajatlar, milliy mahsulotga teng bo'lgan real sof milliy mahsulot hajmini aniqlash orqali hisoblanadigan usul.

Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik nazariyasi – iqtisodiyot o'zini-o'zi bozor mexanizmi va bozor regulyatorlari asosida tartibga soladi, ular yordamida mamlakat o'z resurslarini to'la ishga soladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishning monetar modeliga ko'ra – Keynschilikda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi eng kam darajada, muomaladagi pul miqdorini tartibga solish doirasida bo'lishi zarur. Bu narx darajasi muomaladagi pul miqdoriga bog'liq, degan fikrni ilgari suruvchi va monetar qoidaga asoslanuvchi konsepsiya.

Iqtisodiyotni tartibga solishning keynscha modeliga ko'ra – bozor o'z-o'zicha iqtisodiyotni samarali tartibga sola olmaydi, resurslardan to'la foydalanishni amalga oshira olmaydi. Shuning uchun bu davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi (soliq-byudjet va pul-kredit siyosati) orqaligina qo'yilgan maqsadga erishish mumkinligi to'g'risidagi konsepsiya.

Iqtisodiyotni tartiblashning bevosita usullari – Davlatning iqtisodiyotni to'g'ridan-to'g'ri aralashuviga asoslangan vosita va dasturlar orqali tartibga solishi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – davlatning iqtisodiy faoliyatdagi hukmronligini, monopol mavqeini sindirib, iqtisodiyotni boshqarishda yagona

davlat mexanizmi o'rniga aralash iqtisodiyotga xos bo'lgan bozor mexanizmiga keng yo'l berish.

Iqtisodiyotni tartibga solish – makroiqtisodiy nisbatlarning bir-biriga mos holda rivojlanib borishi, undagi turli bo'g'inlar faoliyatini bir-biriga bog'liq holda muvozanatlashuviga erishish.

Iqtisodiy yoki zimmadagi xarajatlar - tanlangan resurslarni eng ma'qbul ishlatish, o'zgalar ishlatishiga yo'l qo'ymay, ularni sotib olish uchun resurslar egasiga to'langan haq.

Iqtisodiy kategoriya – jamiyat iqtisodiy hayotining eng muhim tomonlarini ifodalovchi iqtisodiy voqelikning ilmiy ifodasi.

Iqtisodiy qonunlar – iqtisodiy hodisa, jarayonlar o'rtasidagi muhim bog'lanish, iqtisodiy zaruriyatni taqozo etuvchi, sabab-oqibat, sifat va miqdor bog'lanishlari bo'lib, individ va institutlarning xatti-harakati, tanlash sabablari va motivlarini umumlashtirgan holda xarakterlab berilishi.

Iqtisodiy muvozanat – iqtisodiy jarayonlarning mutanosib balanslashuvi.

Iqtisodiy resurslar – turli ehtiyojlarni qondiradigan ne'matlar ishlab chiqarish uchun zarur barcha vositalar va mehnatga layoqatli kishilar.

Iqtisodiy samaradorlik – iqtisodiy xarajatlar evaziga erishilgan natija.

Iqtisodiy faoliyat – insonning ehtiyojini qondirish, ya'ni tirikchilik, hayot kechirishini ta'minlashning vosita va usullari majmui.

Iqtisodiy o'sish – ma'lum bir vaqt (yil) mobaynida real yalpi ichki mahsulot (yoki YaMM), sof milliy mahsulot hajmining ortib, sifat tarkibining o'zgarib borishi.

Iqtisodiy o'sish sur'ati – joriy yildagi yalpi ichki mahsulot (YaMM)ning o'tgan yilga yoki bazis yildagi YaIM nisbati orqali ifodalanuvchi ko'rsatkich.

Iqtisodiy o'sish modellari – ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi andozalar.

Iqtisodiy foyda – umumiy tushum bilan iqtisodiy xarajatlar o'rtasidagi farq.

Iqtisodiy sikl – iqtisodiyotda yuksalishning inqiroz bilan almashinib va uning takrorlanib turishi.

Inqiroz (tanglik, tushkunlik, burilish) – siklning qisqarishi yoki ishlab chiqarish hajmini, iqtisodiy o‘rnatilgan sur’atining pasayish fazasi.

Kam ta’minlangan oilalar – jon boshiga yashash minimumidan ortmaydigan, kam daromad oluvchi oilalar.

Konsolidatsion–yig‘ma byudjet – davlat byudjeti va nobyudjet fondlarining birgalikda atalishi.

Konsepsiya – qarashlar, fikr yuritish, dunyoni anglash usullari.

Kredit – iqtisodiy kategoriya, vaqtincha o‘z egalari qo‘lida bo‘sh turgan mablag‘larni boshqalar tomonidan ma’lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar.

Kredit berish tamoyillari – kredit berishning qonun-qoidalari va bank tomonidan mijozlarga qo‘yiladigan shartlarning nazariy mazmuni.

Kredit mexanizmi – iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ichiga kreditlash sharoitlari, usullari, kreditni boshqarish tartibini oladi.

Kredit emissiyasi – banklar tomonidan ssuda berish, yangi chek hisoblarini ochish, naqd pulsiz cheklar yordamida yoki boshqa yo‘llar bilan mamlakatning pul massasini ko‘paytirish.

Ko‘p ukkladli iqtisodiyot – turli mulk shakllari va har xil xo‘jalik turlari yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

Qo‘shilgan qiymat – bu har bir korxona, firma tomonidan yaratilgan mahsulotning bozor narxida ifodalangan hajmi bo‘lib, undan sotib olib ishlatilgan xom ashyo, materiallar chegirib tashlanadi.

Laffer egri chizig‘i – soliq stavkasi (0 dan 100% gacha) bilan byudjetga tushadigan soliq tushumi o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalaydi, soliq stavkasining qaysi miqdorida soliq tushumi eng yuqori darajada bo‘lishini ko‘rsatadi.

Lerner indeksi – monopoliya hukmronligi darajasini ko‘rsatuvchi iqtisodiy ko‘rsatkich.

Likvidlilik darajasi – pul massasining naqd pul shakliga aylantirish imkoniyati.

Lorens egri chizig‘i – aholi daromadining tengsizligining grafik tasviri.

Majburiy zahira – tijorat banklari depozitlarining qonun bo'yicha majburiy zahiralar me'yoriga muvofiq Markaziy bankda saqlanadigan qismi.

Majburiy zahira me'yori – Markaziy bank tasarrufidagi banklar uchun belgilanadigan, lekin tijorat va maxsus banklarning mulki bo'lgan qismi. Bankning majburiy zahirasi uning muddatsiz omonatlari bo'yicha majburiyatlariga nisbati tarzida belgilanadi.

Makroiqtisodiyot – nazariy iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga bir butun tizim sifatida yondashib, iqtisodiy siyosatning maqsadini shakllantiruvchi va uni ro'yobga chiqarish uchun zarur chora-tadbirlar belgilashni tadqiq qiluvchi bo'limi.

Makroiqtisodiy muvozanatning keynscha modeli – yalpi sarflar bilan narxlar o'zgarish darajasidagi real YaIM o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ifodalovchi model.

Makromoliya – jamiyat, umumdavlat miqyosidagi moliya.

Manfaatlar – odamlar ehtiyojining munosabatlar orqali ifodalanishi.

Megamoliya – xalqaromiqyosdagi davlatlararo moliyaviy munosabatlar bo'lib, ular xalqaro moliya institutlari vositasida amal qiladi.

Me'yoriy unumdorlik(daromad)ni pasayish qonuni – bir omilning o'zgarishi va qolganlari o'zgarmagani holda ma'lum chegaradan so'ng har bir qo'shimcha sarflangan omil avvalgisiga nisbatan kamroq unum(daromad) olib kelishini ifodalaydi.

Mikroiqtisodiyot – nazariy iqtisodiyotning, iqtisodiy alohidalashgan birliklari (firma, korxona, uy xo'jaligi), alohida olingan bozor, aniq mahsulot narxlari, sotuvchi va xaridorlarning samarali tanlov tamoyillari shakllanishini o'rganuvchi bo'lim;

Mikromoliya – firma, korxona, tashkilot, muassasa, jamoat, uy xo'jaligi (xonadon) moliyasi.

Milliy boylik (MHT metodikasi bo'yicha) – taraqqiyot asosi bo'lib, mamlakat ixtiyoridagi mehnat tufayli yaratilib jamg'arilgan moddiy ne'matlar, oltin, chet el valyutalari, nomoddiy aktivlar va qadriyatlar, hisobga olingan va xo'jalik aylanmasiga jalb etilgan er va tabiiy resurslardan iborat.

Milliy boylik (nazariy jihatdan) – muayyan jamiyatning asrlar osha, o‘z tarixi davomida to‘plagan iqtisodiy ne‘matlarining jamidir.

Milliy daromad – yil davomida jamiyatning sof «ishlab topgan daromadi»dir. Sof ichki mahsulotdan chet elda ishlab chiqarish omillari evaziga yaratilgan sof daromad va biznesga egri soliqlarni ayirib topiladi yoki SMMdan biznesga egri soliqlar chegirib tashlanadi.

Milliy iqtisodiyot – mamlakat miqyosida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan, mehnat taqsimoti orqali o‘zaro bog‘liq bo‘g‘inlar, tarmoqlardan tashkil topgan murakkab xo‘jalik tizimi.

Milliy iqtisodiyotning tarkibi – mamlakatda mavjud iqtisodiy resurslar va mehnat taqsimoti asosida shakllangan ishlab chiqarish va YaIMning tarkibi (tuzilishi).

Milliy hisob tizimi – iqtisodiyotdagi faoliyat natijalarini aniqlash usullari majmui bo‘lib, ikkiyoqlama yozuvga asoslangan, daromad, xarajatlar oqimini ifodalovchi jadvallar to‘plami. Mikromiqyosda buxgalteriya tizimi qanday rol o‘ynasa, makromiqyosda MHT shunday ahamiyatga ega.

Moddiy buyumlashgan boylik – mamlakatning asosiy, aylanma kapital, moddiy zaxiralar, aholining mol-mulki, tabiiy boyliklari, tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklarida ifodalangan boylik.

Moliya bozori – sub’ektlar o‘rtasida moliyaviy aktivlarni ayirboshlash, oldi-sotdi qilish borasida amalga oshiriladigan tartiblar.

Moliya institutlari – moliya munosabatlarini amalga oshiruvchi, tartibga soluvchi, moliya infratuzilmasini tashkil etuvchi turli muassasa va davlat tashkilotlari.

Moliya mexanizmi – moliyaviy munosabatlar (aloqalar), moliyaviy resurslarni uyushtirish va ishlatishni ta’minlovchi barcha vositalar majmui.

Moliya munosabatlari – pul mablag‘lari fondlarini tashkil etish, taqsimlash va ishlatish natijasida ro‘y beradigan munosabatlar. Ular YaMM, milliy boylikni taqsimlash, ishlatish jarayonida vujudga keladi.

Moliya tizimi – jamiyatdagi turli-tuman moliya munosabatlarning majmui va bu munosabatlarni tartibga soluvchi moliya mexanizmi va moliya institutlari yaxlitligidan iborat.

Moliyaviy resurslar – muayyan maqsadga qaratilgan pul fondlari.

Moliyaviy sarosimalik – mijozlarning omonatga qo‘ygan pullarini so‘ragan vaqtlarida olishga urinishlari, qarzдорlarda esa talab qilingan miqdorda pulning yo‘kligi tufayli kelib chiqadigan vaziyat.

Moliyaviy siyosat – davlat iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etib, jamiyatning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun resurslarni to‘g‘ri tashkil etish va undan unumli foydalanish borasidagi strategik va taktik chora-tadbirlar belgilash va ularni amalga oshirish.

Moliyaning vazifalari – moliyaning mohiyatini o‘zgartira olmaydi, lekin xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Ularga misol qilib: rag‘batlantirish, ijtimoiy himoya, iqtisodiy axborot va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Moliyaning funksiyasi – moliya mohiyatining xo‘jalik faoliyatida aniq ko‘rinishi, uning tashqi ifodasidir. U taqsimlash va nazoratdan iborat.

Monetar qoida – monetarizm tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan. Unga ko‘ra muomaladagi pul massasi yiliga real YaIM o‘rishining potensial sur‘ati darajasiga teng miqdorda o‘rishi kerak. Pul massasi barqaror 3-5% o‘rishi zarur.

Monetar siyosat – MB tomonidan mamlakatda to‘la bandlik va milliy ishlab chiqarishning noinflyasion o‘rish suratini ta‘minlovchi pul taklifini o‘zgartirish.

Mulk – qabul qilingan tartib asosida o‘zlashtirishga mo‘ljallangan cheklangan ne‘matlar.

Mulk huquqi – kishilar o‘rtasida ne‘matlar va ulardan foydalanish natijasida vujudga keladigan munosabatlarning jamiyat tomonidan qabul qilingan qoidalari (qonunlar, an‘analari, urf-odatlar, ma‘muriy farmoyishlar).

Mulkdan foydalanish - mulkni ishlatib, ko‘zlangan maqsadga, natijaga erishish: daromad topish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish.

Mulkka egalik qilish – mulkdorlik huquqining mulk egasi qo‘lida saqlanib turishi, yaratilgan mahsulotni o‘zlashtirishning ijtimoiy shakli.

Mutlaq ustunlik (afzallik) – bir birlik tovar tovar ishlab chiqarish uchun boshqa mamlakatga qaraganda, kam mehnat, kam resurs sarflashda ifodalanadi.

Narx pariteti – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxi o‘zgarishining tarmoqda ishlatiladigan sanoat tovarlari va xizmatlari narxining o‘zgarishi bilan taqqoslanishi. Odatda u paritet indeksi orqali ifodalanadi.

Narx – tovarlar va xizmatlarning nafililigini baholash vositasi bo‘lib, unga to‘lanadigan pul miqdorini ifodalaydi.

Narx bo‘yicha raxnoma – oligopolistik bozordagi etakchi firma, qaysiki uning narxni ko‘tarishi yoki tushirishiga qarab, boshqalar unga ergashadi.

Narx mexanizmi – narxlarning tashkil topishi, ya‘ni tovar, xizmatlarga to‘lanadigan pul miqdorini belgilash qoidalari, usullarini o‘z ichiga oladi.

Narx shakllanishining bozor mexanizmi – bozor va uning aniq shaklidan qat‘iy nazar talab va taklifning nisbati va raqobat asosida ya‘ni bozordagi vaziyatga ko‘ra narxning shakllanishi.

Narx turlari – bozor iqtisodiyoti sharoitida bir-birini taqozo etuvchi turli maqsadlarda qo‘llanuvchi, turli vazifalarni bajaruvchi narxlar majmuiga turli jihatdan yondashib, guruhlariga bo‘linishi.

Natural xo‘jalik – mahsulot ishlab chiqaruvchining o‘z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xo‘jalik yuritishning yopiq shakli.

Nafililik – xaridorning o‘z ehtiyojini qondirish, ne‘matni iste‘mol qilishdan oladigan qoniqishi.

Nominal daromad – ma‘lum vaqt davomida aholi tomonidan olingan pul shaklidagi daromad.

Nominal ish haqi – pul shaklida olingan ish haqi.

Nominal YAIM – mavjud bozor narxlari bo‘yicha hisoblangan yalpi ichki mahsulot.

Nomoddiy boylik – aholining salomatligi, madaniy-ma‘naviy, intellektual salohiyati, to‘plagan bilimi, malaka, mahoratida ifodalangan boylik.

Normal foyda – tadbirkorlik qobiliyatini ishga solishning alternativ qiymati.

Nufuz qonuni - aholining tabiiy o'sishi bilan ular ehtiyojlarning qondirilish darajasi o'rtasidagi bog'lanish. Tomas Maltus tomonidan aholining qashshoq yashashiga sabab, uning o'sishi geometrik progressiya, yashash uchun zarur ne'matlarni ishlab chiqarish arifmetik progressiya asosida o'sishi tufayli, deb izohlangan.

Oligopoliya – (yunoncha ozchilik, sotaman) – ishlab chiqarish va bozorda uncha ko'p bo'lmagan, sanoqli firmalar hukmronligidir.

Ochiq bozordagi operatsiyalar – Markaziy bank tomonidan bozorda davlat qimmat baho qog'ozlarini sotish va sotib olish.

Passiv kapital – asosiy kapitalning faoliyat yuritish uchun sharoit yaratuvchi, ancha uzoq xizmat qiluvchi, ishlab chiqarishda passiv qatnashuvchi qismi.

Pul bozori – moliya bozorining tarkibiy qismi bo'lib, pulga talab va taklif asosida umumiy foiz darajasi, zaruriy va taklif etilayotgan pulning muvozanatli hajmini belgilovchi bozor.

Pul massasi – naqd pul va naqd pulga aylantirish imkoniyati turlicha bo'lgan naqd bo'lmagan pul va kvazi pullar, qimmatli qog'ozlar.

Pul miqdori – muomalaga chiqarilgan pul hajmi.

Pul multiplikatori – tijorat banklari rezerv (zaxira) normasiga ko'ra bankka mijozlar tomonidan qo'yilgan naqd pullarga nisbatan emissiya qilinadigan pul massasining ko'payishi mumkinligini ko'rsatuvchi koeffitsient.

Pul muomalasi – pulning xo'jalik aylanmasida doimo harakatda bo'lib, o'z funksiyalarini to'laqonlik bajarishi.

Pul muomalasi qonuni – muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori bilan yaratilgan YaMM yoki barcha sotiladigan tovarlar va xizmatlar narxining jami summasiga to'g'ri, pul aylanishi tezligiga teskari mutanosib bog'lanish.

Pul tizimi – mazkur mamlakatning pul muomalasini qonuniy asosda tashkil etish tartibi, usullari, ularga xizmat qilish muassasalari.

Pulga jamg'arma, moliyaviy aktivlar sifatida talab – odamlar jamg'arma (moliyaviy aktivlarning pul shaklidagi hajmi) sifatida saqlash uchun zarur pul miqdori, foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi.

Pulga talab – firma, korxona, uy xo'jaligining muomala, ya'ni, oldi-sotdi bitimlari va zaxirada saqlayotgan pul mablag'lari hajmi.

Pulning aylanish tezligi – yil davomida pul birligining tovar va xizmatlarni sotib olish uchun necha marta ishlatilishini ifodalovchi ko'rsatkich.

Raqobat – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z manfaatlaridan kelib chiqib yuqori daromad olish imkoniga, nufuzli mavqega ega bo'lish uchun boshqalar bilan bellashuvi, kurashi.

Ratsional kutish nazariyasi – Gipoteza, unga muvofiq firmalar va uy xo'jaliklari davlat pul-kredit va byudjet siyosati orqali iqtisodiyotga ma'lum bir darajada o'z ta'sirini o'tkazadi, deya kutishadi va o'z manfaatlaridan kelib chiqib, bu siyosatni samarasiz qilib qo'yadigan turli chora tadbirlar qo'llashadi.

Real daromad – ma'lum bir vaqt (yil) oralig'ida nominal daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Ularning miqdori esa soliqlar, narx, nominal daromadga bog'liq.

Real iqtisodiy muvozanat – iqtisodiyotdagi nomukammal raqobat sharoitida tashqi omillarning ta'siri, turli cheklanishlar mavjudligi, iqtisodiyotga ta'sir qiladigan kuchlar tufayli o'rnatiladigan muvozanat.

Real ish haqi – pul shaklida olingan ish haqining sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdorida ifodalanishi.

Real YAIM – narx o'zgarishini nazarda tutgan holda hisoblangan yalpi milliy mahsulot. Real mahsulot hisoblanganda narxlar indeksi qo'llaniladi.
$$\text{Real YaIM} = \text{Nominal yalpi ichki mahsulot} / \text{Narx indeksi}.$$

Samaradorlik – sarflangan resurslar bilan olingan natijani taqqoslanishini ifodalovchi ko'rsatkich. Odatda u ishlab chiqarish xarajatlarini ishlab chiqarish natijasi (mahsulot)ga nisbati tarzida hisoblanadi.

Siqib chiqarish samarasi – bozorda davlat qimmatbaho qog‘ozlarining ko‘payishi tufayli, uning ulushi ortib, boshqalarning siqib chiqarilishi natijasida investitsiyalarni moliyalashtirishning umumiy sharoiti yomonlashuvi.

Soliq – korxona (tashkilot) va fuqarolar daromadidan qonuniy tartibda, belgilangan miqdor va muddatlarda byudjet fondini tashkil qilish maqsadida davlat ixtiyoriga olinadigan pul mablag‘lari.

Sof milliy mahsulot – joriy yilda yangidan yaratilgan mahsulot bo‘lib YaMMdan amortizatsiya ajratmalarini ayirib topiladi yoki YaIMdan amortizatsiya, chet el ishlab chiqarish omillari evaziga yaratilgan sof daromad ayiriladi.

Sug‘urta – moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos turi bo‘lib, favqulodda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli yo‘qotishlarning o‘rnini qoplash uchun yaratilgan mahsulotning ma’lum bir qismidan maxsus pul fondini tashkil etish, uni taqsimlash va ishlatish yuzasidan qaror topadigan munosabatlar.

Tadbirkor – tadbirkorlik qilish fazilatiga ega inson.

Tadbirkorlik – risk qilgan holda, mablag‘larni samarali sarflab, ishlab chiqarish omillarining eng optimal nisbatini topib ishga tushirish evaziga daromad, foyda olishga qaratilgan, insonlarga naf keltiruvchi, iqtisodiy faoliyat yuritish.

Tadbirkorlik ob’ekti – eng yuqori darajada daromad olish maqsadida ishlab chiqarish omillari (er, kapital, mehnat)ning eng samarali nisbatini topib ishga tushirish.

Taklif – bozorda mavjud yoki bozorga olib kelinishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar.

Taklif qonuni – narxlar bilan sotiladigan tovarlar miqdorining to‘g‘ridan-to‘g‘ri, sabab-oqibatli, funksional bog‘lanishi.

Taklif egri chizig‘i – ma’lum bir vaqt davomida turlicha narxlar bo‘yicha sotuvchilarning sotishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlari miqdorining grafikda ifodalanishi.

Taklif egiluvchanligi – narxning o‘zgarishi ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)larga qanday ta’sir qilishi, ya’ni ularning narxlarga ta’sirchanligini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Taqsimot – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida resurslarni, ishlab chiqarish omillarining egalari o‘rtasida esa yaratilgan mahsulotning taqsimlanishini ifodalovchi jarayon.

Taqchil ishlab chiqarish inqirozi – turli ne‘matlarni talabga qaraganda kam ishlab chiqarish natijasida tang holatga tushish.

Talab – pul mablag‘lari bilan ta‘minlangan ehtiyojning bozorda namoyon bo‘lishi yoki to‘lov qobiliyatiga ega ehtiyoj.

Talab va taklif muvozanati – xaridor sotib olmoqchi bo‘lgan tovar miqdori bilan ishlab chiqaruvchilar tomonidan sotiladigan tovar miqdorining tengligi

Talab qonuni – tovar narxlari bilan talab miqdorini teskari nisbatda sabab-oqibatli, funksional bog‘lanishi.

Talab miqdorining o‘zgarishi – talab miqdori(hajmi)ning talab egri chizig‘i bo‘yicha narxning o‘zgarishiga qarab siljishi.

Talab o‘zgarishi – talab egri chizig‘ining narxdan boshqa bir yoki bir necha determinantlar o‘zgarishi natijasida siljishi.

Talab egri chizig‘i – ma‘lum bir vaqt mobaynida turli narxlar bo‘yicha xaridorlarning sotib olishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdorining grafik orqali ifodalanishi.

Talab egiluvchanligi – xaridorga narxning o‘zgarishi qanday ta‘sir qilishini, ya‘ni narxning 1%ga o‘zgarishi sotib olinadigan tovar miqdorini qanchaga o‘zgarishini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkich.

Tamoyil – faoliyat uchun asos qilib olinadigan qonun-qoida, nuqtai nazar, qarashlar.

Tarkibiy siyosat – milliy manfaatlarni ta‘minlovchi, iqtisodiy o‘sishga yo‘l beruvchi, aholi farovonligini muttasil oshib borishiga olib keluvchi yangicha ishlab chiqarish tarkibini yaratish.

Tarkibiy o‘zgarishlar – milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish asosida tarmoqlar, hududlar va boshqa iqtisodiy birliklar hissasini o‘zgartirish.

Tashqi savdo balansi qoldig‘i – mamlakatning eksport va importi farqi.

Tashqi xarajatlar – chetdan jalb etilgan iqtisodiy resurslar uchun to‘langan pul mablag‘lari.

Tovar - insonning biror-bir ehtiyojini qondirib, ayirboshlash (sotish) uchun ishlab chiqarilgan ne‘mat.

Tovar xo‘jaligi – tovar ishlab chiqarishga asoslangan, ishlab chiqarish bilan iste‘mol bozor orqali bog‘lanadigan xo‘jalik yuritish shakli.

Tovar – xom ashyo birjasi - ma‘lum doirada ulgurji savdo-sotiq ishlarini bajaruvchi korxona. Hozirgi paytda narx kotirovkasini aniqlash va uni oshkoraligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Transmilliy korporatsiyalar – jahon xo‘jaligi doirasida bir yoki bir necha sohada hukmronlik qiluvchi, kapitali milliy, hukmronlik qilish doirasi xalqaro korporatsiyalar.

Tub iqtisodiy belgilar – har bir hodisa, jarayon, tizimning boshqalardan ajratib turuvchi, uning sifat jihatdan farqlanishiga sabab bo‘lgan xususiyatlarga aytiladi.

Turmush darajasi – aholini hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlar bilan ta‘minlanganligi va zarur ne‘matlar bilan ehtiyojlarining qondirilish darajasi. Boshqacha aytganda, bunda insonlarning hayotiy ehtiyojlarining qondirilish me‘yori tushuniladi.

To‘lov balansi – ma‘lum vaqt (yil) mobaynida mamlakatning barcha turdagi iqtisodiy aloqalari, eksporti va importi va ularning nisbatini aks ettiruvchi iqtisodiy muvozanat.

Uzoq muddatli sikl – uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish hajmining mutloq miqdori pasayishi, iqtisodiy o‘sish sur‘atini tezlashuvi va sekinlashuvining almashib turishining uzoq muddatli tamoyili tarzida yuz beruvchi sikl.

Uzoq muddatli muammolar – fan-texnika taraqqiyoti natijasida qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ko‘payishi, aholi sarflarida mazkur tarmoq mahsulotlariga sarflarning mutloq miqdorining nisbatan sekin o‘zgarishi, agrar sektorda band bo‘lganlar daromadining boshqa sohalarga nisbatan pastligi va beqa-

rorligi, narx paritetining sanoat foydasiga o'zgarishi va boshqalar sababli kelib chiqadigan nisbatan uzoq muddatga xos muammolar.

Uklad – kishining hayot kechirishi, xo'jalik yuritish prinsipida o'rnatilgan yoki joriy qilinadigan tartib.

Uy xo'jaligi – bir yoki bir necha kishidan iborat oila, iqtisodiyotni resurslar bilan ta'minlovchi va yaratilgan mahsulotlar iste'molchisi bo'lgan iqtisodiy birlik.

Umumiy yoki makroiqtisodiy muvozanat – jamiyat ehtiyojlari, uni qondirish imkoniyatlari (resurslari) va ishlab chiqarish natijalarining mos kelishi.

Umumiy xarajatlar – ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar boshqacha aytganda barcha iqtisodiy resurs xarajatlari.

Foiz stavkasi samarasi – narxlar darajasi o'zgarishi tufayli pulga talabning va o'z navbatida foiz stavkasini o'zgarishiga olib kelishi va uning oqibatida yalpi sarflar umumiy darajasini o'zgarishi.

Firma – bir yoki bir necha korxona faoliyat turini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Funksional tahlil – funksional bog'lanish, ya'ni bir miqdorning o'zgarishiga qarab boshqa miqdorning o'zgarishi o'rtasidagi bog'lanish asosida iqtisodiyotni tahlil etish.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsion aloqalarning yuqori darajadagi bir butun xo'jalik aloqalari sifatida birlashuvi.

Xalqaro mehnat taqsimoti – mehnatning turli davlatlar va ularning guruhilari o'rtasida taqsimlanishi bo'lib, alohida mamlakatlarning u yoki bu turdagi tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishga ixtisoslashuvini anglatadi.

Xalqaro savdo – mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalari, tovar aylanmasi hajmi bilan ifodalanadi.

Xarajatlar mexanizmi - ishlab chiqarish (sotish) uchun qilingan xarajatlarni qoplash va ma'lum miqdorda foyda olishni ta'minlaydigan tarzda narx belgilash.

Xarid quvvati pariteti – mamlakatda turli valyutalarning birligiga sotib olinishi mumkin bo‘lgan tovar – xizmatlar miqdori.

SHaxsiy daromad - bu shaxsga tegishli daromad, ya'ni faoliyat yuritib topilgan daromad. Milliy daromaddan ijtimoiy to‘lovlar, foydadan soliq, taqsimlanmagan foydani ayirib, transfert to‘lovlarini qo‘shib topamiz.

Eksport – mamlakatdan chetga chiqarilgan tovarlar miqdori (qiymat o‘lchovida).

Eksport bo‘yicha ixtisoslashuv koeffitsienti – mamlakatning jahon eksportida qanday mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashuvini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Eksport kvotasi – har bir mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarda qatnashuvini ifodalovchi ko‘rsatkich. Yil davomida chetga chiqarilgan tovar va xizmatlarning YaIMga nisbati bo‘yicha hisoblanadi.

Ekstensiv iqtisodiy o‘sinh – qo‘shimcha ishlab chiqarish resurslarini jalb etish evaziga erishilgan iqtisodiy o‘sinh.

Ehtiyoj – insonning yashashi, kamol topishi, jamiyatda ma’lum mavqega ega bo‘lishi uchun hayotiy ne‘matlarga bo‘lgan obektiv zaruriyat.

Yuksalish – siklning to‘la bandlikka, YaIMni potensial darajasiga yaqinlashish, hatto undan oshib ketishi, narxlarni o‘sishi kuzatiladigan, iqtisodiy faollik yuqori darajasidagi fazasi.

Yalpi investitsiyalar – sof investitsiya bilan modernizatsiya (yoki eskirgan asosiy kapitalni o‘rnini to‘ldirish) uchun yo‘naltirilgan investitsiyalar.

Yalpi ichki mahsulot – (YaIM) deb, resurslar manbaidan qat’iy nazar mamlakat hududida yil davomida yaratilgan pirovard mahsulotlar bozor qiymati.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – mamlakatning resurslari (er, ish kuchi, kapital, tadbirkorlik) qaerda joylashtirilishidan qat’i nazar, ular evaziga yaratilgan pirovard mahsulot (olingan daromad)dan iborat.

Yagona tarif setkasi – mehnat haqi bo‘yicha milliy iqtisodiyotda band bo‘lganlarning mehnat razryadi va ular bo‘yicha tarif koeffitsienti. Har bir razryadga muvofiq gorizontal razryadlar ham bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Yalpi talab – mamlakatda narxlarning turli darajasida iste'molchilar sotib olishga tayyor tovar va xizmatlar hajmi.

Yalpi taklif – mamlakatda narxlarning turli darajasidagi ishlab chiqarishning real hajmi, ya'ni ishlab chiqaruvchilar taklif qilishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning umumiy miqdori.

Yalpi taklif egri chizig'ining yotiq yoki Keyns kesmasi – mamlakatda bo'sh resurslar mavjud, narx o'zgarmagani holda milliy ishlab chiqarishning real hajmini ko'paytirish mumkinligini ko'rsatadi.

Yalpi taklif egri chizig'ining klassik yoki tik kemasi – mamlakat iqtisodiyotida resurslarning to'la bandligini, talab va narxlarning o'sishidan qat'i nazar ishlab chiqarish real hajmini ko'paytirib bo'lmazligini ko'rsatadi.

Yalpi taklif egri chizig'ining oraliq kesmasi – mamlakat iqtisodiyotida resurslardan to'la foydalana borilishi tufayli ishlab chiqarish hajmining o'sishi narxlar o'sishi bilan birgalikda yuz beradigan, keyns va klassik bo'laklar orasida joylashgan kesma.

O'zgaruvchan xarajatlar – miqdori ishlab chiqarish hajmiga bog'liq xarajatlar.

O'rtacha xarajatlar – mahsulot birligiga sarflangan xarajatlar.

Qisqa muddatli sikl – iste'mol tovarlariga bo'lgan bozor talabi va takliflari muvozanatining buzilishi va tiklanishi.

Hisob stavkasi – Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan kredit stavkasi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari va asarlari, me'yoriy hujjatlar

1.1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. 1995 yil 21 dekabr. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2003.

1.2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 1996 yil 25 aprel. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2003.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. 1996 yil 25 aprel. O'zbekiston Respublikasining moliyaviy qonunlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2004.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 7 noyabrdagi PQ-726-sonli "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish to'g'risida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.

1.5. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.

1.6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari // I.A. Karimov – T.: O'zbekiston, 2009.

1.7. Mirziyoev SH.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

1.8. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

1.9. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

1.11. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

1.12. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

II. Darsliklar

2.1. Abdullaeva SH. Pul, kredit va banklar. Darslik – T.: Iqtisod-moliya, 2007.

2.2. Абрамова М.А. Деньги, кредит, банки. – М.: КНОРУС, 2014.

2.3. Антонов А.Г., Пессель М.А. Денежное обращение, кредит и банки. – М.: Финстатинформ, 1993.

2.4. Банковское дело: Учебник / Под ред. Г.Н.Белоглазовой, Л.П. Кроливецкой. – М.: Высшее образование, 2010.

2.5. Бункина М.К. Деньги. Банки. Валюта: Учебное пособие. - М.: ДИС, 1994.

2.6. Банковское дело: / Под ред. О.И.Лаврушина. – М.: ИНФРА, 2014.

2.7. Деньги. Кредит. Банки: Учебник / Под ред. Г.Н.Белоглазовой. – М.: Высшее образование, 2009.

2.8. Деньги, кредит и банки: Учебник / Под ред. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2013.

2.9. Деньги, кредит, банки. Учебник / Под ред. Болвачева А.И., Богачевой М.Ю., ИНФРА-М 2012.

2.10.Деньги. Кредит. Банки. Учебник для вузов / Под ред. Е.Ф. Жуков и др., ЮНИТИ-ДАНА, 2015.

2.11. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: Учебник / Под ред. Л.Н.Красавиной. - М.: Финансы и статистика, 1994.

2.12.Общая теория денег и кредита; Учебник / Под ред. Е.Ф.Жукова. - М.: ЮНИТИ. Банки и биржи, 1998.

2.13.Omonov A.A, Qoraliev T.M. Pul, kredit va banklar. Darslik. T.: - IQTISOD-MOLIYA, 2012.

2.14. Rashidov O. YU., Alimov I.I., Toymuhamedov I. R., Tojiev R. R. Pul, kredit va banklar. Darslik. – T.: TDIU, 2011.

2.15. Финансы. Денежное обращение. Кредит: Учебник для вузов / Под ред. проф. Л.А. Дробозиной. - М.: ЮНИТИ, 1997.

III. O‘quv qo‘llanmalar

3.1. Abdullaev YO. va boshqalar. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.

3.2. Абрамова М.А., Александрова Л.С. Финансы, денежное обращение и кредит: Учебное пособие. - М.: Институт международного права и экономики, 1996.

3.3. Банковское дело: Учебное пособие / У. Азизов и др. – Т.: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2018.

3.4. Банковские операции: Учеб. пособие. Части 1–IV. / Под общ. ред. О.И. Лаврушина. - М.: Инфра-М, 1995.

3.5. Saidov D. Pul va pul muomalasi. O‘quv qo‘llanma / EXTREMUM-PRESS, 2011.

3.6. Финансы, деньги, кредит: Учебное пособие / Под ред. Е.Г. Черновой. СПб., 2009.

3.7. Трофимова Т.Е., Трофимов А.В. Деньги, кредит и банки: Учебное пособие. – Н.Новгород: Нижегородский госунивер., 2003.

IV. Ilmiy monografiyalar, maqolalar va boshqalar

4.1. Abdullaev A.YA. Tijorat banklarining likvidlik darajasini oishirish: muammolar va echimlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

4.2. Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash: muammolar va echimlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.

4.3. Долан Э.Дж., Кэмпбелл К.Д., Кэмпбелл Р.Дж. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика: Пер. с англ. / Под общ. ред. В.В. Лукашевича, М.Б. Ярцева. - СПб.: СПб оркестр: Литера плюс, 1994.

4.4. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с

англ. – Москва: Гелиос, АРВ, 1999.

4.5. Матук Ж. Финансовые системы Франции и других стран. - М.: Финстатинформ, 1994.

4.6. Синки мл. Д.Ф. Управление финансами в коммерческих банках: Пер. с англ. - М.: Саталлахи, 1997.

4.7. Соколинская Н.Э. Учет и анализ краткосрочных и долгосрочных кредитов. - М.: Консалтбанкир, 1997.

4.8. Тимоти У.Кох. Управление банком: Пер. с англ. В 5-ти книгах, 6-ти частях. – Уфа: Спектр. Часть III, IV, 1993.

4.9. Челноков В.А. Банки: Букварь кредитования. Технология банковских ссуд. Околобанковское рыночное пространство. - М.: Антидор, 1996.

4.10. Шенаев В.Н., Ирниязов Б.С. Проектное кредитование: Зарубежный опыт и возможности его использования в России. - М.: Консалтбанкир, 1996.

4.11. Ширинская Е.Б. Операции коммерческих банков: российский и зарубежный опыт. - М.: Финансы и статистика, 1995.

4.12. Уэрта де Сото Хесус. Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008.

4.13. Финансово-кредитный энциклопедический словарь // Под ред. А.И.Грязновой. - М.: Финансы и статистика, 2004.

4.14. Абдуллаев А.Я. Прогнозирование процессов воспроизводства и структуры банковских ресурсов в обеспечении ликвидности коммерческого банка Узбекистана // Финансовый менеджмент. - Москва: 2014. - № 5.

4.15. Абдуллаев А.Я. Разработка методики определения рейтинга оценки ликвидности коммерческих банков Узбекистана // Финансовый менеджмент. – Москва: 2014. - № 6.

4.16. Абдуллаев А.Я. Оптимизация формирования, распределения и использования финансовых ресурсов финансового сектора страны // Финансовый менеджмент. Москва: 2019. - № 4.

4.17. Abdullayev A.Ya. Working out under methods of the construction of a rating of liquidity while functioning commercial banks of Uzbekistan // International Journal of Economics, Commerce and Management, United Kingdom, Vol. III, Issue 11, November 2015. pp. 241-249.

4.18. Abdullayev A.Ya. The development of methods of analysis and forecasting of the liquidity of commercial banks in Uzbekistan // SAARJ Journal on Banking&Insurance Research. India. Vol 4, Issue 6 Nov. 2015. pp. 73-87.

4.19. Abdullayev A.Ya. Working out of a methods of construction of a rating of liquidity of functioning of commercial banks of Uzbekistan // Rossiyskiy nauchnyy jurnal Ekonomika, statistika i informatika. – Moskva, 2015. № 5.

4.20. Abdullayev A.Ya. Sonceptual bases of the study of the crisis and liquidity of commercial banks // Journal of Management Value & Ethics, India, Vol. 6, No. 1 (Issue Jan-March 16) 2016. pp. 31-51.

M U N D A R I J A

MUQADDIMA	3
B I R I N C H I B O B	
KREDITNING ZARURLIGI VA MOHIYATI	
1.1-§. Kreditning zarurligi va uni belgilovchi omillar	6
1.2-§. Kreditga bo‘lgan talabning paydo bo‘lishi	10
1.3-§. Kreditning mohiyati va uning namoyon bo‘lish shakllari	16
I K K I N C H I B O B	
KREDITNING QONUNLARI VA FUNKSIYALARI	
2.1-§. Kredit qonunlarining zarurligi va ob‘ektivligi	33
2.2-§. Kredit funksiyalari	37
2.3-§. Kredit pullari: veksel, banknota, cheklar	41
U C H I N C H I B O B	
KREDITNING TURLARI VA SHAKLLARI	
3.1-§. Kreditning turlari	48
3.2-§. Kreditning shakllari	52
T O ‘ R T I N C H I B O B	
KREDITNING BAHOSI VA UNGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR	
4.1-§. Kredit bahosi va uning shakllanish mexanizmi	61
4.2-§. Kreditning foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari	67
4.3-§. Kredit bahosiga ta’sir qiluvchi omillar	72
B E S H I N C H I B O B	
KREDIT TIZIMI VA UNING BARQARORLIGIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR	
5.1-§. Kredit tizimining mohiyati va tarkibi	77
5.2-§. Kreditni tashkil qilish prinsiplari	85
5.3-§. Kredit tizimining barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar	88

O L T I N C H I B O B
KREDITNING MILLIY IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

6.1-§. Kreditning iqtisodiyotning real sektori korxonalarining joriy va investitsion xarajatlarini moliyalashtirishdagi roli	93
6.2-§. Kreditning qurilish industriyasini rivojlantirishdagi roli	100
6.3-§. Kreditning eksport-import operatsiyalarini rivojlantirishdagi roli	105
6.4-§. Kreditning aholining turmush farovonligini oshirishdagi roli	112
 ASOSIY TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG‘ATI	 117
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	138

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
 П Е Р В А Я Г Л А В А	
НЕОБХОДИМОСТЬ И СУЩНОСТЬ КРЕДИТ	
1.1-§. Необходимость кредита и его факторы	6
1.2-§. Появление потребности к кредиту	10
1.3-§. Сущность кредита и появление его формы	16
 В Т О Р А Я Г Л А В А	
ЗАКОНЫ И ФУНКЦИИ КРЕДИТА	
2.1-§. Необходимость и объективность законы кредита	33
2.2-§. Функции кредита	37
2.3-§. Кредитные деньги: вексель, банкнота, чек	41
 Т Р Е Т А Я Г Л А В А	
ВИДЫ И ФОРМЫ КРЕДИТА	
3.1-§. Виды кредита	48
3.2-§. Формы кредита	52
 Ч Т В Е Р Т А Я Г Л А В А	
ЦЕНА КРЕДИТА И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЕЁ	
4.1-§. Цена кредита и механизм его формирование	61
4.2-§. Процентная ставка кредита и их методы исчисление	67
4.3-§. Факторы, влияющие на цены кредита	72
 П Я Т А Я Г Л А В А	
КРЕДИТНАЯ СИСТЕМА И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УСТОЙЧИВОСТИ КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ	
5.1-§. Сущность и структура кредитной системы	77
5.2-§. Организационные принципы кредитования	85
5.3-§. Факторы, влияющие на устойчивости кредитной системы	88

Ш Е С Т А Я Г Л А В А
РОЛЬ КРЕДИТА В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ЭКОНОМИКИ

6.1-§. Роль кредита в финансирования текущего и инвестиционного расходы предприятий реального сектора экономики	93
6.2-§. Роль кредита в развитии строительной индустрии	100
6.3-§. Роль кредита в развитии экспортно-импортной операции	105
6.4-§. Роль кредита в повышении благостостояния в жизни населения	112
 ТОЛКОВАНИЕ СЛОВ ОСНОВНОЙ ПОНЯТИИ	 117
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ	138

C O N T E N T

INTRODUCTION	3
FIRST CHAPTER	
NEED AND ESSENCE OF LOAN	
1.1-§. The need for a loan and its factors	6
1.2-§. The emergence of a need for credit	10
1.3-§. The essence of the loan and the appearance of its form	16
SECOND CHAPTER	
LAWS AND FUNCTIONS OF LOAN	
2.1-§. The necessity and objectivity of the laws of credit	33
2.2-§. Functions of the loan	37
1.3-§. Credit money: bill, banknote, check	41
THIRD CHAPTER	
TYPES AND FORMS OF LOAN	
3.1-§. Types of loan	48
3.2-§. Forms of credit	52
FOURTH CHAPTER	
LOAN PRICE AND FACTORS AFFECTING IT	
4.1- §. The price of the loan and the mechanism of its formation	61
4.2-§. The interest rate of the loan and their calculation methods	67
4.3-§. Factors affecting loan prices	72
FIFTH CHAPTER	
CREDIT SYSTEM AND FACTORS INFLUENCING	
CREDIT SYSTEM STABILITY	
5.1-§. The essence and structure of the credit system	77
5.2-§. Organizational principles of lending	85
5.3-§. Factors affecting the stability of the credit system	88

SIXTH CHAPTER

ROLE OF LOAN IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL ECONOMY

6.1-§. The role of credit in financing current and investment expenses of enterprises in the real sector of the economy	93
6.2-§. The role of credit in the development of the construction industry ..	100
6.3-§. The role of credit in the development of export-import operations ..	105
6.4-§. The role of credit in improving well-being in the life of the population.....	112
INTERPRETATION OF THE WORDS OF THE BASIC CONCEPT	117
LIST OF LITERATURE	138

MUALLIF TO'G'RIDA MA'LUMOTNOMA

Altinbek Yangibaevich ABDULLAEV - iqtisod fanlari doktori (DSc), Jizzax politexnika instituti "Menejment" kafedrası professori.

1990 yilda Toshkent Xalq xo'jaligi institutining Moliya va kredit fakultetini tamomlagan.

1995 – 2001 yillarda RIATb "G'allabank"ida Kredit-reja bo'limi boshlig'i; Pul muomalasi, kassa, valyuta amaliyotlari va qimmatbaho qog'ozlar bo'limi boshlig'i; Valyuta, qimmatbaho qog'ozlar va veksel muomalasi bo'limi boshlig'i; Bank tizimini avtomatlashtirish bo'limi boshlig'i, bank boshlig'i o'rinbosari va boshliq. 2001 - 2005 yillarda DAI "Zamin bank" Bank Kengashi Ichki audit boshqarmasining bosh auditori. 2005-2007 yillarda DT Xalq banki filial boshqaruvchisi. 2007-2009 yillarda ATB Paxtabank filialida boshliq o'rinbosari. 2009 - 2013 yillarda Toshkent Moliya instituti "Banklarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası dotsenti, ayni paytda Jizzax politexnika instituti "Menejment" kafedrası professori v.b.

2018 yilda Bank-moliya akademiyasidagi Ilmiy kengashda "Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish metodologiyasini takomillashtirish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Bank-moliya tizimi muammolariga bag'ishlab AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Rossiya, Vetnam kabi davlatlarda o'tkazilgan xalqaro anjumanlar ishtirokchisi. Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan International Journal of Economics, Commerce and Management (Angliya), Journal of Management Value & Ethics (Hindiston), SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (Hindiston), Finansovyy menejment (Rossiya), Ekonomika, statistika i informatika (Rossiya), South Asian Journal of Marketing& Management Research (SAJMMR) (Hindiston), ACADEMICA An International Multidisciplinary research Journal (Hindiston), O'zbekiston iqtisodiyot axborotnomasi, Bozor, pul va kredit, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, Birja Ekspert, Biznes-Ekspert kabi jurnallar hamda AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Rossiya, Vetnam kabi davlatlarda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyalar va anjumanlarda ishtirok etgan va chop ettirilgan - 100 yaqin ilmiy maqolalar muallifi (oltinbek60@gmail.com yoki oltinbek60@gmail.com3 elektron pochtaida ayrim maqolalar havola etilgan, tanishishingiz mumkin).

2017 yilda Abdullaev A.Ya.ning "Tijorat banklarining likvidlilik darajasini oshirish: muammo va echimlar" nomli monografiyasi "Fan va texnologiya" nashriyotida chop etilgan.

